
Boqiy satrlar

Alisher Navoiy

VAFO QILSANG

Gʻazallar



Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2004

Tahrir hay'ati: **Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov,
Najmiddin Komilov, Abdurashid Abdug'afurov, Vahob Rahmonov**

To'plab, nashrga tayyorlovchi: **Aziz Qayumov**

Mas'ul muharrir: **Vahob Rahmonov**

Alisher Navoiy.

N14 **Vafo qilsang: G'azallar /Alisher Navoiy; To'plab nashrga
tayyorlovchi: Aziz Qayumov. Mas'ul muharrir: Vahob
Rahmonov. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. 2004. — 268 b.**

Navoiyning lirik she'rlari inson qalbining eng nozik kechinmalarini yuksak badiiyat bilan ifoda etadi. Ularda hayotning turli ko'rinishlari ham o'z aksini topgan. Demak, inson — bu hayot, bu she'riyatning mohiyatini tashkil etadi. *Shoirning lirik qahramoni boy ma'naviy dunyoga ega bo'lgan barkamol inson. Uning hayajonlari, sevgi dardida chekkan iztirob va ahlamlari, mahbubaga chin sadoqati har bir kishi ko'ngliga yaqin va hamohang.*

Ushbu to'plamda Alisher Navoiyning uch devonidan terib olingan g'azallar jamlangan. Ular kishilarimizning ruhiy dunyosini boyitadi, ularning hayotga munosabatini mukammallashtirmoqqa xizmat qiladi.

BBK 84(5U)1

N 4702620102-71 2004
M352(04)—2004

ISBN 5-635-02273-1

© **G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
2004-y.**

DEBOCHA

*Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado.
Ul nazmg'a jonin qilibon xalq fido,
Solurlar edi gunbazi gardunga sado.*

Alisher Navoiyning bu so'zlaridan ma'lumki, u tinmay ijod qilar, uning she'rlari el og'ziga tushib kuylanar, bu kuy sadolari osmonlarni qoplar edi.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida yozgan o'zbekcha she'rlarini oltita devonga to'plagan. Birinchi devoni "Badoye' ul-bidoya", ikkinchisi "Navodir un-nihoya"dir. Shoir umrining oxiriga yaqin barcha she'rlarini xronologik tartibda to'rt devonga taqsimlab chiqdi. Bu to'rt devonni bir to'plamga jamladi. Bu to'plamning nomini "Xazoyin ul-ma'oniyy" ("Ma'nolar xazinalari") deb atadi.

Ushbu nashrda Alisher Navoiy tuzgan devonlarning ayrimlaridan namunalar keltirilgan. Bu namunalar she'rlarning oxirgi harfiga qarab alifbe tartibida joylashtirilgan. Shunday qilib, ushbu nashrda Alisher Navoiyning lirik she'rlari to'g'risida umumiy tasavvur tug'dirish vazifasi maqsad qilib qo'yilgan. Bu maqsadning qanchalik amalga oshirilgani yoki oshirilmagani bo'yicha fikr qilish va hukm chiqarish muhtaram kitobxonlar ixtiyoridadir.

Aziz Qayumov



* * *

Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo¹,
Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqti sado.

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Ey xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'on safol,
Jom o'lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado.

Jomu may gar buyladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido.

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar
Chehrai maqsud, mahv o'lg'ay hamul dam moado.

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Sen gumon qilg'ondin o'zga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidin
"Ishrabu yo ayyuhal-atshon"² kelur har dam nido.

Mazmuni:

¹ To'g'ri yo'lga yetaklash nurlari kosadagi quyosh aksida yaraqlab ko'rinmoqda...

² "Ishrabu yo ayyuhal-atshon" — "Ichingiz, ey tashnalar!" Bu g'azalda xudo yo'lga tushgan insonning xudoga yetishuvi to'g'risida so'z bormoqda. Bu mayi vahdat (birlik mayi) vositasida amalga oshadi.

* * *

Bediling xayli rusuli sensen alarg'a dilrabo,
Yo nabiy ruhiy fidoka ahlan va sahlan marhabo¹.

Gohi davlatlig' boshingdin ketmayin chatri sahob,
Gah falakrav markabingg'a yetmayin payki sabo.

Shomi vasling topmag'ang'a subhi sodiq har sahar,
Panjai xurshid ila pirohanin aylar qabo.

Tufroq o'lmishmen qo'yay deb ostonbo'sungg'a yuz,
Holima rahm aylabon qilma bu ranjimni habo.

Sheri gardun ul kishiga bo'yni bog'lig' bo'lg'ay it
Kim, eshiging itlarin topqay o'ziga aqrabo.

Bo'lmag'ay erdi muyassar "Xamsa", ya'ni panj ganj
Qilmasa erdi madad holimg'a besh oli abo.

Ey Navoiy, chorai dardingni qilg'ay, ulki bor
Ham rasulu, ham amin, ham mustafo, ham mujtabo.

Mazmuni:

¹Payg'ambarlar jamoasi seni sevadilar, sen ular uchun seviklisan.
Ey payg'ambar, ruhim senga fido bo'lsin, marhabo, marhamat qilgin.

* * *

Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga.

Kim fano tufrog'ig'a yotib qo'yar tosh uzra bosh,
Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga.

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar;
Ham o'zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga?!

Har ne shah maqsudidur — darveshning mardudidur,
Ko'r, nedur himmat munga, ne nav' erur holat anga.

Faqr ko'yi tufrog'in shah mulkiga bermas faqir,
Mulk, ko'rkim, teng emas tufrog' ila qiymat anga.

Shah sipah cheksa, faqir ahvolig'a yetmas futur,
Bu vale chekkach nafas, barbod o'lur hashmat anga.

Shoh emastur bir nafas osuda do'zax vahmidin,
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.

Shahg'a sidq ahli damidin mash'ali davlat yorur,
Mehrdekkim, subh anfosi ochar tal'at anga.

Shohg'a shahlig' musallamdur, agar bo'lg'ay mudom
Shohlig' tarkin qilib, darvesh o'lur niyat anga.

Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig', magar
Shohi G'oziykim, muyassar bo'ldi bu davlat anga.

Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, bor
Shohlig' surat anga, darveshlik siyrat anga.

To shahu darvesh bo'lg'ay, aylagil, yo rab, ayon
Shohdin xizmat anga, darveshdin himmat anga.

Gar Navoiy so'z uzatti, faqrdin ermas demang,
Bo'lmag'uncha hukm shahdin, qayda bu jur'at anga?



Ham ramad¹ tekkan ko'zungga jismi bemorim fido,
Ham uchuq chiqqan labingg'a joni afgorim fido.

Ashkkim, andin tomar giryon² ko'z oning sadqasi,
Qong'akim mundin chiqar, bu chashmi xunborim fido.

Ul ko'zu bu labg'a umrum bog'u gulzorindag'i
Nargisu gulbargi yo'qkim, bog'u gulzorim fido.

Ko'zu og'zingdin ketarga boru yo'q oshubu ranj,
Sabru ishqim sadqa, ya'nikim yo'qu borim fido.

Gar ko'ngul ohu ko'zung ollinda loyiq bo'lmasa,
Itlaringga bo'lsun, ey sho'xi sitamkorim, fido.

Jon agar shirin labingg'a o'lgali darxo'r³ emas,
Ayla alfozing⁴ uchun, ey talxuftorim⁵, fido.

O'zlugumnung qaydidin⁶ bir may bila qilding xalos,
Vah, ne dey, ey mug'⁷, sanga but birla zunnorim fido.

Boda mir'otida shohid aksi zohir bo'lmadi,
Bodavu shohidg'a bo'lmay naqdi pindorim fido.

Ey Navoiy, demakim, jonu ko'ngulni naylading,
Ayladim javlon qilib chiqqanda dildorim fido.

¹ R a m a d — ko'z og'rig'i; ² g i r y o n — yig'lovchi; ³ d a r x o' r — loyiq, munosib; ⁴ a l f o z — so'zlar; ⁵ t a l x g u f t o r — achchiq so'zlovchi; ⁶ q a y d — bandilik; ⁷ m u g' — mayfurush.

* * *

Ul parivashkim, bo'lubmen zoru sargardon anga,
Ishqidin olam manga hayronu, men hayron anga.

O'qlaringdin har zamon taskin topar ko'nglum o'ti,
Bordurur bir qatra suv go'yoki har paykon¹ anga.

Bir dilovardur ko'ngulkim g'am sipohi qalbida,
Ohi novak toza dog'idur qizil qalqon anga.

Novakining² parru paykonida rangin tus erur,
Yoki ko'nglumdin chu parron o'tti, yuqmish qon anga.

Nomayi shavqum ne nav' ul oyg'a yetgay, chunki men
El otin o'qur hasaddin yozmadim unvon anga.

Xizr xattingning ajab yo'q sabzu xurram bo'lmog'i,
Lab-balab chunkim berur suv chashmayi hayvon anga.

Ey xusho mug' dayrikim³, ziynat bila rif 'atda⁴ bor
Mehr anga bir shamsavu⁵ ko'k toqi bir ayvon anga.

Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin⁶
Bag'ri qotmish g'unchaning baskim erur xandon anga.

Qilmag'on jonni fido jonong'a yetmas der emish,
Ey Navoiy, ushbu so'z birla fido yuz jon anga.

¹ P a y k o n — tikan; ² n o v a k — kamon o'qi; ³ m u g' d a y r i — mayxona; ⁴ r i f' a t — yuksalish; ⁵ s h a m s a — uy shiftiga va peshtoqlariga quyosh shaklida solingan naqsh; ⁶ j o l a — yomg'ir.

* * *

Ko'rgali husnuningni zoru muftalo bo'ldum sanga,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldum sanga.

Men qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo'lg'il, fido bo'ldum sanga.

Qay pari paykarga, dersen, telba bo'ldung bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga bo'ldum, sanga.

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam¹ ichra Xizr suyi² nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.



¹ J o m i J a m — podshoh Jamshidning qadahi. Uni tilsimi bo'lgan;

² X i z r s u y i — hayot suvi.

Labing sori tokim nazardur manga,
Yosh o'rnida xuni jigardur manga.

Dema, mendin ayril, dog'i umr sur,
Ki ul umr o'lumdin batardur manga.

Tuganlar¹ diram² shaklidur zod³ uchun,
Adam sori chunkim safardur manga.


Qilur ayb oshiqlik'im barcha xalq.
Ulus aybi, vahkim, hunardur manga.

Tabibo, yana sabrdin dema so'z
Ki bu sharbatingdin zarardur manga.

Dema, mayni tark etki, soqiy yuzi
Bu ko'zgu aro jilvagardur manga.

Chuchukdur qamish o'qlaring jonima,
Bu nay ichra go'yo shakardur manga.

Navoiy, ul oy hajrida tunu kun
Qotiq shomu tiyra sahardur manga.



¹ T u g a n l a r — belgi, dog'; ² d i r a m — tanga; ³ z o d — ruhiy ozuq.



* * *

Menmudurmenkim sening vasling muyassardur manga,
Baxti gumrahdin qachon bu qissa bovardur manga.

Haq tonuqturkim, tiriklikdin manga sensen murod,
Yo'qsa, olamning yo'qu bori barobardur manga.

Ey ko'ngul, g'avvosi bahri vasl o'lubmen, ne ajab,
Kim nasib emdi o'shul pokiza gavhardur manga.

Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,
Ko'ziyu og'zi bukun bodomu shakkardur manga.

Oyu xurshidingni yig', ey charxi gardunkim, bu dam
Hamdam ul oy chehralig' xurshidpaykardur manga.

Sarvni o'rtaib, sumanni elga ber, ey bog'bon,
Kim bukun hamsuhbat ul sarvi sumanbardur manga.

Qo'rqaram hirmon sahobin yopmag'ay fahm etsa charx,
Kim shabiston mehr sham'idin munavvardur manga.

Ey Navoiy, hech bilmonkim topibmen vaslini,
Yo magarkim jumlayi olam musaxxardur manga?



* * *

Kimsa hargiz ko'rmadi chun ahli davrondin vafo,
Ulki davron ofatidur, ne tama' ondin vafo?!


Jonimu umrumdur ul oy, bevafo bo'lsa, ne tong,
Qayda ko'rmish kimsa hargiz umr ila jondin vafo?

Gar vafo qilsang erur, andinki, bordursen pari,
Yo'qsa, kim olamda ko'rmish nav'i insondin¹ vafo?

Vahki, davron ahlidin juz² bevafo^{lig} kelmadi,
Har nechakim ko'rdilar men zoru hayrondin vafo.

Chun vafo gulbargi davron bog'ida ochilmadi,
Bejihatdur kimki istar bu gulistondin vafo.

Kimsa ko'nglin kimsadin istab vafo, oldurmasun,
Kim manga xud yetmadi ul ko'nglum olg'ondin vafo.



¹ Nav' i i n s o n — inson zotidan; ² j u z — boshqa.

* * *

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a¹ parvo aylasa,
Har ko'ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.

Har kishi vaslin tamanno² aylasam navmid o'lay,
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.

O'zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko'zum,
O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasa.

G'ayr zikrin oshkora qilsa lol o'lsun tilim,
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.

Rashkdin jonimg'a har nargis ko'zi bir shu'ladur,
Bog' aro nogah xirom ul sarvi ra'no aylasa.³

Yo'q og'izdin nukta aytur mahvashimdek bo'lmag'ay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.

Oqibat jonimg'a yetti, ey xusho mug'kim, meni
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.

Kelturing daf 'i⁴ jununung'a parixon, yo'q tabib,
Kim ul ansabdur⁵ pari har kimni shaydo aylasa.

Subhdek bir damda gardun⁶ qo'ymag'ay osorini
Nogah ahli sidq ko'ngli mehrin ifsho⁷ aylasa.

Dahr⁸ sho'xig'a, Navoiy, sayd bo'lma, nechakim
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro⁹ aylasa.

¹ G' a y r — o'zga; ² t a m a n n o — orzu; ³ d a f ' i — ketkazish;
⁴ a n s a b — munosibmoq, loyiqroq; ⁵ g a r d u n — osmon; ⁶ i f s h o —
ochmoq, ko'rsatmoq; ⁷ d a h r — zamona; ⁸ m u t a r r o — toza, yangi.

* * *

Qosidekim¹ yordin bir soʻz rivoyat aylasa,
Istaram soʻrgʻon soyi boshtin hikoyat aylasa.

Telbalar yangligʻ gah oʻz holimdadurmen, goh yoʻq,
Ul paridin har kishi bir soʻz rivoyat aylasa.

Ey koʻngul, ohingni dersenkim suv aylar toshni,
Chin erur, gar koʻngliga oning siroyat² aylasa.

Jongʻa basdur har nafas bir dogʻ, nevchun boʻlmasun
Qoni³ ulkim, bir diram⁴ har dam kifoyat aylasa.

Topti Majnun shuhratu galdi mening qissam nihon,
Kim oʻlar har kim fasonamni⁵ bidoyat⁶ aylasa.

Gʻam sipah qasdingʻa tortibtur, ne boʻldi piri dayr
Bir qadah birla bu mahzunni himoyat aylasa?

Ey Navoiy, faqrдин bebahradur yuz gʻam yetib,
Solikekim⁷ shukr borinda shikoyat aylasa.

¹ Q o s i d — xabarchi; ² s i r o y a t — kirish, taʼsir qilish;
³ q o n i — qoniquvchi; ⁴ d i r a m — tanga; ⁵ f a s o n a — afsona;
⁶ b i d o y a t — boshlamoq; ⁷ s o l i k — yoʻlchi.

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'ti takallum¹ shakkaristondin judo.

Ul quyosh hajrida qo'rqarmen falakni o'rtagay
Har sharorekim², bo'lur bu o'tlug³ afg'ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig'onu nola ko'p,
Jism aylarmu fig'on bo'lg'on nafas jondin judo?

Bo'lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag'il
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.

Hajr o'lumdin talx³ emish, mundin so'ng, ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg'uncha jonondin judo.

Vasl aro parvona o'rtandi, hamono bildikim
Qilg'udekdur subh ani sham'i shabistondin judo.

Bir iyosiz⁴ it bo'lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo'lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo.



¹ Takallum — so'z aytmoq; ² shara'r — uchqun, alanga; ³ talx — achchiq; ⁴ iyosiz — egasiz.

* * *

Tushta ko'rdum yorni xandon raqibin o'truda¹,
Rashkdin har lahza tish qirchillaturmen uyquda.

Ul yuzi vasli aro yodimg'a kelsa furqati,
Telbalar yanglig' to'karmen ashk ayni kulguda.

Ko'zgu jannat ravzanidurkim², tamosho etgali,
Hur kelmish go'yiyo, aksing emastur ko'zguda.

Yulduz itgandek quyosh yog'dusig'a itti quyosh,
Orazing xurshidi chun qildi tulu'³ ul yog'duda.

Soqiyo, bir jur'a tut, shoyadki yuzlangay nishot,
Necha bo'lg'ay hajridin ozurda ko'nglum qayg'uda.

O'zlugumni ashk eltib o'zdin andoq yotmen
Kim, o'zumni tonimon aksimni ham ko'rsam suda.

Chun Navoiy yor sori yuzlanur, qayg'u qolur,
Soya qolg'andek keyin xurshid bo'lg'ach o'truda.



¹ O't r u d a — yonida, qarshisida; ² r a v z a n — darcha, teshik;
³ t u l u ' — chiqish, ko'rinish.

* * *

Xil'atin¹ aylabmudur ul sho'xi siyminbar qaro,
Tun savodi² birla kiygandek mahi anvar³ qaro.

Ul pari hindusimen men telbakim, uryon⁴ tanim
Tifllar toshidin iynak bo'ldi sartosar qaro.

Ashkdin indi qaro su ko'zlarimdin hajrida,
Tong yo'q idborim⁵ chu bo'lmishdur menga axtar⁶ qaro.

Kosh o'yub yoqsang qaro bo'lg'an ko'zumning mardumin,
Xoli maygunungni qilg'uncha qo'yub anbar qaro.

Ishq raf⁷ o'lg'ach, ko'ngulga yo'qturur juz tiyralik,
Ul sifatkim, sho'lasi o'chgach bo'lur axgar⁸ qaro.

G'ayrdin qilg'il zamiring safhasin pok, ey faqir,
Tobakay qilmoq firibu makr ila daftar qaro.

Dudi ohidin qaro ermas Navoiy kulbasi
Kim, qilibtur xonumonin bir pari paykar qaro.

¹ Xil'at — kiyim; ² savod — qora; ³ mahi anvar — nurli oy;
⁴ uryon — yalang'och; ⁵ axtar — yulduz; ⁷ raf' — ko'tarilish,
ketish; ⁸ axgar — cho'g'.

* * *

Xo'blarda mehr yo'q, chun mehr yo'q ul mohda,
Xayli tobi'dur qayu xilqatki bo'lg'ay shohda.

Hech kim yo'qturki yor ollida yo'qtur mansabi,
Bizga bemansablig' o'lmish mansab ul dargohda.

Shomi hijron charxu nahs axtarlaridindur nishon,
Tiya ko'nglum har sharar ko'rguzsa dudi ohda.

Ko'nglung istar bo'lsa yuz ming jonni etgaymen nisor,
Gar bu dilxoh¹ itganin fahm etsam ul dilxohda.

Mujibi anduhdur afg'onim, nishot² etmang tama',
Jonfizolig' kim ko'rubtur nolai jonkohda³.

Bilki, yo'qtur ko'nglida ishqu muhabbatdin asar,
Kimki davron ichra bo'lsa ko'ngli molu johda.

Sham'i tavfiq⁴ o'lmayin ravshan qachon yo'l topqamen,
Kim erur ko'p zulmati hijron meni gumrohda.

Bor umidimkim, yetishgay oqibat ogohlig',
Gar yerim bo'lsa gahi bir xotiri ogohda.

Ey Navoiy, elga men xud qilmadim ishqimni fosh,
Turfa ko'rkim har taraf bu so'z emish afvohda⁵.

¹ Dil x o h — yoqimli; ² n i s h o t — sh o d l i k; ³ j o n k o h — jonni
koyituvchi; ⁴ t a v f i q — yordam, madad; ⁵ a f v o h — og'izlar.

Ul pari paykarki hayron bo'lmish insu jon¹ anga,
Kimki hayroni emas, men telbamen hayron anga.

Ne ajab parvonadek kuysam yuzi sham'ig'akim,
Ko'p bo'lubmen vasl umidi birla sargardon anga.

Toyiri² hajring buzug' ko'nglumnikim qilmish vatan,
Chug'zdekdurkim³, nishiman⁴ keldi bu vayron anga.

Hajrida tah-tah⁵ ko'ngul qon bog'lag'andindur nishon,
Nomai shavqumki ko'zdin tomdi tim-tim qon anga.

Tiyrboroni g'aming ko'nglulgakim yog'di, erur
Har tarafdin barqi ofat lam'ai⁶ paykon anga.

Otashin gul chunki bulbul kuydurur yuz vajh ila,
Ne osig'⁷ faryodu afg'on birla ming doston anga.

Ey Navoiy, ko'ngluma amr etma tarki ishqkim,
Ul samandardur, emas o't furqati imkon anga.



¹ I n s u j o n — barcha jonlilar; ² t o y i r — qush; ³ c h u g' z — boyo'g'li; ⁴ n i s h i m a n q i l m o q — joylashmoq; ⁵ t a h - t a h — qavatma-qavat; ⁶ l a m' a — shu'lla; ⁷ o s i g' — foyda.

* * *

Nechakim kuyar ishq aro jon menga,
Emas tarkini qilmoq imkon menga.

Agar bo'lsa yuz jon fido qilg'amen,
Nasib o'lg'udek bo'lsa jonon menga.

Necha bo'lsa ag'yor hamsuhbati,
Erur bazmini ko'rmak armon menga.

Agar rashkdin sa'b¹ bo'lsa hayot,
Xud ul dam erur o'lmak oson menga.

Qilibdur guli otashin g'unchasi,
Ko'ngulni o'kush² so'zi³ hijron menga.

Ne kom olg'amen, soqiyo, bodadin,
Ki davron tutar dam-badam qon menga.

Navoiy, ketib xilvat et uynikim,
Bo'lur bu kecha yor mehmon menga.

¹ S a ' b — qattiq; ² o ' k u s h — ko'p, talay; ³ s o ' z — yonish.

* * *

Ko'zungga tani notavonim fido,
Ravonbaxsh¹ la'lingg'a jonim fido.

Labing rangi olinda qonim sabil,
Qading jilvasig'a ravonim fido.

Belu og'zing oldik tanu jonnikim,
An(ga) oshkoru nihonim fido.

Bag'ir la'li, ko'z durri ollingda sarf,
Demaykim senga bahru konim fido.

Junun birla aqlim g'aming sadqasi,
Ki ollingda yaxshi-yomonim fido.

Fano² dashtida qoni ovoralg'
Kim, ul sayrg'a xonumonim fido.

Navoiydin olding ko'ngil, joni ham
Senga bo'lsun, ey dilsitonim³, fido.



¹ R a v o n b a x s h — jon bag'ishlovchi; ² f a n o — yo'qlik;
³ d i l s i t o n — sevgili.

* * *

Dardi hajrimg'a ul iki la'li xandondur davo,
Kim o'lar Iso damiyu obi hayvondur¹ davo.

Ne davo Iso damin² fahm ayla, ne hayvon suyin,
Hajr jonin olg'an elga vasli jonondur davo.

Ishq aro za'fim davosi sharbat ermas, ey hakim,
Sharbati vasl etmayin hosil ne imkondur davo.

Hajr aro dardim davosin yor mushkil deb emish,
Rahm agar qilsa aning ollida osondur davo.

Darddin g'amgin ko'ngulda xona qilmish yuz mavod³,
Ey qaro ko'z, daf'ig'a bir neshi mujgondur davo.

Zulfi zunnorig'a bog'lang'an uzorin ochti yor,
Zulmati kufr ichra elga nuri imondur davo.

Gar mening bedillig'im dardi davosin istasang,
Ey Navoiy, bu marazg'a ko'nglum olg'ondur davo.



¹ O b i h a y v o n — hayot suvi; ² i s o d a m i — o'likni tiriltiruvchi Iso payg'ambarning nafasi; ³ m a v o d — madda yig'ilgan shish.

* * *

Havo xush erdiyu ilkimda bir qadah mayi nob,
Ichar edim vale g'amdin qadah-qadah xunob.

Ki hozir erdi o'shul sarvi nargisi maxmur¹,
Valek rag'mima² qilmas edi qadahg'a shitob.

Manga ne zahraye³ ulkim, desamki, bir qadah ich,
Ne onsiz ichgali may, ne qaroru toqatu tob.

Bu g'ussa birla ichim qon bo'lub nechukki qadah,
Ko'zumga har nafas ashk evrulub misoli hubob⁴.

Chu angladiki, borur ixtiyor ilgimdin,
Kulub qadah kibi lutf ayladiyu qo'ydi itob⁵.

Qadahni ichtiyu yuz loba⁶ birla tutti manga,
Ki oning ichgani-o'q qildi meni mastu xarob.

Chu soqiy etti qadah ko'zgusida jilvayi husn,
Ne ayb, oshqi mayxora ko'ngli bo'lsa yabob⁷?

Navoiy, vasl bihishtida shukr qil bu nafas.
Ki yona chekmagasen hajr do'xaxida azob.

¹ M a x m u r — xumori; ² r a g' m — qarshi ish qilmoq; ³ z a h r a — shijoat, jur'at; ⁴ h u b o b — ko'pik, ⁵ i t o b — noz, tarang qilish; ⁶ l o b a — o'tinish; ⁷ y a b o b — xarob.

* * *

Labingdin xasta jonkim bo'ldi betob,
Emas betob, anga erur shakarxob¹.

Yoshimdin obro'yum bordi, bildim
Ki, ravnaqsiz qilur oltunni siymob.

Qoshing hajrida har na'leki kessam,
Kelur payvasta, jono, shakli mehrob.

Qilich bog'i beling quchqan hasaddin
Ko'zumga ajdaredur shakli qullob².

Ko'zum ollindadur la'ling xayoli,
Emas kipriklarim ustida xunob.

Firoq ilgi, fig'on, jon rishtasidin
Chiqorur tordin andoqki mizrob³.

Falak boshingg'a qoplab it terisin,
Sen oni jahldin deb kishu sinjob⁴.

Ajab yo'q. odamiyliqni unutsang,
O'zungni telba it charmida asrob.

Navoiy, ranj ko'rma, og'zin istab,
Kim ul bir javharedur asru noyob.

¹ Sh a k a r x o b — shirin uyqu; ² q u l l o b — egma, qarmoq;
³ m i z r o b — noxun — tanbur chertadigan timoq; ⁴ k i s h u s i n j o b —
olmaxon terisidan qilingan po'stin.

* * *

Dahr bog'i aro ko'p istamagil ayshu tarab,
Kim guli sho'lai g'am, g'unchasidur xori taab¹.

Sunbuli rishtalarin rishtai maqsud dema,
Kim ko'ngul qushlari domig'a erur barcha sabab.

Arig'i ichra ushoq toshi agar inju erur,
Toyiri umrung uchun donau su topti laqab.

Angla ziyrak qush anikim ko'rubon mundoq dom,
Bo'lmag'ay tegrasida obxo'ru² donatalab.

Dona yeb, hosil etib, fazla najas³ aylamagay
Bog' sahnini rioyat qilibon sharti adab.

Yo bo'lub domg'a mahkam topa olmay maxlas⁴,
Urunub, talpinibon aylamagay sho'ru shag'ab⁵.

Chun Navoiy ko'zi bog'liq qush erur olam aro,
Bu chamandin anga uchmog'ni nasib et, yo Rab.

¹ T a a b — mashaqqat, qiyinchilik; ² o b x o' r — suv ichuvchi,
³ f a z l a n a j a s — chiqit, iflos; ⁴ m a x l a s — qutulish joyi; ⁵ sh o' r u
sh a g' a b — to'polon.

* * *

Yor og'iz ochmasqa dardim so'rg'ali toptim sabab,
Ko'p chuchukliktin yopishmishlar magar ul ikki lab.

Chayqalib go'yo tushar hayvon ziloli uzra mavj,
Iztirob ichra yuzungga solsa chin nogah g'azab.

Ko'hi¹ dard ichra meni Farhod agar qilding xitob,
Chun seni dermen chuchuk jonim erur Shirin laqab.

Buki ko'nglumni iting tishlarda og'zin qochurur,
Yo o'ti, yoxud aning islang'ani erkin sabab.

Ishq komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur,
Gar erur ma'shuqi yoxud armani, yoxud arab.

Eyki, faqr ichra qadam qo'ydung talab vodusig'a,
Bo'lmasa tolib² sanga matlub³, sud etmas talab.

Shah harimida⁴ necha topsang Navoiy ehtirom,
Bilgil o'z haddingniyu behad rioyat qil adab.



¹ K o' h — tog'; ² t o l i b — istovchi; ³ m a t l u b — istalgan;
⁴ h a r i m — xos joy.



Soching qarong'u tun, ey sarvqadi shirin lab,
Yuzung tun o'rtasida jilva aylagan kavkab¹.

Yuzungda lab su aro o't erur, bu asru g'arib,
Labingda xay o't aro su erur, bu asru ajab.


G'amingda "yo Rabu yo Rab"ni ko'kka yetkurdum,
Qabul qurbini topqaymu, yo Rab, ul "yo Rab".

Xayoli xasta ko'ngul ichrau manga qayg'u,
Ki bu latifu yo'q ul uyda g'ayri ranju taab².

Yesun iting jigarimni uzub-uzub, negakim,
Kesib-kesib qoshig'a tashlamog'lig' ermas adab.

Ne kelsa charxdin, ich bodakim, tafovuti yo'q,
Agar inoyat etarsen anga, yo'q ersa g'azab.

Navoiy, o'lmaki matlubung o'lmasa tolib
Sening ichingga nedin soldi muncha dardi talab.



¹ K a v k a b — yulduz; ² r a n j u t a a b — ozor, qiyinchilik.

Qachon maktabqa ul mohi muaddab¹
Borur, o'z din borurlar ahli maktab.

Bo'lur lavhi zabarjad² ahli hayron,
Chu olur ilgigga lavhi muzahhab³.

Degach abjad⁴ boshig'a evrulurlar
Qamar birla quyosh, ya'ni jadu ab⁵.

Nechukkim, maktab atfoli⁶ xurushi,
G'amidin xalq aro faryodu yo Rab.

Muallim qullug'ig'a xat berurmen,
Gar ozod o'lsa ul sarvi shakarlab.

Dabistoni fanoda shurb darsin,
Ravon qilmay emassen ahli mashrab.

Navoiy ashkidin to shom anjum,
To'kar, chiqqaymu deb ul sa'd kavkab.

¹ M o h i m u a d d a b — odobli yor; ² l a v h i z a b a r j a d — oq pista rangli yozuv taxtasi; ³ m u z a h h a b — oltin rangli; ⁴ a b j a d — harf sanog'i; ⁵ j a d u a b — ota-bobolar; ⁶ a t f o l i — bolalar.



Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab,
Xiromi sur'atidin gul uza xaydin gulob aylab.

Qilib mujgonni shabravlar¹ kibi jon qasdig'a xanjar,
Beliga zulfi anbarboridin mushkin tanob aylab.

Quyoshdek chehra birla tiyra kulbam aylagach ravshan,
Menga titratma tushti zarra yanglig' iztirob aylab.

Kulub o'lturdiyu ilgim chekib yoninda yer berdi,
Takallum boshladi har lafzini durri xushob² aylab.

Ki: Ey zori jafokash oshiqim mensiz nechuktursen, —
Men o'ldum lolu ayta olmayin mayli javob aylab.

Chiqardi shishayi may dog'i bir sog'ar to'la quydi,
Ichib tutti menga yuz nav' noz oso itob aylab.

“Ki ey Majnun, pari ko'rdung magarkim tarki xush etting,
Takallum qil bu sog'arni ichib raf'i hijob³ aylab”.

Ichib, faryod etib tushtum ayog'ig'a borib o'zdin,
Meni yo'q bodakim, lutfi aning masti xarob aylab.

Anikim eltgay vasl uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek netar to subhi mahshar⁴ tarki xob aylab.

¹ Sh a b r a v — tungi bosqinchi; ² d u r r i x u s h o b — qimmatbaho;
³ r a f ' i h i j o b — tortinchoqlik pardasini ko'tarib; ⁴ s u b h i
m a h s h a r — qiyomat tongi.



Zulfu yuzu sunbulungni gul uza tarqatma ko'p,
Dahr bog'ida gulu sunbul isin butratma¹ ko'p.

Ko'zlaringkim masti xob olud² erur ko'p ovlama,
Har sari uyqug'a borg'an fitnani uyg'otma ko'p.

Zulfig'a, ey mushk, istarsen qorimchi³ bandaliq,
Yo'q hading kechkil bu savdodin, o'zungni sotma ko'p.

O'ynay-o'ynay o'lturur bir-bir ulusni ko'zlaring,
Sho'xi qotillarni jonlar qasdig'a o'ynatma ko'p.

Tiyradur Majnunki mendek debsen oni, ey xirad,
Aqlu xush ahlini bir devonag'a o'xshatma ko'p.

Eyki, mujgondin yasol⁴ tuzdung ko'ngullar qasdig'a,
Ko'z yumub ochquncha ushbu xaylni qo'zg'otma ko'p.

El bila har dam qadah yanglig' kulub, ey mug'bacha,
Qon yoshim sochib surohidek⁵ meni yig'latma ko'p.

Safhai xotirda, ey orif, keraktur yoru bas,
Sofiyi vahdatqa⁶ xoshoki xavotir qotma ko'p.

Chun Navoiy qismati jomi may o'lmish, ey faqih,
Sarzanish⁷ aylab anga sangi malomat⁸ otma ko'p.

¹ Butratmoq — tarqatmoq; ² xob olud — uyqusiragan, suzilgan; ³ qorimchi — pardoziy; ⁴ yasol — saf tortmoq; ⁵ surohi — uzun bo'lyi may idishi; ⁶ sofiyi vahdat — birlik pokizaligi; ⁷ sarzanish — tanbeh; ⁸ sangi malomat — yomonlov toshi.

* * *

Yoshurun dardimni zohir qildi¹ afg'on oqibat,
Asrag'on rozimni yoydi seli mujgon oqibat.

Yoshurub erdim bag'ir chokini, vahkim, qildi fosh
Har taraf ko'zdin tarashshuh² aylagan qon oqibat.

Tiyg'i hajringdin nihon ko'ksum shikofin³, ohkim,
Elga ravshan ayladi choki giribon oqibat.

Voykim, ko'ksum shikofidin ulusqa bo'ldi fahm
Ishq o'ti bag'ring'a qo'yg'on dog'i pinhon oqibat.

Shavqidin dam urmayin bedodig'a xursand edim,
Vahki, bo'ldum hajridin rasvoyi davron oqibat.

Gar budur kofir ko'zu zunnor zulfi, ey faqih,
Bo'lg'udekmen dayr aro mastu parishon oqibat.

Ishq ko'yida jununumni munodiy⁴ ayladi
Hajr toshidin munaqqash⁵ jismi uryon oqibat.

Dahr bo'stoni aro sarkash nihole ko'rmaduk
Soya yanglig' bo'lmag'on yer bilan yakson oqibat.

Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmak fano bo'lmay, ne imkon oqibat?

¹ Z o h i r q i l d i — ko'rsatdi, ochdi; ² t a r a s h s h u h — suyuqlikning sizib chiqishi; ³ s h i k o f — kesilgan; ⁴ m u n o d i y — jar solish; ⁵ m u n a q q a s h — naqsh solingan.

* * *

Sho'x iki g'izolingni¹ noz uyqusidin uyg'ot,
To uyqulari ketsun gulzor ichida o'ynot.

Tishlabki soching o'rdung, ochqanda parishon qil,
Ofoq² savodinda jon royihasin³ butrot.

Kulbanga xayafshon kel, zulfung qilib oshifta,
Anjum sipahin sindur, ofoq ulusin qo'zg'ot.

Oraz quyoshin ochib ashki qurug'an ko'zni
Ko'p hajrida yig'latting, bir vaslida ham yig'lot.

Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab topib,
Farhod ila Majnung'a oshiqliq ishin o'rgot.

Xoro⁴ tubiga yotqung, yo'q sud⁵ agar yuz yil
Ko'k atlası ustida jismingni yotib ag'not.

Bazm ichra Navoiy ko'p yig'lar esa, ey soqiy,
Hush eltguchi doru jomig'a aning chayqot.



¹ G' i z o l — kiyik; ² o f o q — ufqlar, jahon; ³ r o y i h a — yoqimli hid; ⁴ x o r o — qattiq tosh; ⁵ s u d — foyda.

* * *

La'l emas shirin labingkim jon topar andin hayot,
Kim so'rub bildim ul ermish la'lgun qilg'an nabot.

Lek ul yanglig' nabotekim quyar chog'da ani
Shirasi jon shirasi ermish suyi obi hayot.


Oqsa ruxsorida xay¹ tong yo'q ko'ngul to'qtatmasam,
Tog' bo'lsa topmas ul sel ichra imkoni sabot.

Hajr dudidin qaro bo'lg'an ko'ngul ichra o'qung,
Sharhi holim yozg'ali bo'lmish qalam birla davot.

Xo'blar xayli aro har sori tutmish rustaxez,
Go'yiyo maydon ichiga chobukim sekretti ot.

Boqma, ey zohid, haqorat birla ashyo sarikim,
Bo'lmag'an oning sifoti mazhari² yo'q hech zot.

Ey Navoiy, ko'rgali oni uchar har dam ko'zum,
Lek ne sud uchmoq ul qushkim anga yo'qtur qanot.



¹ X a y — yuzdagi ter tomchisi; ² m a z h a r i — ko'rinish joyi.



Qildi dushman rahm baskim, qildi javr izhor do'st,
Ey ko'ngul, dushman top emdi, tutmag'il zinhor do'st.

Har zamon dushmanlarim ozurdadur, ey do'stlar,
Baski har dam yetkurur men zorg'a ozor do'st.

Dushman ar jonimni ham afgor etar, qildim bihil,
Javr tig'idin chu ko'nglum aylamish afgor¹ do'st.

Kecha dushmanlarg'akim nolamdin uyqu kelmadi,
Ranjamen mundin dog'ikim, bo'lmadi bedor do'st.

Men o'lar holatda, dushmanlar ko'runur do'stvash,
Nevchun o'lmaykim, kelur boshimg'a dushmanvor do'st.

Kulsa dushman ayb emaskim, ko'rmadim oz ham vafo,
Garchi qozg'ondim² qilib jonim fido bisyor do'st.

Charxning mehriga mag'rur o'lmagilkim g'adri³ bor,
Hargiz o'lmas kimsaga ul dushmani g'addor⁴ do'st.

Soqiyo, qil do'stluq tut bodakim, yo'qtur g'ami,
Bo'lsa olam dushmani har kimga sendek bor do'st.

Itlaring g'avg'o qilur go'yo Navoiy o'ldikim,
Boshi uzra jam o'lub afg'on qilurlar yor-do'st.

¹ A f g o r — yarador; ² q o z g' o n m o q — qo'lga kiritmoq;
³ g' a d r — vafosizlik; ⁴ g' a d d o r — vafosiz, xiyonatchi.

* * *

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.

Buki oning ahdu paymonida men o'lsam dog'i,
Yaxshi fursat topsang ul badahdu paymonimg'a ayt.

Buki oning zulfi zunnorida dinim hosili
Kufr ila bo'lmish mubaddal¹, nomusulmonimg'a ayt.

Buki qilmishmen jahonu jonni oning sadqasi,
Yuz tuman jonu jahondin yaxshi jononimg'a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,
Vaslig'a bir va'da qilg'andin pushaymonimg'a ayt.

Buki yuz ming fitna ko'zluk bo'lsa paydo onsizin,
Qilmag'um nazzora onsiz ko'zi fattonimg'a² ayt.

Buki chok aylab yaqo usruk chiqar el qasdig'a,
Men o'lub, el jon topar bebok³ nodonimg'a ayt.

Dahr bog'i gullari husni vafosiz erkanin
Yuzi gul, jismi suman⁴, ko'yi gulistonimg'a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

¹ M u b a d d a l — almashingan; ² f a t t o n — maftun etuvchi;
³ b e b o k — qo'rqmas; ⁴ s u m a n — oq, xushbo'y gul.

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg'a ayt.

Buki la'li hasratidin qon yutarmen dam-badam,
Bazmi aysh ichra labo-lab bodaoshomimg'a ayt.


Kom talxu, boda zahru, ashk rangin bo'lg'anin
La'li shirin, lafzi rangin, sho'xi xudkomimg'a¹ ayt.

Shomi hijron ro'zgoring tiyra nevchun qildi, deb
So'mag'il mendin bu so'zni, subhi yo'q shomimg'a ayt.

Ul pari ishqida nangu² nomkim tark ayladim,
Ko'ngul otlig' hajr vodiysinda badnomimg'a³ ayt.

Ey karomatgo'y, ishim og'ozi⁴ xud isyon edi,
Sham'i rahmat partavi⁵ yetgaymu anjomimg'a⁶ ayt.

Yo'q Navoiy bedil oromi g'am ichra, ey rafiq,
Holini zinhorkim ko'rsang diloromimg'a ayt.



¹ X u d k o m — o'z maqsadinigina ko'zlovchi; ² n a n g — nomus;
³ b a d n o m — yomon otlig'; ⁴ o g' o z — boshlanishi; ⁵ p a r t a v —
shu'la; ⁶ a n j o m — oxir, tugagan, so'ng.



Ishqi soldi xonumonim ichra o't,
La'li otashnoki jonim ichra o't.

Nega yetgan yerda o'rtar xalqni,
Bo'lmasa ohu fig'onim ichra o't.

Ko'nglim ermas tandakim hajring aro,
Tushdi jismi notavonim ichra o't!

O'qlaringning kasratidin¹ chektim oh,
Tushti andin naysitonim ichra o't.

Hajrdin kuydi so'ngaklar, vahki, ishq
Soldi xoshoki nihonim ichra o't.

Soqiyo maydin su urkim, urdi davr
Joni benomu nishonim ichra o't.

Ey Navoiy, chun chaqildi barqi² ishq,
Tushti andin xonumonim ichra o't.



¹ K a s r a t — ko'plik; ² b a r q — chaqmoq.



Mening rasvolig'img'a bodayi gulgun erur bois,
Mayi gulgun icharga soqiyi mavzun erur bois.

Parivashlar jafosig'a gina bil telba ko'nglumdin,
Bukim tosh yog'durur atfol, anga Majnun erur bois.

Falak bejurm¹ erur, g'am kelsa bu mahzun sorikim, huzn²
Topib o'z jinsini kelmakka bu mahzun erur bois.

Sovursam ko'kka tufrog' dard vodiysida, tong yo'qkim,
Quyundek buylakim sargashtamen³, gardun⁴ erur bois.

Ne tong, bu telba og'zida so'zi doim ul oyningkim,
Pari vaslig'a aksar el aro afsun erur bois.

Labing jonbaxsh, ayog'din boshingga qotil, ne ayb, o'lsam,
Tirilmaklikdin o'lmaklikka chun afzun erur bois.

Raqibingg'a desam la'nat, yeri borkim senga nohaq,
Mening qonimni to'kturmakka ul mal'un erur bois.

Rido⁵ dayr ichra rahn⁶ etganga chun qilding g'azab, ey shayx,
Yana yozg'urma⁷ borsam ul sari marhun⁸ erur bois.

Navoiy boda ichmas, lek chun soqiy qadah quydi,
Ul ofat shakl erur mujib, bu dilkash un erur bois.

¹ B e j u r m — gunohsiz; ² h u z n — hazinlik; ³ s a r g a s h t a — tentirovchi; ⁴ g a r d u n — osmon; ⁵ r i d o — yoping'ich; ⁶ r a h n — garov; ⁷ y o z g' u r m o q — ayblamoq; ⁸ m a r h u n — garovga qo'yilgan.



Mening majnunlug'umg'a ishq savdo gar erur bois,
Valekin bu ikiga bir pari paykar erur bois.

Dema bois nedurkim tolpinursen har kecha to subh,
Tikilgan kirpikingdan jong'a yuz nishtar erur bois.

Ko'ngulda otashin la'ling g'ami ayb etma kuysamkim,
Tutashmaqqa tanim xoshoki ul axgar erur bois.

O'qungdin par chiqardim ko'yungga qilsam havo tong yo'q¹,
Ki uchmoq mayli qilmoqqa bu bolu par erur bois.

Firoqing biymidin² yuz qatla jon bergay edim, lekin
Hayotimg'a umidi vasli jonparvar erur bois.

Chu mendin yuz uyurdung, tong emas boshingg'a evrulsam,
Bu sargardonlig'img'a gardishi axtar erur bois.

Agar rahn o'ldi tasbihi rido mayxonada, ey shayx,
Icharga dayr piri ilgidin sog'ar erur bois.

Fano bahrig'a cho'mmoqdin g'araz tolibg'a vasl o'ldi,
Ki g'avvos o'lmakiga g'arq o'lub gavhar erur bois.

Navoiy jismining za'fig'a bois bo'ldi bedilliq³,
Vale bedillig'in so'rsang, anga dilbar erur bois.

¹ T o n g y o' q — ajab emas; ² b i y m — qo'rquv; ³ b e d i l — oshiq.

* * *

Girih-girih¹ chu tugarsen — yetar ayog'ingga soch,
Girihlarin chu ocharsen — tushar quloch-quloch.

Ko'ngulni qiydi itik g'amzasiyu qilmadi rahm
Qiy-qiy boqibon ul ikki ko'zi qiy moch².

Chamanda kecha yotib mast orazin yopmish,
Ko'p emdi, tong yeli, ul gulni lutf birlan och.

Qading chamanda ko'rub bog'bon agar sarvin
Ko'ziga ilsa, hamono keraktur anga yig'och.

Junung'a tushti sanubar qadingdin uylaki suv,
Bo'lub ayog'ig'a zanjir uzaldi boshida soch.

Sipehr³ na l ko'rub ko'ksum uzra mehrobe,
Balo o'qig'a hamonoki ayladi omoch⁴.

Navoyiyo, der esang ko'rmayin vafosizliq,
Tavaqquf etma, zamon ahlidin vafo kibi qoch.



¹ G i r i h — tugun; ² q i y m o c h — suzuk; ³ s i p e h r — osmon; ⁴ a y l a d i o m o c h — nishonga oldi.

* * *

Ko'rub dardim, tarahhum¹ qilmading hech,
To'kub ashkim, tabassum qilmading hech.

Firoqing o'ti ichra necha yig'lab,
Fig'on chektim, tarahhum qilmading hech.

Jahong'a ohu ashkim soldi oshub,
Bu to'fondin tavahhum² qilmading hech.

So'zung shavqidin erdim xasta umre,
So'rarg'a bir takallum qilmading hech.

Musallam³ ishq, ey ko'nglum, sengakim,
Ko'rub zulmin, tazallum⁴ qilmading hech.

Muhabbat ahli qismin nevchun, ey charx,
Qilib mehnat, tana'um⁵ qilmading hech.

Navoiy sori, ey davri muxolif,
Navo savtin⁶ tarannum qilmading hech?!



¹ T a r a h h u m — rahm qilmoq; ² t a v a h h u m — hayiqmog;
³ m u s a l l a m — qarshiliksiz, ma'qullangan; ⁴ t a z a l l u m — dod-
fig'on; ⁵ t a n a ' u m — rohatda yashash; ⁶ s a v t — ovoz.

* * *

Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon¹ aylagach,
Sham' ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading?
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?

Qon emaskim yopti gulgun hulla² jannat xozini³,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon⁴ aylagach?

Tiyg' ila paykonlaring yetti ko'ngul bo'lg'och xarob,
Suv quyub tuxm ekting ul kishvarni⁵ vayron aylagach,

Oshkor aylab yuzin ko'zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko'ngul ko'zumni hayron aylagach,

Jonda qo'yg'och naqdi ishqin, qildi ko'nglumni halok,
O'lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Ey Navoiy, ishq agar ko'nglungni majruh etmadi,
Bas, nedurkim qon kelur og'zingdin afg'on aylagach?!

¹ A n b a r a f s h o n — yoqimli hidlar sochuvchi; ² h u l l a — harir mato; ³ x o z i n — xazinachi; ⁴ u r y o n — yalang'och; ⁵ k i s h v a r — mamlakat.

* * *

Tong emas, gar bo'lsa har sarvi pariruxsor sho'x,
Lek erur sarvi pariro'yum mening bisyor sho'x.

Gar mening sho'xi sitamkorim parizod o'lmasa,
Mumkin ermas odamiy bo'lmog'lig' ul miqdor sho'x.

Turmasa qon bu kecha ko'ksun shikofidin¹, ne tong,
Kim erur ko'nglumga kirgan chobuki² ayyor sho'x.

Vah, ne tong, har lahza betoqatlig'imkim, dilbarim
Bovujudi³ husn ham shirin erur, ham bor sho'x.

To yetishgay jonni kuydurgan ko'ngulga yuz balo,
Shukr etarmenkim, nasib o'lmish manga dildor sho'x.

Sho'xlardin tuz qadam qo'ymoq chu kelmas, voqif o'l,
Ham sitamgar chobukedur charxi kajraftor⁴ sho'x.

Gar desangkim, jong'a yetmay har zamon bir javrdin
Ey Navoiy, pand eshit, yor istama bisyor sho'x.



¹ Sh i k o f — kesilgan; ² ch o b u k — otlig'; ³ b o v u j u d i — undan tashqari; ⁴ ch a r x i k a j r a f t o r — teskari aylanuvchi charx (osmon).

* * *

Meni havosida devona ayladi ul sho'x,
Jununu ishq ila fasona ayladi ul sho'x.

Pari kibi chiqibon hushu aql g'orat etib,
Nihon to'lub, meni devona ayladi ul sho'x.

Ushatti shishau jomu qadahni bazm ichra,
O'yun tariqini tiflona ayladi ul sho'x.

Quloq solingki, xarobot ichra g'avg'odur,
Magar azimati mayxona ayladi ul sho'x.

Qadahqa xirqam etib rahn, vahki, subhamni¹
Qimor o'ynag'ali dona ayladi ul sho'x.

Chu oldi o'ynag'ali naqdi hushu sabrimni,
Yana topilmadilar to na ayladi ul sho'x.

Qilib Navoiyi ovorani jaloyi vatan²,
Baloyu cardg'a hamxona ayladi ul sho'x.



¹ S u b h a — tasbeh; ² j a l o y i v a t a n — vatandan ko'chmoq.



Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmadi farzand.

Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla
Qilay payvand bori qilmag'il noahl ila payvand.

Ko'ngul komini qo'y, gar xud mening devona ko'nglumni
Toparseñ uyla yuz parkandu sol har itga bir parkand.

Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,
Qila olsang eshitgil pand, sen kim — elga bermak pand?!

Bu foniylayr aro gar shohlig' istar esang, bo'lg'il
Gadolig' nonig'a xursandu bo'lma shahg'a hojatmand¹.

Bo'lub nafsingg'a tobi', band etarsen tushsa dushmanni,
Sanga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.

Shakarlablar tabassum qilg'onin ko'rgach ko'ngul berma,
Ki bedillarni achchig' yig'latur oxir bu shakkarxand².

Jahon lazzotini shirin ko'rarsen, lek bandingdur,
Giriftor o'lma, voqif bo'лки, qandu qayd erur monand.

Ko'nguldin jahl ranji daf'i gar istasang, bordur
Navoiy bog'i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

¹ Hojatmand — muhtoj; ² shakkarxand — shirin kulgi.

Ey orazi¹ nasrin², sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nolavu faryod.

Ko'zlaringga sayd o'ldi ko'ngul, vah, qutulurmu
Bir qushki, aning qasdida bo'lg'ay iki sayyod?

Ul maktab arokim o'qudung noz ramuzin³,
Go'yoki vafo ilmin unutmish edi ustod.

Ashkimni ko'rub tez bo'lur ko'ngli jafog'a,
Ore⁴, itimas⁵ chunki suyi bo'lmasa fo'lod.

Mingdin bir emas o'z yuragi zaxmlaridin
Har nechaki tog' bag'rini zaxm ayladi Farhod.

O'lukni kishi dafn eta olmas, vale har kun
Yuz tig' qilur dafn ko'zung bo'lg'ali jallod.

Gul yafrog'i tirnog'lar erur bu chaman ichra
Bulbul paru bolini yulub, bergali barbod.

Ne ayb, Navoiy kibi devonalig' etsa,
Har odamikim, bo'lsa aning yori parizod.

¹ O r a z — chehra, yuz; ² n a s r i n — oq gul; ³ r a m u z — imo-
ishora; ⁴ o r e — ha; ⁵ i t i m a k — o'tkirlanuv.

* * *

Parim bo'lsa uchub qochsam ulusdin to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmog'din, yugursam to hayotim bor.

Chiqib bu dayrdin Isog'a neyvhun hamnafas bo'lmay,
Bihamdillah¹, tajarrud² birla himmatdin qanotim bor.

Xaloyiq suhbatidin ming g'amim bordurki, muft³ o'lg'ay
Agar ming jon berib bilsamki, bir g'amdin najotim bor.

Chekib ag'yordin yuz javru tortib yordin ming g'am,
Ne o'zga xalqdin g'ayrat⁴, ne o'zumdin uyotim bor.

Kechib ko'zdin yozay bir xatki, dahr ahlig'a ko'z solmay,
Bu damkim ko'z savodidin qaro, ko'zdin davotim bor.

Tilar ko'nglum qushi Anqodin⁵ o'tgay nori yuz vodiy,
Munungdek sayr etarga Qofdin⁶ ortuq sabotim bor.

Navoiy, bilki shah ko'ngli manga qayd o'lmasa, billah⁷,
Agar kavnayng'a⁸ xoshok chog'lig' iltifotim bor.



¹ B i h a m d i l l a h — Ollohgaga maqtoylar bo'lsin; ² t a j a r r u d — chetlanish; hamma narsadan kechish; ³ m u f t — tekin; ⁴ g' a y r a t — qizg'onish; ⁵ A n q o — Qofda yashovchi qush; ⁶ Q o f — butun dunyoni o'rab olgan afsonaviy tog'; ⁷ b i l l a h — xudo haqqi; ⁸ k a v n a y n — ikki dunyo.

* * *

Jafo qilur bari gulchehralar, vafo qilako'r,
Vafo ham elga qilursen, vale mango qilako'r.

Ne telbaniki muqayyad¹ tilarsen, ey gardun,
Aning salosili² zulfig'a muftalo qilako'r.

Desang hijobni olg'aylar, ey ko'z, ollingdin,
Ne gard oning yo'lidin qo'psa, to'tiyo qilako'r.

Tajallo³ istasang ul yuzdin o'rtabon jisming,
Kuli bila ko'ngul oyinasin jilo qilako'r.

Umidi vasl ila ko'yunga bordi xasta ko'ngul,
Yigitliging haqi, ul hojatin ravo qilako'r.

Biyik nishiman⁴ erur, ey ko'ngul, visol avji,
Talab qanoti bila ul taraf havo qilako'r.

Navoiyo, chu alamsiz murod mumkin emas,
Desangki vasl topay, hajr o'tig'a yoqilako'r.



¹ M u q a y y a d — bog'lab qo'yilgan; ² s a l o s i l — zanjirlar;
³ t a j a l l o — yarqiratmoq; ⁴ n i s h i m a n — turar joy.

* * *

Furqatingdin za'faron¹ uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar².

Dur tishingdin donayi sabrim qolur bebar³ desam,
Kulub ayturkim, ekinning ofatidur jolalar⁴.

Bargi gul uzra yopishibtur shakar har soridin,
Yo magar la'ling uza qaynabturur tabxolalar?⁵

Tola-tola nay o'qung ko'ksunda go'yo sindikim,
Tevrulubtur notavon ko'nglumda bir-bir tolalar.

Fitnalik to'qquz falak girdingda, jono, turfadur,
Kim ko'rubtur bir quyosh davrinda mundoq holalar?⁶

Bordilar ahbobu men yig'larmen o'z ahvolima,
Korvondin qolg'on it yanglig'ki, qilg'ay nolalar.

Ko'hi g'am bo'ldi Navoiy, lolalar gulgun sirishk⁷,
Tog' agar budur, bale, ashk o'lg'usidur lolalar.



¹ Za'faron — sarig'; ² pargola — uzilgan bo'lak; ³ bebar — hosilsiz; ⁴ jola — yomg'ir; ⁵ tabxola — uchug'; ⁶ hola — oy atrofidagi aylana yorug'lik; ⁷ sirishk — ko'z yoshi.

* * *

Yana sensizin munisim¹ g'am bo'lubtur,
Ko'zumga yurak qoni hamdam bo'lubtur.

Qarorib ko'zum dam-badam zor yig'lar,
Anga shomi hajringda motam bo'lubtur.

Yaramdin chekarga o'qin sa'y² qilmang,
Ki paykon so'ngak ichra mahkam bo'lubtur.

Ichimdin nechuk tortqaylar o'qinkim,
Ko'ngul qo'ymasun jon madad ham³ bo'lubtur.

Ko'ngulga yoqar kirpigingning xayoli,
Mening zaxmima nesh marham bo'lubtur.

G'uborin tilab yig'lama har dam, ey ko'z,
Ki ashkingdin-o'q yer yuzi nam bo'lubtur.

Bu gulshan aro barg to'tilarig'a
Xazon tifli bas boisi ram bo'lubtur.

Vafo shaxsining farqini charx tiyg'i
Iki bo'ldi, vahkim, biri kam bo'lubtur.

Emas g'am yukidinki, qoshingni ko'rigach,
Navoiy sujud⁴ etgali xam bo'lubtur.

¹ M u n i s — ulfat, yaqin kishi; ² s a ' y — qilmang — intilmang;
³ r a m — hurkish; ⁴ s u j u d — egilmoq, sajda qilmoq.

* * *

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,
Kim jong'a qaro balo bo'lubtur.

Majmu'i davoni dard qildi
Dardingki, mango davo bo'lubtur.

Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki sango fido bo'lubtur.

Begona bo'lubtur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'lubtur.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sori ango havo bo'lubtur.

Baqo topar ulki bo'ldi foni,
Rahrag'a¹ fano baqo bo'lubtur.

To tuzdi Navoiy oyati² ishq,
Ishq ahli aro navo bo'lubtur.



¹ R a h r a v — yo'l bosuvchi, yo'lchi; ² o y a t — nishon, belgi.



Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur,
Bu jihatdin bir-birisi birla jonojon erur.

Jonim andoq to'ldi jonondinki, bo'lmas fahmkim,
Jon erur jonon emas yo jon emas, jonon erur.


Bo'lsa jonon, bordurur jon ham, chu jonon qildi azm¹,
Jon ketib jonon bila, jondin menga hijron erur.

Jon manga jonon uchundur, yo'qki jonon jon uchun,
Umr jononsiz qotiq, jonsiz vale oson erur.

Borsa jon, jonon yitar, gar borsa jonon, jon ketar,
Kimsaga jononu jonsiz umr ne imkon erur?

Xushturur jenu jahon jonon bila, jonon agar
Bo'lmasa jon uylakim o'lmak jahon zindon erur.

Jonim ol, ey hajru jononsiz manga ranj istama,
Chunki jononsiz Navoiy jonidin ranjon² erur.



¹ Q i l d i a z m — ketdi; ² r a n j o n — ozor chekuvchi.

* * *

Xolu xating xayolidin, ey sarvi guluzor,
Gohi ko'zumga xol tushubtur, gahi g'ubor.

Yuzungda xol safhada tomg'an kibi qaro,
Xoling malohati¹ tuz erurkim qaroda bor.

Jonimni o'rtagan yuzu xolingni bilmasang,
O't shu'lasida ayla gumon bir o'chuk sharor.

Bilmon, ko'ngulda xollaringning xayolidur,
Yo kirpiging tikanlarin aylabsen ustuvor?

Har dam ko'ngul haloku ko'zum tiyra bo'lmog'in
Bilgay birovki, yori erur sho'xu xoldor.

Mashshotayi qazo² bezamish xolu xattini,
Beixtiyorliqda manga bormu ixtiyor?

Miskin Navoiy xoli labing ko'rsa jon berur,
Boqsang ne bo'ldi surati holig'a, ey nigor?!



¹ M a l o h a t — go'zallik; ² m a s h s h o t a y i q a z o — qismat pardozhisi.

* * *

Hureki¹, mening jonima ofat yetilibtur,
To'bi² kibi qad birla qiyomat yetilibtur.

Ushshoq³ ko'zidin duru gavhar oqizurg'a
Bir bahri jafo, koni malohat yetilibtur.

La'ling⁴ mayikim, so'rg'ali devona bo'lubmen,
Shirin ko'runur, lek bag'oyat yetilibtur.

Ishqing chamanida ne tarab⁵ shoxiki ektim,
Har birisi bir naxli⁶ nadomat yetilibtur.

Yuz zarracha sargashtaligim bo'lsa, ne tongkim,
Yuz mehrdin ul sho'x ziyodat⁷ yetilibtur.

Bu bog' aro qolmaydur ajal yelidin ozod
Har gulgaki, savsan⁸ kibi qomat yetilibtur.

Hijron g'amidin vahm etu shukr ayla, Navoiy,
Bu lahzaki, vaslig'a salomat yetilibtur.



¹ H u r — jannat go'zali; ² t o' b i y — jannat bog'idagi nihol;
³ u s h s h o q — oshiqqlar; ⁴ l a ' l — lab; ⁵ t a r a b — shodlik, xursandchilik;
⁶ n a x l — ko'chat, yosh daraxt; ⁷ z i y o d a t — ortiq, ko'p;
⁸ s a v s a n — guli safsar.

* * *

Voyu yuz ming voykim, tarki muhabbat qildi yor,
Bilmayin qoldim menu qilmay xabar ayrildi yor.

Bordi o'qdek tezu yodek qomatim yod etmadi,
Ishq aro go'yo mening egriligimni bildi yor.

Chun gadolar birla shahlar qilmas ermish yorlig',
Men gadoni ko'zga, bas, nevchun burundin ildi yor?

Pand eshitib, do'stlar, hech kim bila yor o'lmangiz,
Kim mening bag'rimni tiyg'i hajr birla tildi yor.

Mendin ayrilg'on balovu dard uchunmu yig'layin?
Yo angakim, boribon ag'yor ila qotildi¹ yor?

Yig'lashib g'am shomi zohir aylasunlar dard o'tin,
Kimgakim baytul-hazanda² sham'dek topildi yor.

Ey Navoiy, yor uchun tortar eding g'urbatda ranj,
Yo'lg'a tush, emdi ravonroqkim, azimat³ qildi yor.



¹ Q o t i l m o q — q o ' s h i l m o q; ² b a y t u l - h a z a n — g'amxona;
³ a z i m a t — kelish.

* * *

Har qayon boqsam ko'zumga ul quyoshdin nur erur,
Har sori qilsam nazar ul oy manga manzur erur.

Chun masal bo'ldi soching zulm ichra, yoshurmog ne sud¹,
Mushk isin yoshursa bo'lmas, — bu masal mashhur erur.

Telbararmen to ani ko'rmon, ajoyibdur bukim,
Ul pari devona ko'zidin dog'i mastur² erur.

Chun mudom erning mayi qoshindadur kofir ko'zung,
Nedin erkinkim dame usruk³, dame maxmur⁴ erur.

Dilrabolar dog'i jonim safhasida go'yiyo
Dard eli ishqim uchun muhr aylagan manshur⁵ erur.

Par urub boshingg'a tutma avjkim, har necha mo'r⁶,
Kim qanotlong'oy, qachon uchmoq anga maqdur⁷ erur?

Gar Navoiy siymbarlar⁸ vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchunki xom etgan tama' ranjur erur.



¹ S u d — foyda; ² m a s t u r — yopiq, yashirin; ³ u s r u k — mast;
⁴ m a x m u r — xumor; ⁵ m a n s h u r — yoyilgan, tarqatilgan;
⁶ m o' r — chumoli; ⁷ m a q d u r — belgilab qo'yilgan, taqdir
bo'lgan; ⁸ s i y m b a r — kumushbadan.

* * *

Yor bordiyu ko'nglumda aning nozi qolibtur,
Andog'ki qulog'im to'la ovozi qolibtur.

Ko'z xonasini qildi barandoxta¹ bu ashk,
Ko'z bordi, vale xona barandozi² qolibtur.

Ko'nglum qushi to sunbulunguz domig'a tushti,
Bulbul kibi har gul sori parvozi qolibtur.

Ul qush safar aylab, ne tarab gulbunin ochqay,
Kim bog' aro bir sarvi sarafrozi³ qolibtur.

Men ishq ramuzin⁴ demay o'ldum, nazar etkim,
Farhod ila Majnunnung o'kush⁵ rozi qolibtur.

Taqlid qilib ko'ngluma ishq ahli chekar oh,
Ul ittiyu el ichra sarovozi⁶ qolibtur.

Hijronu visolin ko'pu oz dema, Navoiy,
Yuz shukr, dekim: ko'pi borib, ozi qolibtur.



¹ Barandoxta — vayron, buzilgan; ² barandoza — buzuq;
³ sarafroz — bo'y ko'targan, yuksalgan; ⁴ ramuz — imo-ishora;
⁵ o'kush — ko'p, ancha; ⁶ sarovoz — ovoza.

* * *

Beliyu og'zi ko'rar-ko'rmasda chun pinhon erur,
Bas, muni o'pmak, oni quchmoq qachon imkon erur?

Men dog'i dey belinu og'zinki ko'rdum-ko'rmadim,
Yo'q tamannolarni topqon-topmog'on yakson erur.


Bevafolar qaddu mujgonini ko'p qilmang xayol.
Kim biri tuz o'qdurur, bu bir itik¹ paykon erur.

Ishvagarlar lablari qasdig'a jondin kechmangiz,
Negakim o'z qasdi joni qilg'on el nodon erur.

Tunu kun deb istamang har lahza zulfu yuzlarin,
Kim bu bir dudi balo, ul shu'layi hijron erur.

No'sh emastur dahr bazmida gazakkim neshdur²,
May demakim, sog'ari davron ichinda qon erur.

Ey Navoiy, bu g'arib ishlarga taklif aylading,
Bizgadur bisyor mushkul, gar sanga oson erur.



¹ I t i k — o'tkir; ² n e s h — tikan.



Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar,
Baski yog'di ustiga atfol¹ elidin xoralar².

Orazing atrofiga guldur ko'rungan, ey pari,
Yo qamar davrida saf tortibdurur sayyoralar?

Har quyun go'yoki bir sargashta³ oshiq gardidur,
Baski, tufrog' o'ldi ishqing dashtida ovvoralar.

Anglakim, ahibobni kulbamda mehmon etmisham,
Itlari og'zida gar ko'rsang bag'irdin poralar.

Anda Majnun — men, buyon Layli — sen etgach ijtimoi⁴:
Bir taraf devonalar, bir yon pari ruxsoralar.

Xonaqah vaqfi suyin ichmaslar, ey shayx, anlag'il,
Gar xumor o'lsa fano dayridag'i mayxoralar⁵.

Ey Navoiy, ishq aro o'lmakdin o'zga chora yo'q,
Bas, g'alat bo'lg'ay demak ushshoqni bechoralar.



¹ A t f o l — bolalar; ² x o r a l a r — toshlar; ³ s a r g a s h t a — tentirovchi; ⁴ i j t i m o' — yig'ilish, to'planish; ⁵ f a n o d a y r i d a g i m a y x o r a l a r — yo'qlik dunyosi mayxo'rlari (tasavvufiy tushuncha).

* * *

Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor,
Odami ersa pari birla malakdin ori bor.

Kecha ulkim chirmanur bir gul bila ne tong agar,
G'unchadek har subh o'lub xandon nishot izhori bor.


Yo'q ajab bulbulg'a gul shavqidin o'lmoq zorkim,
Pardin-o'q jismig'a sanchilg'an adadsiz xori bor.

Belingu la'ling xayoloti bila ko'nglum erur
Ankabutekim¹, aning jon rishtasidin tori bor.

Sunbuli zulfi agar oshuftadur ayb etmakim,
Gul yuzunda yotqon ikki nozanin bemori bor.

Aylab o'zni mastu behud chiqmasun mayxonadin,
Kimki mendek davr elidin ko'nglida ozori bor.

Ey Navoiy, yor uzar bo'lsa muhabbat rishtasin,
Kelmas o'lsa ul saning sori, sen oning sori bor.



¹ A n k a b u t — o'rgimchak.

* * *

Kecha badmast o'lg'animdin infi'olim¹ bordur,
Mayni emdi og'zima olmas xayolim bordur.

Ulki der may ich, uyatdin bilmagay o'z holini,
Bilsa kim bazm ahli ollinda ne holim bordur.

Demakim may daf ' etar gar yetsa har dam yuz malol,
Kim ichardin oni har dam yuz malolim bordur.

Yor tavbam bilsa garchi may berur, bermay majol,
Yolborib uzr aytqumdur to majolim bordur.

Rindlar² tavbamni sindurmoqqa bu taqrib³ emas,
Boda naf'idinki har dam qilu qolim⁴ bordur.

Zuhdu istig'nomu yaxshi, yo'qsa isyonu niyoz?
Shahr shayxidin bu yanglig' bir savolim bordur.

Ey Navoiy, men xud ettim tavba, lekin netgamen
Kim, ajab mayxorai bee'tidolim⁵ bordur.

¹ Infi'ol — xijolat; ² rindlar — botir ahli dillar; ³ taqrib — yaqin; ⁴ qilu qol — gap-so'z; ⁵ bee'tidol — mo'tadil bo'lmagan, o'rtacharoq emas.

* * *

Zulfung ochilib orazi diljo¹ bila o'ynar,
Hindu bachaye sho'xdurur su bila o'ynar.

Ul sho'x ko'ngul lavhin² etib tiyra³ nafasdin,
Bir tifldur, alqissaki ko'zgu bila o'ynar.

O'ynay-o'ynay, bog'ladi uyqumni fusundin⁴,
To g'amzasi⁵ ul nargisi jodu bila o'ynar.

Tong yo'qki ko'ngul bo'lsa ko'zung birla muloib⁶,
Majnung'a ajab yo'q agar ohu bila o'ynar.

Bir lo'liyi bozigar⁷ erur chanbar ichinda,
Xolingkim o'shul halqai gesu⁸ bila o'ynar.

Zohid bila nafs etsa tamasxur⁹, ne ajabkim,
It sayd qilur vaqtida tulku bila o'ynar.

Mug' dayrida mast o'lsa Navoiyni ko'rungkim,
Bir olma kibi gunbadi minu¹⁰ bila o'ynar.

¹ Diljo' — dilni oluvchi; ² Lavh — ravshanlik; ³ tiyra — qora;
⁴ fusun — avrash, firib bermoq; ⁵ g'amza — ko'z bilan imo-
ishora qilish, noz va ishva; ⁶ muloib — o'ynovchi, hazilkash;
⁷ bozigar — hiylagar, firibgar; ⁸ gesu — soch; ⁹ tamasxur —
masxara; ¹⁰ minu — zangor.

* * *

Tirguzur yuz xastani bir noz ila ul dilnavoz,
Chun yetar men xastag'a navbat, qilur yuz nav' noz.

Zohido, har dam demakim mazhabingda bor qusur,
Qaysi masjidda sening birla qilib erdim namoz?!

Ishq aro ko'nglumni ul yuz mehridin man' aylamang,
Kim emas mumkin samandar o'tdin etmak ihtiroz¹.

Bir kun ohimdin o'shul badmehr ko'ngli yumshag'ay,
Nechakim po'lod erur qattiq, topar o'tdin gudoz².

Yo rab, oxir netgamen ul sho'xi badxo' birlakim,
Zulm etar, qilsam tazallum, noz etar, qilsam niyoz³.

Charxi minoyi xati sharhig'a hamroz istama,
Kim bu xat mazmunidin dam urmay o'tmish ahli roz⁴.

Ey Navoiy, sen base oludadomansen⁵, magar
Ishq ul pok ila o'ynarsenki, derlar pokboz⁶.



¹ I h t i r o z — berkinmoq; ² g u d o z — erimoq; ³ n i y o z —
yolborish; ⁴ a h l i r o z — sirni bilganlar; ⁵ o l u d a d o m a n — etagi
kirlangan; ⁶ p o k b o z — sadoqatli, yoqimli.

* * *

Jamoateki, junun man'ini manga qilasiz,
Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz?

Keting, ko'ngul bila jonkim, vido'ingiz qildim,
Firoq agar budurur, erta kunni kech qilasiz.

Firoq kunidur, ey ko'zlar, emdi qon yig'lang,
Bilurmusizki, bukun ne kishidin ayrilasiz?

Ko'zum haqini bihil¹ qildim, ey javohiri ashk,
Ki bori ham aning-o'q maqdamig'a² sochilasiz.

Firoq neshlari, vahki, yana rahm etmay,
Nafas-nafas nega majruh ichimga sanchilasiz?

Ko'ngul fasonalari, sizni, vah, netib yashuray,
Bu nav'kim, yuz uza qon yosh ila yozilasiz.

Navoiy hajrg'a qoldi, qiling visolda shukr,
Jamoateki, sevar yoringiz bila bilasiz.



¹ B i h i l — kechirish, rozi bo'lish; ² m a q d a m — qadam
qo'yilgan joy, payt.

Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyoru yorsiz,
Bulbul o'lg'ondek xazon fasli gulu gulzorsiz.

Goh sarv uzra, gahi gul uzra bulbul nag'masoz,
Vahki, menmen gungu lol ul sarvi gulruxsorsiz.

Tong emastur, gar diyoru yorsiz ozurdamen,
Kim emas bulbul gulu gulzorsiz ozorsiz.

Ravza ashjori¹ o'tundur, gullari jonimg'a o't,
Mumkin o'lsa anda bo'lmog'lig' dame dildorsiz.

May chu berding, zulf ila band et meni, ey mug'bacha,
Kim xush ermas mug' bila ichmak qadah zunnorsiz².

Topmaduq gulrang jome bexumor, ey bog'bon,
Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadqa yo'l,
Vaqtigizni xush tutung, ey jam'kim, xummorsiz.



¹ R a v z a a s h j o r i — jannat bog'ining daraxtlari; ² z u n n o r — belga bog'lanadigan chilvir (g'ayridinlar bog'laganlar).

* * *

O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz,
Notavon ko'nglumda ul oy ishtiyoqidur hanuz.

Garchi o'zga yor istar xotirim, bordur valek
Jon anga manzil, ko'ngul oning visoqidur¹ hanuz.

G'ayr ishqi ko'nglum evinda nechuk qilg'ay nuzul²,
Kim xayoli maskani ko'zum ravoqidur³ hanuz.

Ishq ila may tarkin, ey nosih⁴, ne nav' aylay qabul,
Kim ko'ngulga orzu ul turfa soqiydur hanuz.

Furqat o'ti dofi'i⁵ dog' o'rtamakdur demakim,
O'rtaqan jonim ul oy dog'i firoqidur⁶ hanuz.

Charx yolg'uz qilmadi Farhod qonin lolazor,
Lola qonin to'kkuchi oning nifoqidur⁷ hanuz.

Ey Navoiy, garchi meni mehrsiz der erdi yor,
O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz.

¹ V i s o q — uy; xona; ² n u z u l — joylashmoq; ³ r a v o q — katta binolar oldidagi yarim doira shaklidagi bo'lagi; ⁴ n o s i h — nasihatgo'y; ⁵ d o f i ' — daf' etuvchi, yo'qotuvchi; ⁶ f i r o q — ayriliq; ⁷ n i f o q — dushmanlik.

Ko'yung borida qilmon jannatg'a guzar¹ hargiz,
Qadding qoshida solmon to'big'a nazar hargiz.

O'qungg'a ko'ngul moyil, mujib nedur, ey qotil,
Kim o'tganidin bo'lmas ko'nglumga xabar hargiz.


Bu jismi nazor² ichra ko'nglumni gumon qilmang,
Shoxeki qurur, anda kim ko'rdi samar³ hargiz?

La'lingda malohatdin jon komidadur lazzat,
Bu ta'm qachon bergay tuz birla shakar hargiz?

Ko'ngliga fig'onimdin rahm o'lmasa, ey bulbul,
Gul g'unchasig'a bormu nolangdin asar hargiz?

Pil o'lsa sening xasming⁴, desangki zarar topmay,
Bir pashshag'a olamda yetkurma zarar hargiz.

Maxlas⁵ tilasang g'amdin dahr ichra Navoiydek,
Qo'ymag'asen ilgingdin sog'arni magar hargiz.



¹ G u z a r — o'tish; ² n i z o r — bo'sh; zaif; ³ s a m a r — meva;
⁴ x a s m — dushman; ⁵ m a x l a s — qutulish.

* * *

Sarv yanglig¹ jilva qilsang noz ila, ey sarvinoz,
Jonlar etgaylar ayog'ingg'a fido ahli niyoz¹.

Tanda har na'l² ichra bir til shakli zohir ayladim,
Der uchun jismim g'ami ishqingg'a yuz til birla roz.

Nuri ruxsoring ko'ngulni qildi su, vah, ko'rma duk
Sham' tobi uylakim andin lagan topqay gudoz³.

Ul sanamkim, qasri atrofida el bosh qo'ydilar,
Ka'badekdurkim, qilurlar barcha soridin namoz.

Yo sipand et yuz o'tig'a ko'zlarimning mardumin,
Yo yuzungni yopib ayla el ko'zidin ehtiroz.

Ishq agar komildurur ma'shuqni mahkum etar,
Bo'lmayin Mahmud bo'lmoq istama yoring Ayoza⁴.

Gar Navoiy yig'lasa ishqing majozidur demang
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.



¹ A h l i n i y o z — yolvoruvchilar, ojizlar; ² n a ' l — tamg'a;
³ g u d o z — erimoq, quymoq; ⁴ M a h m u d v a A y o z — Sulton
Mahmud G'aznaviyning quli va xizmatchisi Ayoza.

* * *

Do'stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,
Mehri gardun bo'lsalar ko'z nuridin yorutmangiz.

Gar shoh o'lsun, gar gadokim, solmangiz yuziga ko'z,
Yodini balkim ko'ngul atrofida yovutmangiz¹.

Zulm ila yuz chok qilg'on tang'a gar marham yoqib
Butkarurbiz² desalar, ul zaxmlarni, butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har dam qasdi jon,
Ko'nglungizni g'ayri bekaslik bila ovutmangiz.

O'ksudi³ el mayli mendin, bir yo'li ey dardu g'am,
Gah-gahi siz bori boshimdin qadam o'ksutmangiz.

Hajr o'tin jonimg'a yoqtim, ko'rsangiz usruk meni,
Emdi, ey pand ahli, do'zax o'tidin qo'rqutmangiz.

Chun Navoiy dasht tutti, emdi zinhor, ey vuhush⁴,
Kim bashar jinsini ul majnun sari yovutmangiz.



¹ Y o v u t m o q — yaqinlashtirmoq; ² b u t k a r m o q — bitkazmoq, tuzatmoq; ³ o' k s u t m a k — kamsitmak; ⁴ v u h u sh — vahshiy hayvonlar.

* * *

Menga ul ko'zi qaro dedi chuchuk chandin so'z,
Ne ajab ani qaro ko'z desamu shirin so'z.

Labi yuz va'dani andoq manga yolg'on qildi.
Ki dey olmas kishi yuz yilda bir andoq chin so'z.


Hajring afsonasidin so'z der esam hajr tuni
Topmag'ay tongg'acha tun yil esa taskin so'z.

Beliyu la'li labi so'zida lol o'ldi xirad¹
Kim, erur biri daqiqu² biri bas rangin³ so'z.

Har fasohatki labing qildi Masiho eshitib,
Jon topib kelmadi og'zi aro juz⁴ tahsin so'z.

Husni vasfida so'zum tutti bari olamni,
Murshidi⁵ ishq menga aylagali talqin⁶ so'z.

Bazmi aysh ichra Navoiy ne ajab urmasa dam,
Ayta olmas chu nishot⁷ ahli aro g'amgin so'z.



¹ X i r a d — aql; ² d a q i q — ingichka, nozik; ³ r a n g i n — go'zal;
⁴ j u z — boshqa; ⁵ m u r s h i d — yo'l boshchi; ⁶ t a l q i n — tushuntirish,
uqtirish; ⁷ n i s h o t — shodlik.

* * *

Ul pari ko'yida men devonani band aylangiz,
Band-bandim zulfi zanjirig'a payvand aylangiz.

Xalq tarki ishq iylarga meni dilxastani
O'lturub, olam eliga mujibi pand¹ aylangiz.

Telba ko'nglum topsangiz, ey yor ko'yi itlari,
Tush-tushidin tishlabon parkand-parkand² aylangiz.

Bodai ishq asru³ mast etmish meni, ey do'stlar.
Jomima afyun ezib, bir dam xiradmand aylangiz.

Yig'lasam achchig' malul o'lmoq nedur, ey xo'blar,
Hazz uchun gohi boqib siz ham shakarxand aylangiz.

Ishq bahrida duri vasl istasang, ey ahli dard,
Ko'nglungiz ul naqd yodi birla xursand aylangiz.

Qilsangiz tasvir Layli husnin ul oydek sizing,
Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz.



¹M u j i b i p a n d — nasihat sababchisi; ²p a r k a n d — parcha;
³a s r u — juda.

* * *

Sunbulin Layli ochibtur — yel abiroso¹ emas,
Dog'ini Majnun qonatmish — lolayi humro² emas.

Nastaran³ ko'zgusida bir sori men, bir sori yor
Chehra aksin ko'rguzubtur bir guli ra'no emas.

Gulni o'xshotqon uchun yoring'a go'yo bog' aro
Muztarib⁴ ko'nglum qushidur, bulbuli shaydo emas.

Sunbul ustidin nasim esgach, nigorim turrasini
Yod qildimkim, dimog' oshuftadur, savdo emas.

Nargis oltun jomining ollida kofuriy harir⁵
Pardayi jonimdurur, marhun⁶ qadahpolo⁷ emas.

Dema, afg'onimda bulbul nolasidek yo'q nishot,
Bu ham anduhzo⁸ emas, gar gul nishotafzo⁹ emas.

Gulni sarv uzra xayol ettim ko'ngul bo'stonida,
Rost aytay, sarvi gulro'yum kibi zebo emas.

Bo'lmangiz mag'ruri husn, ey sho'xlarkim, bog' aro
Siz kibi bilturg'i gullardin biri paydo emas.

Manga gulrux soqiyu bulbulg'a gul tutti qadah,
Mast erur ul ham, Navoiydek vale rasvo emas.

¹ A b i r o s o — xushhid taratuvchi; ² h u m r o — qizil;
³ n a s t a r a n — cq gul; ⁴ m u z t a r i b — iztirob chekuvchi;
⁵ k o f u r i y h a r i r — nozik oq rangli; ⁶ m a r h u n — garovga
qo'yilgan; ⁷ q a d a h p o l o — may suzgichi; ⁸ a n d u h z o — g'am
keltiruvchi; ⁹ n i s h o t a f z o — shodlikni oshiruvchi.

* * *

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand¹ etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen ondinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahraye ondin tilarman, bahramand etmas.

Netay huru pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrchashm² aylab, nihon bu no'shxand³ etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki⁴ qotilvashi Majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javlani samand⁵ etmas.

Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasun ko'z deb,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.



¹ A r j u m a n d — loyiq, sazovor; ² z a h r c h a s h m — yomon qarash, zaharli nigoh; ³ n o' s h x a n d — shirin kulgi, jilmayish
⁴ c h o b u k — otlig', chavandoz; ⁵ s a m a n d — saman ot.

* * *

Bog' aro ne sarv etarmen orzu, ne gul havas,
Dahr bog'ida manga ul sarvi gulruxsor bas.

Ul kechakim yor ila yorutqamen sham'i visol,
Zinhor, ey subh, agar bo'lsang Masih urma nafas.

Kuydi ham tan. ham so'ngaklar tushgach ul yuz lam'asi,
Barq o'tig'a naylagay bir tor ila bir necha xas.

Naxli qadding uyla oliydurki, termak mevasin
Bo'lsa dog'i dastras¹ mumkin emastur dastras.

Oncha tiyg'i ishq chokidur tanim atrofida
Kim, ani ko'nglum qushig'a dard aylabtur qafas.

Ul mahi mahmilnishin² havdajda, ko'nglum tashqari,
Ne ajab gar tinmay afg'on cheksa andoqkim jaras³.

Ey Navoiy, iltimos etma sanamlardin visol,
Gar desang ko'p kuymayin bizdin eshit bu multamas⁴.



¹ D a s t r a s — qo'l yetish; ² m a h m i l n i s h i n — kajavada o'tirgan; ³ j a r a s — qo'ng'iroq; ⁴ m u l t a m a s — iltimos.

Bizga davron bog'idin bir sarvi gulruxsor bas,
Gohi andin jilva gohi davlati diydor bas.

Xil'atin zaxming'a bog'larg'a ne hadkim, istasam,
Qilsa lutf andin muni tikmak uchun bir tor bas.


Men kimu zulfung tamannosi, agar kufr istasam,
Itlaring bo'yni tanobidin menga zunnor bas.

Hajr o'tidin sindi ko'nglum, istamon qasring panoh,
Soya bir ko'ngli buzulg'ang'a sinuq devor bas.

Ko'zda bir uyquni ko'rsam, uyquda ko'rsam seni,
To ajal uyqusi ushbu davlati bedor bas.

Voizo¹, men osiy² ermon huru jannat loyiqi,
Mug'bacha, soqiy, maqomim kulbai hammor³ bas.

O'zlugungdin o'zni salb etsang⁴ evaz bir komdur⁵,
Ey Navoiy, qilmag'il, bu shevani zinhor bas.



¹ Voiz — ma'ruzachi; ² osiy — gunohkor; ³ kulbai xam mor —
ichish joyi; ⁴ salb etmoq — olib tashlamoq, ketkazmoq;
⁵ kom — maqsad.

* * *

Ko'nglum ichra dardu g'am avvalg'ilarg'a o'xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ne sitamkim qilsa rahmi mahfiy ermas ziminida,
Emdi qilsa har sitam, avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Demangiz Shirinu Layli oncha bor husn ichrakim,
Xo'bluqda ul sanam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Javridin erdi alamlar emdi tutmish o'zga yor,
O'lmishamkim, bu alam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnung'a o'xshatmang meni,
Kim bu savdoyi dijam¹ avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ko'yining ehromidin ko'nglumni man' etmang yana,
Kim anga azmi haram avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfikim,
Shoh G'oziyg'a² karam avvalg'ilarg'a o'xshamas.

¹ Savdoi dijam — ezilish, xorlik ishi; ² Shoh G'oziy — Sulton Husayn Boyqaro.



Gulshani iqboli xori mehnatig'a arzimasi,
Bodai gulgun xumori nakbatig'a¹ arzimasi.

Lolaruxlar vaslida yuz yil kishi qilsa nashot,
Bir zamonlig' bilki dog'i furqatig'a arzimasi.

Bahru kon naqdin agar yig'ding, vale yetgach ajal
Barchani solib ketarning shiddatig'a arzimasi.

Har necha tersang yigitlikning bahori gullarin
Bir xazoni shaybi ohi hasratig'a arzimasi.

Taxti izzat uzra nasb etsa birovni davri charx,
Azli ko'yining g'ubori zillatig'a² arzimasi.

Har necha davlat sahobi³ sochsa gavhar boshingga,
Anglakim, bir qatla barqi⁴ ofatig'a arzimasi.

Xirqam olib rahn durdi dard ber, ey mayfurush,
Gar xarobot ahli sofiy ishratig'a arzimasi.

Har zamon yore ketar, jonimni olg'il, ey ajal,
Kim hayot ahbob dardi furqatig'a arzimasi.

Kimsa birla tutmag'il ulfat, Navoiy, negakim,
Ayrilurda menga bo'lgan holatig'a arzimasi.

¹ N a k b a t — tole'sizlik, baxtsizlik; ² z i l l a t — tushib ketmak, pasayish; ³ s a h o b — bulut; ⁴ b a r q — chaqmoq.

* * *

Ho'blar¹ ming bo'lsalar, men xastag'a bir yor bas,
Anda mehr atvorining² mingdin biri gar bor bas.

Aytmonkim har vafo qilsam jafoye qilmasun,
Har vafog'a ming jafo, gar aylamas izhor bas.

Har vafog'a ming jafo ham qilsa qilsun munchakim,
Yor anga mahrumu mahram bo'lmasa ag'yor bas.

Ey visol ahli, sizu izzat harimikim, manga
Hajr ko'yi itlari ollida bo'lmoq xor bas.

Men kimu no'shi labingdin istamak obi hayot,
Aylasa g'amzang sinoni³ qatl bu miqdor bas.

Ey ko'ngul, g'amgin esang kup quysa soqiy og'zingga
Zarfini⁴ sibqarmag'uncha qilmag'il zinhor bas.

Yuz balo kelsa boshingg'a sabr qilg'il, ey ko'ngul,
Yo xaloyiq ixtilotin⁵ qil Navoiyvor bas.

¹ H o' b l a r — yaxshilar; ² a t v r — fe'lu xo'y; ³ s i n o n — ko'krak; ⁴ z a r f — kesa; ⁵ i x t i l o t — aralashmoq.

G'amzangg'a kishi nazora¹ qilmas,
Kim bag'rini pora-pora qilmas.

Darding'a agarchi yo'q shumora²,
Ishqing muni ham shumora qilmas.


Bechora meni dengiz g'am ichra
Kim, yor g'amig'a chora qilmas.

Qilg'anni jahong'a ohu ashkim
Charx aylamasu sitora qilmas.

Ish qildi ko'ngulga dardi hajring
Kim, shishaga sangi xora qilmas.

Topmas kishi dahr bazmida kom
Kim, majma'idin³ kanora qilmas.

Xilvat aro kirgali Navoiy,
Juz maxlasin istixora⁴ qilmas.



¹ N a z o r a — qarash; ² s h u m o r a — son-sanoq; ³ m a j m a ' — guruh, jamiyat; ⁴ i s t i x o r a — xayoliy ko'rinishlar.

* * *

Dahrdin mehru vafo qilma havas,
Elidin g'ayri jaf o qilma havas.

Etsa har dam senga yuz muhlik¹ dard
O'lsang o'l, lek davo qilma havas.


Ey ko'ngul, vasl havas qilding o'l
Zorlig'lar bila yo qilma havas.

Aylagan ishq havas kuch birla
Yuz tuman dardu balo qilma havas.

Ko'yi tufrog'i erur mushki Xito,
Istagan oni xato qilma havas.

Ishq dashtini desang qat' qilay
Zodi rah g'ayri fano qilma havas².

Benavolig'da, Navoiy, o'lsang
Bazmi vasl ichra navo qilma havas.



¹ M u h l i k — halok etuvchi; ² Z o d i r a h g' a y r i f a n o q i l m a h a v a s — Odam bolasi, fanodan bo'lak narsani havas qilmagin.

* * *

Yozuqsiz¹, jurmsiz² bedod etar fosh,
Manga ul surmasiz ko'z, vo'smasiz qosh.

Fig'onkim, bu taraf boqmay o'tarsen,
Nechakim ko'zlarim yummay to'kar yosh.

Sirishkim seli har yon uyla surdi,
Ki topmon ko'ksuma urmoq uchun tosh.

Iliging o'pgali ochmish og'izlar
Qilichingdin sarosar³ zaxmliq bosh.

Hamono qolmas o'z holida rangi,
Sizarda suratingni ko'rsa naqqosh.

Bahodur naqdi din, ey dayr piri,
Karam qil mayki, borbiz asru qallosh⁴.

Demish, kelsam Navoiy qatli aylay,
Kelib, ne ko'ngli istar, aylagay kosh.



¹Y o z u q — gunoh; ²j u r m — xato; ³s a r o s a r — boshdin oyoq; ⁴a s r u q a l l o s h — juda faqir.



Meni sargashta jismin dog' ila qon lolazor etmish,
Quyun yoxud to'kulgan lolazor ichra guzor etmish?

Tanimdin qon chiqorg'on har taraf paykonlaring go'yo
Erur yomg'urki, tufrog'din chechaklar oshkor etmish.

Ko'ngul birla so'ngak manqal aro o'tu o'tundektur,
Malomat toshlarin to charx tegramdin hisor etmish.

Yuzin may gul-gul etgandin xarosh ermas unum, balkim
Ko'ngulda xor-xori nolam andomin figor etmish.

Labing jonimg'a solg'an shu'lalar ichra qazo go'yo
Ulug'roq la'ldin axgar, kichikrakdin sharor etmish.

Bo'la olsam ulusqa ul quyoshni ko'rgali moni',
Ne g'amdur, gar yo'lida charx jismimni g'ubor etmish.

Halokim bilgay ulkim, bordur ul yanglig' jafokori,
Ki tavrini husn beparvolig'i oluftavor etmish.

Kabutar qasr burjida emas shah shastidin emin,
Xusho ul chug'z kim, vayrona kunjin ixtiyor etmish.

Maof ermas qayon gom ura rahray noqayi jismi,
Nafas torin qazo chun burnig'a oning mahor etmish.

Mug'anniy nag'masi jon bersa bazm ahlig'a, tong yo'qkim,
Navoiy rishtayi jonin eshib, changiga tor etmish.

* * *

Manga emdi sarv ila gul muddaosi qolmamish,
Sarv bo'ylug' guljabinliklar¹ havosi qolmamish.

Uyla tutmish mehnatu g'am xayli ko'nglum kishvarin²,
Kim nashot onda sig'ing'uncha fazosi qolmamish.

Men baliyat³ ichramen, el shod, go'yo charxning
Emdi dard ahlig'a etkuncha balosi qolmamish.

Yorkim qilmas jafovu javr ermas rahmdin,
Kim manga ko'rguzmagan javru jafosi qolmamish.

Baski har torin balo atfoli uzdilar chekib,
Vahki, uryon⁴ jism uza mehnat palosi qolmamish.

Gul chog'i bog'ingg'akim yo'l bermading, ey bog'bon,
Chinmudur day⁵ bo'lg'ali derlar safosi qolmamish.

Ey Navoiy, gar vafosi qolmamish oning sanga,
G'am yemakim, anga husnining vafosi qolmamish.



¹Guljabin — gulchehra; ²kishvar — mamlakat; ³baliyat — balolar; ⁴uryon — yalang'och; ⁵day — qish mavsumi.



Ko'ngulkim zarnishon paykonlaringdin notavon bo'lmish,
Magar bu bog' aro ul barglar birla xazon bo'lmish.

Guli ra'no kibi kog'az uza nomingni yozmaymen,
Sarig' erdi yuzi, xunobi ashkim birla qon bo'lmish.

Yuzumni ashkmu yo'llar qilibtur yo nazar payki —
Seni istarga ko'p har yon yugurmakdin nishon bo'lmish.

Quruq shoxedurur jismimki, ko'z davrida kirpikdin
Xayoling qushlarig'a anda ikki oshyon bo'lmish.

Ko'zum xunob aro bo'lmish biaynih uylakim¹, ko'nglum
Qarosi qon aro ko'nglumdagi dog'i nihon bo'lmish.

Sirishk ollida mujgon shoxi sanchib, bog'layin dermen
Yo'lin bu selningkim, elga andin ko'p ziyon bo'lmish.

Yuzung hajrida, bilkim, qon yoshim oqmish, chaman ichra
Qachon ko'rsangki, har bir shox uza gul arg'uvon² bo'lmish.

Murassa³ qilma chatring⁴ lojuvardiy⁵ atlasin, ey shah,
Gado ollidakim bu nav' chatri osmon bo'lmish.

Navoiyg'a demang, ul tifi ishqin asrag'il maxfiy,
Bu damkim holi shahr atfoli ichra doston bo'lmish.

¹ Biaynih uylakim — guyoki; ² arg'uvon — qizil;
³ murassa' — qimmatli toshlar bilan bezalgan; ⁴ chatr — chodir;
⁵ lojuvardiy — ko'k.

* * *

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Uylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

Qut¹ bir bodomu yerim go'shayi mehrob edi,
G'orati din etti nogah bir baloliq ko'zu qosh.

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhning bot-bot dami andog'ki aylar mehr fosh.

Bo'saye qilmas muruvvat, asru qattiqdur labing,
Desam, og'zi ichra aytur: la'l ham bor nav'i tosh.

Novaking ko'nglumga kirgach, jon talashmoq bu ekin,
Kim qilur paykonini ko'nglum bila jonim talosh.

Umri jovid² istasang fard³ o'лки, bo'ston Xizridur —
Sarvkim, da'b ayladi ozodaliq birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon, ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, bir-bir qo'yg'usidur barcha bosh.

¹ Q u t — yemish; ² j o v i d — doimiy; ³ f a r d — bittayu bitta.



Latofatda yuzung ham gul emish, ham gulsiton ermish,
Halovatda labing ham jonu ham oromi jon ermish.

Bu ma'nidinki doim chun nihondur ul pari ko'zdin,
Ishi jonu ko'ngulga o'rtamak dog'i nihon ermish.

Iti bag'rimni yer chog'da ayog'i qong'a bulg'andi,
Ko'zum bog'ida gul oning tobonidin nishon ermish.

Shararlar birla ohim dudini sahroyi ishq ichra
Kishi ko'rsa gumon qilg'ay ming o'tlug' korvon ermish.

Chamanda har sari qildim guli ra'no gumon ul xud
Sarig' gul jomida gulgun sirishkim birla qon ermish.

Sog'indim ko'yida har kecha itlar nolasi lekin
Nechukkim, telba it ushshoq ko'nglidin fig'on ermish.

To'kub may muhtasib¹, men yig'ladim, lekin ul usrukka²
Su kelturmak hamonu ko'za sindurmoq hamon ermish.

Fano dayriki gardun hisnidin³ mahkamdurur bildim
Ki, gardun zulmidin faqr ahlig'a dorilamon ermish.

Navoiyni dedim ishq ichra somone topib erkin
Vale ko'r'dum hamon devonayi bexonumon ermish.

¹ M u h t a s i b — nazoratchi; ² u s r u k — mast; ³ h i s n i — mahkam qo'rg'on.



Oshiq o'ldum bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,
Olloh-olloh, ishq aro mundog' balolar bor emish.

Qaddig'a el mayli bo'lg'andin ko'ngul ozurdadur,
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak urdi, men o'ldum, erur bas turfakim,
Jonim etgan resh el bag'rig'a kirgan xor emish.

Rishtakim muhlik yaram og'zini tikti angladim,
Kim kafan jinsi qirog'idin suvurg'an tor emish.

Ko'yi devoridin og'rig' tang'a tushkan soyadek
Seli g'amdin emdi soya o'rnig'a devor emish.

Jonga taxvif¹ ayladim tig'i halokidin aning,
Bilmadim bu ishdin ul o'lguncha minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo'blarni ko'rma osonlig' bila,
Kim, birovkim soldi ko'z uzmak ko'ngul dushvor² emish.



¹ T a x v i f — xavflanish; ² d u s h v o r — og'ir, murakkab.

Bizning shaydo ko'ngul bechora bo'lmish,
Malomat dashtida ovora bo'lmish.

Anga baskim yog'ar tosh ustida tosh,
Tanida yora uzra yora bo'lmish.

Urardin dam-badam xorog'a boshin,
So'ngaklar anda pora-pora bo'lmish.

Balo tog'i aro yotqanda bemor
Xazu sinjobi¹ xoru xora bo'lmish.

Qaro qildi nechukkim ro'zgorim,
Oning ham xonumoni qora bo'lmish.

Qadah xurshidi qonikim, g'amidin
Sirishkim kavkabi² sayyora bo'lmish.

Navoiy choradin ko'p dema so'z kim,
G'amingg'a chorasizliq chora bo'lmish.



¹ X a z u s i n j o b i — ipakli mato, olmaxon terisidan tikilgan po'stin; ² k a v k a b — yulduz.

* * *

Har kun aqshomg'a hajringda menga zorlig' ish,
Kecha tong otg'ucha anduh ila bedorlig' ish.

Ish vafo qilmoq erur gar qila olsangki, emas
Ey vafosiz, bu jahon ichra jafokorlig'¹ ish.

Ishq aro qochma ko'ngul xoru zabunlug'dinkim,
Oshiq o'lg'ang'a zabunlug' bo'luru xorlig' ish.

Lutфу diljo'lig' erur xo'b parivashlarg'a,
Ey pari, bilki, emas javru dilozorlig' ish.

Taqvi ahlig'a² bilinsa edi charx avzoi,
Aylagaylar edi bu dayrda xammorlig'³ ish.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.

Xasta ko'nglini Navoiyning olib asraki, bor
Senga dildorlig' ish, bizga dilafkorlig' ish.



¹ D i l a f k o r — ko'ngli chok, yarali; ² t a q v i y a h l i — saqlanuvchilar, taqvodorlar; ³ x a m m o r — sharobxo'r.

* * *

Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonliqda hayf,
Qolg'ani sarf o'ldi anduhu pushaymonliqda hayf.

Jong'a bir dushvorliq qo'ymay riyozat ranjidin¹,
Sarf bo'ldi naqdi avqotim² tanosonliqda hayf.

Bog'ladim paymonadin³ paymon, fig'onkim, aqlu din
Bo'ldi bu paymonavu ul sustpaymonliqda hayf.

Ey musulmonlar, bilingkim, bo'ldi umrum hosili
Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonliqda hayf.

Hayfkim, naf' aylamas har nechakim tortib ilik,
Desam o'z ahvolima bu nav' hayronliqda hayf.

Andoq ish qilkim pushaymon bo'lmag'aysenkim, emas
Hech osig'⁴ chun ish xato bo'ldi pushaymonliqda hayf.

Har ne o'tgan so'zlarim chindur desam yolg'on erur,
Chin budurkim, degamen umr o'tti yolg'onliqda hayf.

Chun yengilrakdur hisob o'lg'onda sultondin gado,
Hayfkim, bo'lg'ay gado avqoti sultonliqda hayf.

Ey Navoiy, voqif ermon xalqdin, bori mening
Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonliqda hayf.

¹ R i y o z a t r a n j i — qiyinchilik ozori; ² a v q o t — vaqtlar;
³ p a y m o n a — umr ma'nosida; ⁴ o s i g' — foyda.

* * *

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim joni yo'q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog'dekdurkim, gulu rayhoni yo'q.

Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gulu rayhon anga,
Ul qarong'u kechadekdurkim, mahi toboni yo'q.

Ul qarong'u kechakim yo'qtur mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni¹ yo'q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo'lmag'ay,
Do'zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni² yo'q.

Do'zaxekim, ravzayi rizvondin o'lg'ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastliq imkoni yo'q.

Ey Navoiy, bor anga mundog' uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi, va lekin vasldin darmoni yo'q.



¹ Sarchashmai hayvon — hayot suvi bulog'i; ² ravzai rizvon — jannat bog'i.

* * *

Bo'lmas ermish dilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq!
Gar kishi derkim: bo'lur, tutma musallam, ey rafiq!

Har parizodeki o'z majnunig'a qilmish vafo,
Bilki, andindurki ermas nasli odam, ey rafiq!

Mohvashlar shomi zulfi ne uchun oshuftadur,
Tutmamish bo'lsa vafo ahlig'a motam, ey rafiq!

Dard muhlik umrning ta'jili¹ ko'p joning uchun,
Kim Masihimni ketur boshimg'a bir dam, ey rafiq!

Qo'ydi bir o'tlug' fatila² dog' uchun har g'unchadin,
Charx to gulshanni ko'rdi sabzu xurram, ey rafiq!

Gul emas gulbunda qonlig' dog' erurkim nastaran,
Tevruk³ aylabdur momuq qo'ymoqqa marham, ey rafiq!

Bu munaqqash saqf⁴ tarixi yozig'liq chun emas,
Ko'p mashaqqat chektim, ammo qoldi mubham⁵, ey rafiq!

Men xud ettim azm mug' ko'yida rasvo bo'lg'ali,
So'z eshit, albatta, mendin qolma sen ham, ey rafiq!

Ich, dog'i tutqil Navoiyg'a qadahkim, arzimas
Bir nafas hushyor bo'lmog'liqqa olam, ey rafiq!

¹ T a ' j i l — tiqilinch, jadal; ² f a t i l a — pilik; ³ t e v r u k —
tevarak; ⁴ m u n a q q a s h s a q f — osmon; ⁵ m u b h a m — noaniq.

Qaro-qaro mija xanjarlarin ititmak¹ ishing,
Hayot naxlini kesgan qiyo-qiyo boqishing.

Ishing bu erdiki, jonimni olg'asen, tanni
Ki sudraturesen eshiktin, gar tugandi ishing.

Zuloli Xizr labing, ul zulol qatralari
Ki jola bo'ldi uzoring bahori ichra tishing.

Ne g'unchasen, ko'ngul, oxirki yelu suv yeriga
Bo'lubtur ohu bag'ir qoni birla parvarishing.

Ko'zumba qo'ydi qadam, vah, o'tar xayol aylab,
Olay desa ayog', ey ko'z qarolari, yopishing.

Erur chu dahr buzuq gulxan, ushbu avlokim:
Buzug'da kechsa yozing, gulxan ichra o'tsa qishing.

Navoiy, istama eldin junun ilojinkim,
Bu telbalik aro yo'q ul paridin o'zga kishing.

¹ Ititmak — o'tkir qilmoq.

Gar jaf o qil, gar vafokim, dilsitonim¹ sen mening,
Gar meni o'ltur, agar tirguzki, jonim sen mening.

Xoh ra'no qad bila borg'il yonimdin jilvagar,
Xoh kel qoshimg'akim, sarviravonim sen mening.

Ko'nglum ichra sensenu ishqing, ne dey holim senga?
Chun bu yanglig' mahrami² rozi nihonim sen mening.

Jilva aylab har zamon, afg'onu ohim qilma ayb,
Ham sen-o'q chun boisi ohu fig'onim sen mening.

La'lidin bir-ikki so'z mazkur qil, ey xasta jon,
Bori bu bir-ikki damkim mehmonim sen mening.

Telbalardin garchi rad qilding meni, lek anglag'il,
Kim pari ruxsoralardin tanlag'onim sen mening.

O'ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen ani,
Ertaki nozukmizoji badgumonim sen mening.



¹ D i l s i t o n i m — ko'nglimni olgan, sevgilim; ² m a h r a m — eng yaqin kishi, sirdosh.



Orazing guldur, gul uzra sabzayi tar kokulung,
Olloh-olloh, gul yuzin qilmish muanbar kokulung.

Qomatingdur sham'u ruxsoringdur oning shu'lası,
Shu'laning dudidur¹, ey sho'xi sitamgar, kokulung.


Ochqaningda nega har tori arodur yuz girih²,
Gar ko'ngullar band qilmaydur sarosar kokulung?

Ne ajab, husn ahlining sultoni bo'lsang, xossakim,
Mushkdin qo'ydi quyosh boshig'a afsar³ kokulung.

Sunbuledurkim, sarosar⁴ chirmashibtur sarv ila,
Naxli qadding birlakim bo'lmish barobar kokulung.

Istasangkim, bo'lmag'ay oshuftavu darham⁵, degil,
Qilmasun bizni parishonholu abtar⁶ kokulung.

Gar Navoiyg'a dimog' oshufta bo'lsa, tong emas,
Chun separ har dam yuzung o'tig'a anbar⁷ kokulung.



¹ D u d — tutun; ² g i r i h — tugun; ³ a f s a r — jig'a, toj;
⁴ s a r o s a r — boshdan-oyoq; ⁵ d a r h a m — sochilgan, parishon;
⁶ a b t a r — qisqa, uzilgan; ⁷ a n b a r — xushbo'y qora modda.

Tilagim sening huzurung, talabim sening jamoling,
Necha kun tirikligimdin g'arazim sening visoling.

Chiday olmasim firoqing, o'pa olmasim ayoqing,
Ko'ra olmasim naziring¹, topa olmasim misoling.

Manga dashtdin farah² yo'q, manga bog'din tarab³ yo'q,
Farahim sening hadising⁴, tarabim sening xayoling.

Ajal ushbu damki, ko'yungdamen olsa jonki, borl
Boshim o'lsa xoki poying, tanim o'lsa poymoling.

Yuzida urubsen, ey mehr, kamoli husndin dam,
Manga ravshan o'ldi bu damki yetibturur zavoling⁵.

Nega tarking etmay, ey charxki, shomu axtaringdin⁶
Qarodur yuzung, va lekin oq erur yuzungda xoling.

Mayi ishq chun Navoiyni jahonda qildi rasvo,
Bu qadahni, do'stlar, emdiki oning qoshidin oling.

¹ N a z i r — o'xshash, teng; ² f a r a h — xursandlik; ³ t a r a b — shodlik; ⁴ h a d i s — so'z; ⁵ z a v o l — tushkunlik; ⁶ a x t a r — yulduz.

* * *

Ko'kragimdur subhning pirohanidin¹ chokrok,
Kirpikim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok².

Bu ko'ngul g'amnokidin to shodmon ko'rdum seni,
Istaram har damki bo'lg'ay xotirim g'amnokrok.

Layli andin qo'ydi Majnun ko'nglida raxti³ g'amin,
Kim yo'q erdi manzil ul vodiya andin pokrok.

Uyla mujgon xanjarig'a yopishibdur durri ashk,
Kim magar ondin yatime yo'qturur bebokrok.

Jon olurda lablaringdin barcha el quldur sanga,
Jon berurda bir qulung yo'q bandadin cholokrok⁴.

Odamiylik tufrog'in bersa fano yeliga charx,
Ohkim, yo'qtur kishi ahli vafodin xokrok.

Necha o'qlasang Navoiy ko'ngli zaxminroq⁵ bo'lur,
Ko'rmaduk zaxmeki, tekkan soyi bo'lg'ay chokrok.

¹ P i r o h a n — ko'ylak, yoqa; ² n a m n o k — ho'l; ³ r a x t — anjom, yuk; ⁴ c h o l o k — tetik, chaqqon; ⁵ z a x m i n — yarali.

* * *

Ko'ngullar quti shirin dostoning,
Bag'irlar qoni la'li durfishoning¹.

Nihonu oshkoro men sanga yor,
Sening ag'yor ila rozi nihoning.

Muhiblar birla har tun bizdin ayru
Qadahlarkim chekarsen, no'shi joning.

Vale vahm ayla andinkim chekib voy,
Damodam qon yutar bir notavoning.

Ajab la'lesen, ey ashki jigargun²,
Ajab yo'qkim, erur g'am tog'i koning.

Kular, ey bog'bon, har g'uncha, go'yo —
Ki g'o'ildur³ xazondin gulsitoning.

Navoiy ishq vodiysig'a kirdi,
Xatarliq yo'ldurur, ahhob, yoning⁴.

¹ D u r f i s h o n — dur to'kuvchi; ² a s h k i j i g a r g u n — jigar rangidagi ko'z yoshlari; ³ g' o' i l — bexabar; ⁴ y o n i n g — qayting.

Base dard berdingu davo qilmading,
G'amu ranjim anglab, shifo qilmading.

Base va'da berding qilay deb vafo,
Hamin va'da qilding, vafo qilmading.

Gunahsizki, hajr o'qi otting menga,
Xato erdi, ammo xato qilmading.

Visolingda ko'nglumni tindurmading,
Firoqingda to muftalo qilmading.

Ko'ngul birla jonni ham etting asir,
Bu shiddatni yolg'uz mango qilmading.

Yaqin istamak dast agar bermadi,
Yiroqtin dog'i marhabo qilmading.

Navo birla garchi hech kimsani
Navoiy kibi benavo qilmading.



Ishq o'tidin qismatim dardu balomu qilmading?!
Dudi birla xonumonimni qaromu qilmading?!

Kuymagimga barqi ofat qilmadingmu ohni?!
O'lmagimga ashkni seli balomu qilmading?!

Zulm tig'idin tanimni etmadingmu band-band?!
Furqatingdin band-bandimni judomu qilmading?!

Dema, ey ko'z kim, ne qildim, gar seni ko'r istasam,
Bir boqib, yuz ming balog'a muhtalomu qilmading?!

Ey ko'ngul, holimni qilding arzu afzun qildi zulm,
Bilmadingmu, yo bilib yaxshi adomu qilmading?!

Shikva¹ qilsoq sendin, ey gardun, ravo ermas dema,
Bizni bekom aylab, el komin ravomu qilmading?!

Bahri ishq ichra, Navoiy, oshnolig' topmading,
To bu bir ko'zni Aras, ul birni Omu qilmading!



¹ Sh i k v a — shikoyat.

* * *

Oshiq o'ldum pand bermang, choram asbobin tuzung,
Ishq zor etganga zulm etmang, tarahhum ko'rguzung.

Eyki dersiz ishq aro sabring uyin obod qil,
Mundoq etguncha hayotim qasri bunyodin tuzung.

Sarvnozim gar borur ko'z bog'idin, qilmon qabul,
Gar aning o'rnida to'bi naxlini o'lturg'uzung.

Onsizin, ey do'stlar, ne zahru ne obihayot,
Kim musovidur¹ menga gar o'lturung, gar tirguzung.

Gar ajal turg'uzmadi jismimni ul oy ko'yida,
Do'stlar, nan'shimni² bori anda bir dam turg'uzung.

Durd kelturdung debon yozg'urmanguz, ey ahli ishq,
Bok yo'q zuhdum ridosi kunjiga solib suzung.

Chun Navoiy ko'nglini qildi girih bir tori zulf,
Do'stlar, sarrishtai ummidini³ andin uzung.



¹ M u s o v i y — teng, barobar; ² n a ' s h — tobut; ³ s a r r i s h t a i
u m i d — umid ipi.



Gulshan ichra yo'qtur oromim, diloromim kerak,
Sarvu gulni naylayin sarvi gulandomim kerak.

Gar parilar qush kibi ram¹ qilsalar men telbadin,
G'am yo'q ul sho'xi pari paykar mening romim kerak.


Ofiyat² ko'yida mahvashlarg'a yo'qtur nisbatim,
Ul muqomir sheva³ sho'xi boda oshomim kerak.

Ka'bada nokom ila din ahlida yo'q juz nifoq,
Dayr ichinda kofiri beboki xudkomim kerak.

Gul bila sunbul kerakmastur menga, ey bog'bon,
Zulfi sunbul atrlig' ruxsori gulfomim⁴ kerak.

Ey xarobot ahli, rasvo ko'nglum itmish bir taraf,
Kelmisham topib so'rog' ul rindi badnomim kerak.

Ey Navoiy, xonaqahda topmadim juz tafriqa,
Xum kibi mayxonaning kunjida oromim kerak.



¹ R a m — hurkish; ² o f i y a t — sog'liq; ³ m u q o m i r s h e v a — bezorinamo; ⁴ g u l f o m — gulrang.



Aytmonkim la'li jonbaxshing erur jondin chuchuk
Kim, erur har neki yo'q ondin chuchuk, ondin chuchuk.

Nechakim bo'lsun chuchuk shirin takallum so'zlari,
Lekin ermas ul kalomi shakkarafshondin chuchuk.


No'shi la'lingdin menga chun zahri hajr o'ldi nasib,
Ne osig' gar bo'lsa ortug'roq imkondin chuchuk.

Nay o'qung behad chuchukdur jong'a go'yo chiqmamish,
Bir qamish mundoq shakar butgan nayistondin chuchuk.

Novaking uzra boshog go'yo erur habbi¹ nabot
Kim, ko'ngul komi bo'lur ul shakli paykondin chuchuk.

Soqiyo, jomimda ezgil zahrkim, har necha ul
Bo'lsa achchig', bo'lg'usidur zahri hijrondin chuchuk.

Ey Navoiy, jonfizo nazming base vafida bor
Shirai jondin ezilgan obihayvondin² chuchuk.



¹ H a b — o'simlik donasi; ² o b i h a y v o n — hayot suvi.

* * *

Yor kelsa, do'stlar, ohangi raftor aylamang,
Infiolimdin nafas urmoqni dushvor¹ aylamang.

Yolg'uz uyda qayda yoro, boqmog'im ruxsorig'a,
Holatim tag'yiridin² sirrimni izhor aylamang.

Toki ko'nglurn iztirobiyu tanim titratmasi,
Sokin ermas nukta³ ayturg'a, meni yor aylamang.

Soate chunkim o'tub bu nav'i kelsam holima,
So'z aro oshiqliq alfozini⁴ takror aylamang.

Chunki bo'lsa multafitkim⁵, yer o'pub o'lgumdurur.
Har jafo qilsam o'zumga man' zinhor aylamang.

Emdikim o'ldum, tanim yor itlariga tashlangiz,
Lek ag'yorin bu ma'nidin xabardor aylamang.

Qaysi oshiqkim Navoiydekdurur, ey ahli zuhd,
Ishq man'in aylabon ko'ngliga ozor aylamang.



¹ D u s h v o r — og'ir, murakkab; ² t a g' y i r — o'zgarish;
³ n u k t a — fikr, so'z; ⁴ a l f o z — so'zlar; ⁵ m u l t a f i t — iltifotli.



Shomi hajrin ko'rdung, ammo zulm tarkin tutmading,
Va'dai sham'i visol etting vale yorutmading.

Gavhari vasling ilik¹ bergay deb ashkim² bo'ldi bahr³,
Chunki ul daryo aro g'arq o'ldum, ilgim tutmading.

Vasl no'shidin ko'ngulni qilmading bir lahza xush,
Hajr zaxmi biymidin⁴ yuz qatla to qo'rqutmading.

Otashin gul g'unchasidek o'rtading ko'nglumni, lek
Ochibon oni nasimi vaslidan sovutmading.

Donayi ashkingakim rom o'ldi⁵ hijron qushlari,
Ey ko'ngul, bir kun fig'onimdin birin urkutmading⁶.

Xasta ko'nglumkim g'amu xunoba qilding, qismati
Bu g'izoyu⁷ sharbat ul bemordin o'ksutmading.

Bodai vaslin g'animat tut, Navoiy, zinhor,
Kim ne qonlarkim, bu gulgun suni istab yutmading.



¹ I l i k — qo'l; ² a s h k — ko'z yoshi; ³ b a h r — dengiz; ⁴ b i y m — qo'rquv; ⁵ r o m o' l d i — el bo'ldi, o'rgandi; ⁶ o' r k u t m a k — hurkitmak; ⁷ g' i z o — oziq.



Vahki, o'tluq chehra ochib xonumonim¹ o'rtading,
Otashin la'lingdin aytib nukta, jonim o'rtading.

Dema ne qildim, ne qildim notavon ko'nglung olib,
O'rtading, ey qotili nomehribonim, o'rtading.

O't aro qil to'lg'onib kuygandek ul yuz shavqidin,
Necha kim tob urdi, jismi notavonim o'rtading.

Ko'kta zohirdur shafaqdin sho'la, anjumdin sharar,
Kim ani, ey sho'laliq, ohu fig'onim o'rtading.

Bismil etgach saydni andoqki aylarlar kabob,
Zaxm etib ko'nglumni chunkim oqti qonim, o'rtading.

Urg'ali, ey ishqizolim, barqi ofat jonima
Har ne o'zluktinki bor erdi gumonim, o'rtading.

Ey Navoiy, to belu og'zi xayoli aylading,
Boru yo'q, ya niki paydoyu nihonim o'rtading.



¹ X o n u m o n i m — butun bor narsam.

* * *

Men jahondin kechtimu kechmas mening jonimdin el,
Men ilik jondin yudum, chekmas ilik qonimdin el.

To'sh-to'shumdin baski rasvolig' o'ti lov-lov yonar,
Har taraf yo'ldin chiqarlar o'tsalar yonimdin el.

Baxtim uyqusig'a go'yokim surudedur¹ hazin,
Ko'yida bukim uyumas har tun afg'onimdin el.

Tonimaslar bir-birin yoqqon mazallat² gardidin,
So'rg'ali holim kirib chiqquncha vayronimdin el.

Menda tumori junundek pech, vahkim, bexabar
Har taraf ko'nglumda qonlig' dog'i pinhonimdin el.

Istaram, ey Xizr³, kelgaymen qilib jon birla tavf⁴,
Ka'bayi ko'yin xabar topquncha borg'onimdin el.

Ey Navoiy, qilmag'aylar ayb agar devonamen,
Ul pari vasfin o'qug'on soyi devonimdin el.



¹ S u r u d — ohang, kuy; ² m a z a l l a t — xorlik; ³ X i z r — kishilarga yo'l ko'rsatuvchi, doimiy tirik payg'ambar; ⁴ t a v f — ziyorat.



Qaro ko'zum, kelu mardumlug' emdi fan¹ qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum² kibi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin³ yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a⁴ bag'ir qonidin hino bog'la,
Ittingg'a g'amzada⁵ jon rishtasin rasan⁶ qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx,
Xamir etib, yana ul tog'da Ko'hkan⁷ qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,
Sochingni boshtin-ayog' chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas moni',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il.



¹ F a n — hunar, bilim; ² m a r d u m — inson, odam, ko'z mardumi — ko'z qorachig'i; ³ r a v z a — bog', gulshan; ⁴ t a k o v a r — ot; ⁵ g' a m z a d a — g'amli; ⁶ r a s a n — arqon; ⁷ k o' h k a n — tog' teshuvchi, Farhod.

* * *

Nomasi qo'ynumda, baskim iztirob aylar ko'ngul,
O'pgali chiqmoqqa go'yokim shitob aylar ko'ngul.

Toza butmish erdi ko'ksum choki, vahkim, tolpinib
Chiqqali ul raxnani¹ har dam xarob aylar ko'ngul.

O'qi zaxmi yo'lidin solsam ichimga nomasin,
Bir fatila marham o'rnig'a hisob aylar ko'ngul.

Chirmabon jon pardasin manshur² uza volo³ kibi
Ko'rmasun deb g'ayr oni, go'yo niqob aylar ko'ngul.

G'unchadek qat-qat bo'lub qon ul musofir shavqidin,
Nomasi yanglig' damo-dam pechu tob⁴ aylar ko'ngul.

Mubham⁵ ermish ruq'asi⁶ davronning asru yovakim⁷,
Jong'a bu andishadin har dam azob aylar ko'ngul.

Ey Navoiy, ochti ko'ksumning tikilgan chokini,
Nomasi qo'ynumda, baskim iztirob aylar ko'ngul.

¹ R a x n a — darz, yorilgan joy; ² m a n s h u r — yoyilgan, tarqatilgan; ³ v o l o — baland, yuqori; ⁴ p e c h u t o b — chirmashgan; ⁵ m u b h a m — noaniq, yashirin; ⁶ r u q ' a — xat; ⁷ y o v a — behuda.

* * *

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko'ngul,
Kim erur har satri, bal har lafzi marg'ub¹, ey ko'ngul.

Lafz yo'q, har harfi jon hirzi², dog'i har nuqtasi
Mardumak³ yanglig' biaynih⁴ ko'zga matlub⁵, ey ko'ngul.

Ayladim tumor, agar tumor etar dafi⁶ junun,
Bu meni qilmish junun ilgida mag'lub, ey ko'ngul.

Safhada ermas muhabbat sharhikim, kelmish kiyib
Hullayi kofurgun⁷ bir turfa mahbub, ey ko'ngul.

Asru ko'p takror etardin ul parivash nomasin
Bo'lmisham el ichra majnunluqqa mansub, ey ko'ngul.

G'ayrdin safhangni qilg'il pok, ya'ni aylama
Xotiring lavhini har xat birla ma'yub⁸, ey ko'ngul.

G'amdin ozod o'ldi xattidin Navoiy, bermasa
Paykiga qulluqqa xat bo'lg'aymu mahsub⁹, ey ko'ngul?

¹ M a r g' u b — chiroyli, sevimli; ² h i r z — sig'inadigan joy;
³ m a r d u m a k — qo'achiq; ⁴ b i a y n i h — xuddi; ⁵ m a t l u b — talab
etilgan; ⁶ d a f' i — qaytarish; ⁷ h u l l a y i k o f i r g u n — oq kiyim;
⁸ m a ' y u b — ayblangan; ⁹ m a h s u b — hisoblangan.

* * *

Yo Rab, ul oy husnin el fahmig'a nomafhum¹ qil,
Buyla mavjud etmasang, avval meni ma'dum² qil.

Barcha yuzdin uylakim ko'zumni mahrum aylading,
Barcha ko'zni ul parivash yuzidin mahrum qil.

Bo'lsa ishqimda qusure, ko'nglini mendin sovut,
Ishqim ar pok o'lsa, toshdek ko'nglin oning mum qil.

Qilsa zulm ul zolim elni qilmag'il, yo Rab, zabun³,
Chun tazallumdur⁴ ishim, doim meni mazlum qil.

To ko'zum qutlug' yuzidin o'zga sori tushmasun,
Har ne ko'z ko'rgay, mening baxting'a oni shum qil.

To tirikmen ishq harfidur ichimda, ey rafiq,
O'lsam oni-o'q mazorim toshida marqum⁵ qil.

Demakim, bormu ekin mehrim Navoiy ko'nglida?
Anda sensen, bir taammul⁶ aylabon ma'lum qil.

¹ N o m a f h u m — tushunarli bo'lmagan; ² m a ' d u m — yo'q bo'lgan; ³ z a b u n — past; ⁴ t a z a l l u m — zulmdan shikoyat qilish, dodu fig'on; ⁵ m a r q u m — yozilgan; ⁶ t a a m m u l — chuqur o'ylash.

Ko'nglung istar yorlar birla hamisha shod bo'l,
Mendinu kimdinki ko'nglung istamas, ozod bo'l.

Garchi sabrim uyi yanglig' aylading vayron meni,
Doimo, yo R**ab**ki, husnung mulkidek obod bo'l.

Men chekib anduh, o'lay, el joni bo'lsun ul Masih,
Sovurul, ey charxi nigun, v-ey dahri-dun, bar**ba**od bo'l!

Bevafolar zulmu bedodig'a ermassen harif¹,
Ey sinuq ko'nglum, agar xud shisha, gar fo'lod bo'l.

Tuttum o'lmakdin tirilmak, hajrida tengdur manga
Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo'l.

Chekma boshkim, emin² ermassen xazon yag'mosidin,
Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod bo'l.

Ey Navoiy, olam ahlig'a chu yo'q ermish vafo,
Kelu mundin nori bekaslik bila mu'tod³ bo'l.

¹ H a r i f — qarshi, dushman; ² e m i n — bexatar, tinchlangan;
³ m u ' t o d — ko'nikkan.

* * *

Qomatingg'a har zamon yuz jilva, ey zebo nihol,
Notavon ko'nglumga har bir jilvasidin o'zga hol.

Evrulur ko'nglumda ul chobuk xayoli har kecha,
Shu'laliq ko'nglumni qildi ishq fonusi xayol.

Bosh qo'yay dedim oyog'i tufrog'ig'a, dedi: "Qo'y",
Bo'sa istab la'li rangin so'rdum, ersa dedi: "Ol".

G'unchayi xandonki derlar munfaildur¹ og'zidin,
Lek kulmak birla istar qilsa daf'i infiol².

Xattu xoli hasratidin oncha ashkim oqtikim,
Bir ko'zum tutti g'uboru bir ko'zumga tushti xol.

Davr xam qildi qadingni, go'shaye tut, yo'q aso,
Negakim dard-o'q bo'lur zohir alif yondoshsa dol.

Ey ko'z, onsiz o'zga yuz ko'rmakni qilmishsen havas,
Hajr tig'idin o'yul, yoxud Navoiydin uyol.

¹ M u n f a i l — xijolat chekuvchi; ² i n f i o l — xijolat.

* * *

Kecha ul oy birla erdim, vah, bu tushdur yo xayol,
Tush emas, chun yo'qturur uyqu xayoledur muhol¹.

Ishqin izhor aylabon vaslin tilar munglug' ko'ngul,
Bir gado yanglig'ki, aybin ko'rguzub aylar savol.

Oraz uzra ayn yanglig'dur uzoring uzra ko'z,
Nargis uzra nuqta yanglig'dur ko'zung ustida xol.

Egma qaddim za'fi haddin oshti ul yuz qoshida,
Notavon bo'lg'on kibi xurshid vaslidan hilol².

Yig'labon ul sarvning yo'lig'a tushsam noz etar,
Suv bila tufrog'din bosh tortqon yanglig' nihol.

Hajr tig'idin quruq jismim qalamdek bo'ldi shaq³,
Lek pechon nolalar ko'nglumdadur andog'ki nol⁴.

Kom⁵ erur jonimg'a ul oludalig'din pok lab,
Ey Navoiy, o'lsam ichmon Xizr no'sh etgan zulol.

¹ M u h o l — muimkin bo'lmaydigan ish; ² h i l o l — yangi oy;
³ s h a q — yorilgan, sindirilgan; ⁴ n o l — qalamning uchi; ⁵ k o m —
maqsad.



Ul shayxki, minbar uza afzung'a¹ berur tul².
Shaytondur o'zi, majlisining ahli suruk³ g'ul⁴.

G'aflatdin agar va'z ila uyg'otsalar elni
Ul aylar uyutmoq uchun afsonag'a mashg'ul.


Boshtin ayog'i minbarining poyau doston
Ham o'ziyu ham ma'rifati johilu majhul⁵.

Ko'rmay xirad ashobida bir fardni⁶ oqil,
Topmay kishi afsunida bir nuktayi⁷ ma'qul.

Har neki hadis oti qo'yub barchasi mavzu'
Naqleki mashoyixdin etib, borisi mahbul.

Yuz pora qilib minbarin o't yoqqali avlo,
Bu shart ilakim, bo'lsa ul o'tda o'zi maqtul⁸.

Iblis sifat el sari mayl etma Navoiy,
To bo'lmag'asen zarqu⁹ riyo qaydida¹⁰ mag'lul¹¹.



¹ A f s u n — behuda gap; ² t u l — cho'zmoq; ³ s u r u k — gala, to'da; ⁴ g' u l — dev; ⁵ m a j h u l — noaniq, tushunarli bo'lmagan; ⁶ f a r d — yakkayu yagona; ⁷ n u k t a — so'z; ⁸ m a q t u l — o'ldirilgan; ⁹ z a r q u — riyo, aldov, yolg'on; ¹⁰ q a y d — band; ¹¹ m a g' l u l — bandi bo'lgan.

* * *

Gulshaningdin yeldek, ey zebo nihol,
Men yomon bordim, vale sen yaxshi qol.

Menmenu, bekasligu, ayyomi hajr
Sen bo'lu, ahibobu, davroni visol.

So'rma holimni sabodin gah-gahi,
Ko'nglunga o'lturmasun gardi malol.

Gar buzug' ko'nglumni mardud¹ aylading,
Bok emastur² o'zgalarning ko'nglin ol.

Sig'mayin ko'yungda gar qovdung meni,
Asru keng sahrodurur dashti xayol.

Olam ahlida vafo mavjud emas,
Har nekim yo'qtur, erur topmoq mahol.

Ey Navoiy, xushturur ozodaliq,
Qayd³ aro xushluqqa yo'qtur ehtimol.

¹ M a r d u d — rad etilgan, qaytarib tashlangan; ² b o k e m a s — qo'rquvli o'rni yo'q; ³ q a y d — bandilik.

Bahor bo'ldiyu gul mayli qilmadi ko'nglum,
Ochildi g'unchavu lekin ochilmadi ko'nglum.

Yuzung xayoli ila vola erdi andog'kim,
Bahor kelganu ketganni bilmadi ko'nglum.

Gum o'ldi bog'da og'zing xayolidin, yuz vah,
Ki g'unchalar aro istab, topilmadi ko'nglum.

Ko'zumda jilva qilib, ko'nglum olmoq istadi gul,
Itting izicha ani ko'zga ilmadi ko'nglum.

Yuzung nazarasida mahvu mast edi, ya'ni
Ki gul chog'ida zamone oyilmadi ko'nglum.

Zamona gulbunida g'unchadekdur el ko'ngli,
Alarg'a, shukrki, bori qotilmadi ko'nglum.

Navoiy, g'uncha tilab ko'nglum og'zin etti havas,
Agarchi topmadi, lekin yongilmadi ko'nglum.

* * *

Tun oqshom bo'ldiyu kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Ne g'am, ko'rguzsa ko'ksun porasin choki giribonim,
Ko'runmas bo'lsa ko'ksun yorasidin dog'i pinhonim.

G'amidin durri maknundek¹ sirishkim² oqti JayhundeK,
Muzayyan³ qildi gardundek jahonni ashki g'altonim⁴.

Falak ham to'ldi kavkabdin⁵, quyosh ham tushti ashhabdin⁶
Kelib tushmasmu markabdin⁷ mening xurshidi raxshonim?⁸

Jahonni zulmat etti chah⁹, bu zulmas ichra o'lgum, vah,
Manga bo'lsang ne Xizri rah, yetib, ey obi hayvonim.

Dema ko'kdin quyosh ketmish, falakka tiyralik yetmish,
Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg'onim.

Quyosh qochib yuzin uydi, shafaq o'tqa tushub kuydi,
Falakka dog'lar qo'ydi g'amingdin so'zi pinhonim.

Navoiy kibi hijrondin bu oqshom o'ldum afg'ondin,
G'amim yo'q buyla yuz jondin, yetib gar kelsa jononim.

¹ D u r r i m a k n u n — berkingan dur; ² s i r i s h k — ko'z yoshi;
³ m u z a y y a n — bezalgan; ⁴ g' a l t o n — dumalovchi; ⁵ k a v k a b —
yulduz; ⁶ a s h h a b — oq, bo'z ot; ⁷ m a r k a b — ot; ⁸ r a x s h o n —
porloq; ⁹ c h a h — zindori.

* * *

Kecha ul mahvashni¹ yod aylab farovon yig'ladim,
Mehrim oshti subhdek har nechakim qon yig'ladim.

Sham' avval oqshom-o'q kuydi fig'onim o'tidin,
Kim men o't sochqon bulutdek, tortib afg'on yig'ladim.

Tun qorong'u, kulba xilvat, hajridin ko'nglum to'la,
Tosh urub ko'ksunga to bor erdi imkon yig'ladim.

Yor hajridin kishiga ayta olmas g'ussani
Ko'nglum etti sharhu men mahjuru² pazmon yig'ladim.

Charx ham to'kti quyoshning hajridin kavkab, vale
Yig'lamoq ul erdikim, men zor giryon yig'ladim.

Subhdek xurshid vaslidin agar kulsam, ne tong,
Menki subhi vasl uchun ko'p shomi hijron yig'ladim.

Ey Navoiy, tosh eshitsa navha³ qilg'ay oshkor,
Yo'q ajab, gar bir tun o'z holimg'a pinhon yig'ladim.



¹ M a h v a s h — oy yuzli; ² m a h j u r — ayrilgan; ³ n a v h a — nola.

* * *

Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

G'am bila jonimg'a yettim, g'amgusore¹ ko'rmadim,
Hajr ila dilxasta bo'ldum, diisitone topmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o'qig'a bo'ldum nishon,
Bir kamon abro'da tuzlukdin² nishone topmadim.

Ko'nglum ichra sarv o'qdur, g'uncha paykon, gul tikan,
Dahr bog'i ichra mundog' gulsitone topmadim.

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko'rmadim,
Ishq ko'yida o'zumdek notavone topmadim.

Ko'p o'qudum Vomiqu Farhodu Majnun qissasin,
O'z ishimdin bul'ajabroq dostone topmadim.

Ul amon ichinda bo'lsun, ey Navoiy, garchi men
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Tab' ganjiddin maoniy xurdasin, yuz qatla hayf,
Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim³.

¹ G' a m g u s o r — g'amxo'r; ² t u z l u k — to'g'rilik; ³ M a z -
m u n i: Tabiatim xazinasidan ma'nolar zarralarini sochmoqqa, yuz
qatla hayf: biror nozik fahmli shohni topmadim.

* * *

Ne kun kelgayki, kelgay nozaninim,
Ne xush bo'lg'ayki, bo'lg'ay hamnishinim¹.

Saodat xatlari qilmish huvaydo²
Oting changiga surtulgan jabinim.

Erur ul sho'x otqan kaj guruha³
Ko'ngul ganji aro durri saminim⁴.

Nedin ul ko'z chekar o'q go'shalardin,
Gar o'lturmakka qilmaydur kaminim?

Tegurma otashin la'lingg'a boda,
Kim ul o'tdin kuyar joni hazinim.

Ketur, ey mug'bacha, jomi mug'ona,
Erur olsang bahosi naqdi dinim.

Navoiy, ne osig', jonong'a yetmas,
Navolarkim chekar joni hazinim.

¹ H a m n i s h i n — birga o'ltiruvchi; ² h u v a y d o — ko'zga tashlangan; ³ k a j g u r u h a — egri o'q; ⁴ d u r r i s a m i n — oq gavhar.

Chun o'larmen bir nafas ul dilraboni ko'rmasam,
Ne hayot imkoni bo'lg'ay bir kun oni ko'rmasam.

Ko'nglum ichra topilur g'am novakidin yuz nishon,
O'qidin har kun tanimda yuz nishone ko'rmasam.

Ko'ngul itti, ko'zni dog'i istaram ashk etsa ko'r,
Kim tilarmen hargiz ul yuzi qaroni ko'rmasam.

Sog'inurmen kufr zulfi mojarasidin base,
Gar dame ul sho'xi kofir mojaroni ko'rmasam.

Kim vafo gulchehralardin ko'rdikim, men ko'rgamen,
Bo'lmas ushbu ayb ila ul bevafoni ko'rmasam.

Har biri yuz minnat aylarlar, erur bu ham jafu,
Olam ahlidin ne kunkim ming jafoni ko'rmasam.

Ey Navoiy, ne balodurkim, o'larmen qayg'udin,
Gar dame ollimda ul sho'xi baloni ko'rmasam.



Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil'at¹, mening sarvi ravonim ham.

Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,
Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam.


Chaman sarvi qolib bebar², mening sarvim bo'lub dilbar,
Ani yel aylabon muztar³, bu yeldek sekretib adham⁴.

Qo'nub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin g'ulg'ul⁵,
Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam.

Qilib ohim sari parvo, bu yon mayl etmading qat'o⁶,
Sabodin, ey qadi ra'no, bo'lur ham sarv gah-gah xam.

Bu bog' ichra may, ey soqiy, ki bormen asru mushtoqiy,
Ki anda sarv ham boqiy emas, gul ahdi ham mahkam.

Navoiy, ko'yin et manzil, yuzu qaddig'a bo'l moyil,
Ki bog' etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram.



¹ X i l ' a t — kiyim; ² b e b a r — mevasiz; ³ m u z t a r — xijolat, parishonlik; ⁴ a d h a m — ot; ⁵ g' u l g' u l — shovqun; ⁶ q a t ' o — mutlaqo, butunlay.



No'shi labini har necha so'rdum, o'sonmadim,
Ichmak bila hayot zulolini qonmadim.

Zohid dediki, rahn¹ etibon hirqa dayr aro,
Qilmishsen anda butg'a dog'i sajda, tonmadim.


Mug' piri may berib, tiladi jonni mug'bacha,
Har neki dedilar, qiluridin tajonmadim².

Sarxayl³ edim bu kecha xarobot ahlig'a,
Ul saltanatr i lek o'zumga inonmadim.

Aql etti man' mug'bachavu dayrdin base,
Ko'p o'kdi huru ravzani, lekin begonmadim⁴.

Shukr, ey ko'ngulki, bo'lmadim aflok javridin
Oshuftaholu johig'a dog'i quvonmadim.

Azm ettim, ey Navoiy, ul oy sori bu kecha,
Mahvashlar ochti shu'layi ruxsoru yonmadim⁵.



¹ R a h n — garov; ² t o j o n m o q — bosh tortmoq; ³ s a r x a y l —
guruh boshlig'i; ⁴ b e g o n m o q — yoqtirmoq; ⁵ y o n m o q —
qaytmoq.

* * *

Sarvi ozodimni bog' ichra xiromon istaram,
Sabzasin sarsabzu gulbargini xandon istaram.

Dard jononimda, balkim yuz alam jonimdadur,
Yo'qki jononimg'a, bal jonimg'a darmon istaram.

Tiyradur vayronim onsiz, vah, yana bir qatla ham
Ul quyoshni baytul-ahzonimda¹ mehmon istaram.

Naf' etar bo'lsa hino yanglig' kafi poying'a qon,
Chok etib ko'ksun, oni bag'rimda pinhon istaram.

Ey Xizr, hayvon suyi tut dam-badamkim yor uchun,
Sadqa qilmoqlik uchun har lahza bir jon istaram.

Mujdaye² bergil mizoji sihhatidin, ey tabib,
Kim bu payg'oming³ uchun jonimni qurbon istaram.

O'q kibi qaddin ko'rub aftoda⁴ chun ko'r o'lmading,
Ey Navoiy, ko'zlaringda no'gi⁵ paykon istaram.



¹ Baytul ahzon — g'am uyi; ² mujda — xushxabar;
³ payg'om — xabar; ⁴ aftoda — yiqilgan; ⁵ no'g' — uch.

* * *

Xilvate topib seni jismim aro jon aylasam,
Balki jon xilvatsaroyi ichra pinhon aylasam.

Xilvat eldin yoshurun, xilvat aro tan yoshurun,
Tanda jon yanglig' seni jon ichra pinhon aylasam.

Anda ham jon pardasin har sori osib satr uchun,
Vasling ixfosin¹ nechakim bo'lg'ay imkon aylasam.

Chun bu xilvat ichra ne o'zluk erur mahram, ne men,
Har ne nomahramdurur o'zdin parishon aylasam.

Daf' o'lub ag'yor, topsam yor ul xilvat aro,
Bezabonlig' birla sharhi dardi hijron aylasam.

Umri boqiy topqamen bir lahza ushbu jon aro
O'zni bexud, ko'zni ruxsoringg'a hayron aylasam.

Ey Navoiy, dema iqrar ayla ishq-i tarkini,
Kim inong'ay, gar o'zumga buyla bo'hton aylasam.

¹ I x f o — yashirin.



Oncha yig'latti jafodin do'stdur deb sevganim,
Kim kular ahvolima har qayda ko'rsa dushmanim.

Do'stkim qilg'ay meni bedodi dushman kulgusi,
Buyla dushmankomliqdin yaxshiroqdur o'lganim.

Do'st dushmandin menga ko'prak chu yetkurgay jafu,
Ne ajab gar emdi dushmand o'stug' bo'lg'ay fanim.

Ursa dushman zaxm erur marham, tavaqqu' do'stdin,
Ikkisi zaxm ursa tong yo'q chok-chok o'lmoq tanim.

Ta'na birla buzma, ey dushman, ko'ngul uyin dog'i,
Ushbu baskim do'st zulmidin buzulmish maskanim.

Do'stg'a jon berdimu dushmandur emdi vah, ne tong,
O'rtasa ham do'stu, ham dushmanni ohu shevanim.

Ey Navoiy, do'st xud yo'q, vah, ne holatdurki, bor
Boshim uzra dushman ikki diydayi tardomanim².



¹ T a v a q q u' — ko'z tutish, umid bilan qarash; ² t a r d o m a n — yuzi qora.

* * *

Tutqali shirin labin shoxi shakardur barmog'im,
Baski so'rmoqdin oni ayrilg'udektur tirnog'im.

Istaram ko'r aylagay nazzora ahlin rashkdin,
Gar sabo tahrikidin ko'yiga borsa tufrog'im.

Vasli bay'ig'a¹ to'kub el siymu², men yordim yurak,
Komima mushkilki yetgaymen bu bo'lsa yormog'im³.

Barq emaskim, o't chaqarmen dahrni kuydurgali,
Tog' ila bo'lmish yangi oy chunki toshu chaqmog'im.

Ishq aro Farhod ila Majnun sherigimdur, valek
Dardu g'am chekmakta mencha yo'q bu ikki o'rtog'im.

Dema maxmur o'lsang o'zni solmag'il, ey mug'bacha,
Istaram bo'lg'ay fano dayrida o'zni solmog'im.

Ey Navoiy, dema umrung o'tti, ishqu maydin o't,
To tirikmen ermas ushbu ikki ish aylar chog'im.

¹ B a y' — savdo; ² s i y m — kumush; ³ y o r m o q — tanga, pul.

* * *

Ey pari, rahm etki ko'nglum zor erur, bechora ham,
Ishqu savdo dashtida Majnun erur, ovora ham.

Tandag'i paykonlaru ashkim yorutmas uynikim,
Dudi ohimdin qorormish sobitu¹ sayyora² ham.

Zaxmi ko'p bag'rimni tikmak mumkin ermas, ey rafiq,
Kim erur yuz porayu majruh erur har pora ham.

Vasli iqboliyu men?! Hayhotkim, ruxsorini —
Toqatim yo'qtur yiroqtin qilg'ali nazzora ham.

Uyla su qildi balo ko'hsorini ohim o'ti,
Kim olib ko'ksumga urg'uncha topilmas xora ham.

Charx makru fitnasidin g'ofil o'lmang zinhor,
Chunki bu shohid base fatton erur, makkora ham.

Telbarab ittim Navoiydek junun sahrosida,
Qilmadi yodimni hargiz bir pari ruxsora ham.

¹ S o b i t — turg'un, harakatsiz yulduz; ² s a y y o r a —
harakatlanuvchi.

* * *

Ul quyosh yuzlukni har tun yod qilmoqdur ishim,
O'z-o'zumga to sahar bedod qilmoqdur ishim.

Baski faryod aylamakdin har dam o'zdin boribon,
Holima kelgach yana faryod qilmoqdur ishim.

Telbalardek har dam aytib ul pari afsonasin,
Topmayin maqta'¹, yana bunyod qilmoqdur ishim.

Ashk etib sabrin uyin vayronu, har dam oh ila,
Ul buzug'ning tufrog'in barbod qilmog'dur ishim.

Naxli qaddin chun xayol aylab qo'yub tufroqqa bosh,
Sajdai ul sarvi hurizod qilmoqdur ishim.

Hajru shavqu charx muhlik zulmi ichra har nafas
O'zni yuz bedod ila mo'tod² qilmoqdur ishim.

G'amdin o'lmaslikka boisdur muhol andishakim,
Vasl umidi birla o'zni shod qilmoqdur ishim.

Vahki, yer tutmas necha har lahza shaydo ko'ngluma
Sabru toqat shevasin irshod³ qilmoqdur ishim.

Yig'lasam taskin topar ko'nglum, Navoiy, voykim,
Ul buzug'ni sel ila obod qilmoqdur ishim.

¹ M a q t a' — boshlanish joyi; ² m u' t o d — odatlangan, o'rganib qolgan; ³ i r s h o d — yo'l boshlamoq.

* * *

Qon yutub umre jahon ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.

Kimgakim jonim fido aylab sog'indim, yor erur,
Ermas erdi yorlig'da chun vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo'qturur mutlaq vafo,
Vahki, umri ulcha yo'qtur sog'inib bor istadim.

Ulki topilmas bashar jinsida, vah, g'aflat ko'rung,
Kim pari xaylida men devonai zor istadim.

Sirri ishqimni ko'ngul ko'z birla fosh etmak ne tong,
Qalbu tardomanni¹ chun men sohibasror istadim.

Shayx birla xonaqahdin chun yorug'luq topmadim,
Dayr piri xizmatig'a ko'yi xammor istadim.

Ey Navoiy, chun rafiqe topmadim, bu g'ussadin,
O'zni bekaslik² balosig'a giriftor istadim.

¹T a r d o m a n — gunohkor; ²b e k a s l i k — kimsasizlik, yolg'izlik.

* * *

Labing hayot suyidin zilol emish bildim,
Zilol nuqtasi ustida xol emish bildim.

Uchuq labingda emas, reza¹ inju la'l uzra,
Ki bargi gul uza bir qatra bol emish, bildim.

Qadimki xam bo'lub og'zing xayolidin itti,
Adam ichinda hamonoki, dol emish, bildim.

Qoshingda xolning ovozasin eshitmish edim,
Bu Ka'ba toqiyu ul bir hilol emish, bildim.

Yuzungni bilmas edim zulf aro chu qildi tulu',
G'arib axtari farxunda² fol emish, bildim.

Dani tajammulu³ ozodaning falokatidin
Zamon tabiati be'etidol⁴ emish, bildim.

Firoq shomida so'rdum Navoiy ahvolin,
Soching xayolida oshiftahol emish, bildim.



¹ R e z a — mayda, ushoq; ² f a r x u n d a — baxtli; ³ t a j a m m u l — dabdaba; ⁴ b e' e t i d o l — mo'tadil, o'rtacha emas.

* * *

Chun o'larmen bir nafas ul dilraboni ko'rmasam,
Ne hayot imkoni bo'lg'ay bir dam oni ko'rmasam.

Ko'nglum ichra topilur g'am novakidin yuz nishon,
O'qidin har kun tanimda yuz nishoni ko'rmasam.

Ko'ngul itti ko'zni dog'i istaram ashk etsa ko'r
Kim, tilarmen hargiz ul yuzi qaroni ko'rmasam.

Sog'inurmen kufri zulfi mojarosidin base
Gar dame ul sho'xi kofir mojaroni ko'rmasam.

Kim vafo gulchehralardin ko'rdikim, men ko'rgamen,
Bo'lmas ushbu ayb ila ul bevafoni ko'rmasam.

Har biri yuz minnat aylarlar erur bu ham jafu,
Olam ahlidin ne kunkim yuz jafoni ko'rmasam.

Ey Navoiy, ne balodurkim, o'larmen qayg'udin,
Gar dame ollimda ul sho'xi baloni ko'rmasam.



Meni bedil sanga jon o'ynamoq birla yaraydurmen,
Bale, sen tiflni bu tuhfa birla arg'adaydurmen¹.

Labing ko'rgach, iligim tishlaram har dam tahayyurdin²,
Ajab holatki, bolni tutmayin, barmoq yalaydurmen.

Dedim: "Ko'nglurga har yondin xadangning³ nedurur, yoro?"
"Muhabbat o'tig'a, — dedi, — o'tundurkim qalaydurmen".

Chu ahli dard uchun payvasta⁴ qosh yosini tortibsen,
Manga-o'q novakngni xush kushod etkim, qulaydurmen.

Anga aytur so'zum ko'p, ohkim, ul husn mir'oti⁵
Chu qildi jilva, ko'zgu aksi yanglig' aldaydurmen⁶.

Magar eltur parilar, ey fusungar, telba ko'nglumni,
Ki turmaydur, nechakim jismim uyinda qabaydurmen.

Navoiy telbarab to ul pari ko'yiga yuzlanmish,
Eshiturmen fig'on, lekin hadisni anglamaydurmen.



¹ A r g' a d a m o q — aldamoq; ² t a h a y y u r — hayronlik;
³ x a d a n g — o'q; ⁴ p a y v a s t a — tutash; ⁵ m i r' o t — ko'zgu;
⁶ a l d a r a m o q — sarosimaga tushmoq.

Yonida bo'lmasam nafase, dardnokmen,
Ko'rsam yonida g'ayr, xud ul dam halokmen.

Jonimg'a yuz g'am ignasini tikti ul Masih,
To bildikim, quyosh kibi ishqida pokmen.

Vasling taxayyuliyu¹ men, insofdin emas
Kim, ruhi pok sensenu men tiyra xokmen.

Vahm ayla, ey sipehr, bugun ohim o'qidin,
Kim hajr dardidin yana bevahmu bokmen.

Juz vasl sharbati manga sud etmas, ey tabib,
Kim men firoq mehnatidin dardnokmen.

Zotimda chun mayi azaliy choshnisi² bor,
Har sori mast qo'l solib andoqki tokmen.

Ohim, Navoiyo, nechuk asray ko'ngul aro,
Chun men firoq tig'i bila siyna chokmen.



¹ T a x a y y u l — xayol qilmoq; ² ch o s h n i — maza, ta'm.

* * *

Sensizin, ey umr, bir soat manga jon bo'lmasun,
Sen bo'lu bas, to'biyu firdavsu rizvon bo'lmasun.

Deb emishsen, kuyduray bir dog' ila ko'nglin aning,
Har nechuk dog' o'lsa o'lsun, dog'i hijron bo'lmasun.

Qoshig'a qilg'ach sujud¹, o'lturdi ul kofir meni,
Hech musulmon yori, yo Rab, nomusulmon bo'lmasun.

Ishqida jonim uqubatlar bila ol, ey ajal,
To aning oshiqlig'i hech kimga oson bo'lmasun.

Ul pari ko'nglurnda mehmon bo'lmish, ey jon, voqif o'l,
Oh o'ti dud etmasun, zaxm ichra paykon bo'lmasun.

Ey ko'ngul, maste chiqib shahr ichra solmish rustaxez²,
Vah, xabar tutkim, bizing beboki nodon bo'lmasun.

Dedikim, jon ber, dog'i o'pgil ayog'im tufrog'in,
Ey Navoiy, tezrak bo'lkim, pushaymon bo'lmasun.

¹ S u j u d — egilmoq, sajda qilmoq; ² r u s t a x e z — ag'dar-to'ntar.

* * *

G'amingda har kecha, ey gul'uzor¹, yig'larmen,
Saharg'a tegru chekib intizor yig'larmen.

Menu qaro kecha, yo'q nisbatim sanga, ey subh,
Ki sen kularsenu men sham'vor² yig'larmen.

Burung'i mehru vafo, so'ngg'i javru zulmungni
Birin-birin sog'inib, zor-zor yig'larmen.

Kularlar el manga beixtiyorkim, har dam
Eshitsam otini, beixtiyor yig'larmen.

Mungaydi³ ko'nglum aningdek, hazl nag'masidin
Ki elga kulgu etar, oshkor yig'larmen.

Kular sipehri daniy⁴ iztirobig'a ko'nglum,
Valek o'zumda ko'rub iztiror yig'larmen.

Navoiy, ashkim oqizg'ay g'amim tunin mundog',
Ki charxdek kecha tutmay qaror, yig'larmen.



¹ Gul'uzor — gulchehra; ² sham'vor — shamga o'xshab;
³ Mung'almoq — qayg'uga tushmoq; ⁴ sipehri daniy — tuban osmon.

* * *

Falak sitezasidin¹ bo'lma, soqiyo, mahzun,
Qadah keturki, erur besabot olami dun.

Manga tama' karam ahlidin o'ldi may vajhi,
Yo'q ersa, yer quyi ul ganj kim yig'ar Qorun.

Muraqqa² uzra diram³ kibi vuslalar⁴ ne osig',
Ki bir diramg'a chog'ir uchun o'lmag'ay marhun⁵.

Bu shukr uchun gahi, ey sho'x, ber nazrki, xudoy
Seni azizu sharif etti, bizni xoru zabun⁶.

Yema bu lavhayi miyno ramuzi hallig'a g'am⁷,
May ichki, topmadi hech kim bu safhag'a mazmun.

Xumor jonima qasd etti, soqiyo, may ber,
Ki jong'a solsa bir o'tkim, boshimg'a chiqsa tutun.

Navoiy nazmidurur yaxshi gar quloq solsang,
Tarannumeki qilur o'zi birla ahli junun.

¹ Siteza — achchiq-tiziq; ² muraqqa' — yamalgan; ³ diram — tanga; ⁴ vusla — yamaq; ⁵ marhun — garovga qo'yilgan; ⁶ zabun — xarob, nochor; ⁷ Mazmun i: Bu ko'k lavha imo-ishoralarini hal qilaman deb g'am yemagin.

* * *

Do'stlar, bir chora men devonaye shaydo uchun,
Kim o'larmen ul paripaykar malaksiymo uchun.

Otashin gul tegrasida la'lgun yuz barg emas,
Balki yuz na'l o'tqa solmish bulbuli shaydo uchun.


Xom ko'nglumkim, dudog'ingni tilab afg'on qilur,
Bor durur ul tifldekkim yig'lag'ay halvo uchun.

Ashk ichinda g'arqamen zulfungni tutqaymenmu deb,
Uylakim tojir¹ tengiz ranjin chekar savdo uchun.

Turki mastedur ko'zung uyquda, ko'z kunjida xol
O'g'rikim qilmish kamin yonida qo'yg'on yo uchun.

Gulxaniydekdurki, istar gulxanu olotini,
Siflakim² mehnat chekar dunyovu mofiho³ uchun.

Bu Navoiy bandani, ey sarv, ozod asrakim,
Buyla bir bulbul kerak sendek guli ra'no uchun.



¹Tojir — savdogar; ²sifla — pastkash; ³dunyovu mofiho — dunyo va unda bor narsalar.

* * *

Yoridin hech kim meningdek zoru mahjur¹ o'lmasun,
Jumlayi olamda rasvoliqqa mashhur o'lmasun.

Men bo'lay ovora to ishqimdin aylab guftugo'y,
Oti oning har kishi og'zig'a mazkur o'lmasun.

Jonima bedodu zulmin, yo rab, ul miqdor qil,
Kim aning oshiqlig'i har kimga maqdur² o'lmasun.

Men xud o'ldum, lek har oshiqki erur pokboz,
Navha³ tortib motamim tutmoqda ma'zur⁴ o'lmasun.

Pand ila ko'nglum uyin qilma imorat, ey rafiq,
Bizni buzdi, hargiz ul, yo Rabki, ma'mur o'lmasun.

Kechalar ul gul chekar ermish qadah, ey tong yeli,
Voqif o'l, holimni aytur chog'da maxmur o'lmasun.

Yor vaslig'a quvondim, qovdi ko'yidin meni,
Ey Navoiy, hech kishi davlatg'a mag'rur o'lmasun.



¹ M a h j u r — ayrilgan; ² m a q d u r — belgilangan, oldindan ko'zda tutilgan; ³ n a v h o — nola; ⁴ m a ' z u r — uzrli bo'lmoq.

* * *

Lablaring sharbatini chashmayi hayvonmu deyin?
Demasam chashmayi hayvon, ne deyin, jonmu deyin?

Tun-kunumkim yorug' ul yuzdin erur, vahki, ani
Mohi anvarmu¹ deyin, mehri duraxshonmu² deyin?

Kulubon jilva qilur chog'da qadu og'zin aning
Sarvi ra'nomu deyin, g'unchayi xandonmu deyin?

G'amzayi qotil ila kofiri xunrez³ ko'zin
Dushmani jonmu atay, ofati imonmu deyin?

Ishq dardini desam sa'b⁴, meni ayb etmang,
Ishki ming mushkil erur, zimnida osonmu deyin?

Aql agar ishq o'tidin qochsa, nechuk man' qilay,
Shu'ladin sa'y⁵ qilib chiqsa birav, yonmu deyin?

Ichmagim zohid agar bildi, Navoiy, naylay,
So'rsa so'z uyla kishi ollida yolg'onmu deyin?

¹ Mohi anvar — nurli oy; ² mehri duraxshon — porloq
guyosh; ³ xunrez — qon to'kuvchi; ⁴ sa'b — qattiq; ⁵ sa'y —
harakat; intilish.

* * *

Ishq ahli sotqun olsa izing to'tiyosidin,
Qilg'il tarozu ikki ko'zumning qarosidin.

Qoshingki juzv¹ — juzvida bor qavs² hay'ati,
O'q yog'durug'a jong'a otar barcha yosidin.

Ko'rmak tilar yuzungni ko'ngul, kosh itlaring
Yonimni qilsa to'ma so'ngaklar arosidin.

Ey noz sham'i, kokulung ermaski, dud erur,
Kim zohir o'ldi shu'layi husnuning ziyosidin.

Ko'r, o'lturur habib muroding'a yetmayin,
Istay desam hayot Masiho davosidin.

Mendek qul o'lg'ay elga qo'yub tengri qullug'in,
Mingdin bir ermas emgagim³ oning sazosisdin⁴.

Dam urma bu chamanda, Navoiyki, bir gule
Bilmas zag'an fig'onini bulbul navosidin.



¹ J u z v — bo'lak, parcha; ² q a v s — yoy, kamon; ³ e m g a k — mashaqqat; ⁴ s a z o — jazo.

* * *

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dardi balosinmu deyin?!

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat¹ ichra ruxsori safosinmu deyin?!


Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu² deyin,
Bu qatiq dard aro vaslining davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,
Birining qaddin, yana birning adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Moviy ko'nglak uzra gulrangi qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu³ deyin,
Jonima har birining javru jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qoshu ko'zining vasfini, ayt
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?!



¹ K u d u r a t — tashvishlar; ² n a b a r d — jang, urush;
³ s h i k a n j — qiynoq.

* * *

Bir parivashkim ko'ngul devonadur savdosidin,
Gar erur bandangki, ozod o'lmon istig'nosidin.

Oshiq o'lsa shohu ma'shuqi gado bilkim, chekar
Ishq g'avg'osi ani xaylu sipah g'avg'osidin.

Oshiq o'lg'on ajdaho bo'lsa zabun bo'lmoq kerak,
Javr tortib ishq ko'yi mo'ringiz iyzosidin.

Ne havoyidur havoyi ishqkim, har pashshasi
To'ma¹ aylar aqlu taqvo Qofining Anqosidin.

Ishq aro shohu gado tengdur, gado balkim fuzun,
Gar gadolig' aylar o'lsa ishqning yag'mosidin².

Kimki ra'noliq bila oshiq bo'lub istar visol,
Tortingiz otig'a xat ishq ahlining asmosidin³.

Ishq atvori Navoiyg'a musallamdurkim⁴, ul
Yuz balo chekti dog'i o'ldi aning ixfosidin⁵.



¹ T u ' m a — ozuqa; ² y a g' m o — talon-taroj; ³ a s m o — ismlar;
⁴ m u s a l l a m — taslim bo'lgan, ma'qullagan; ⁵ i x f o — yashirin.



Ikki gul bir kecha kulbamni guliston aylabon,
Oldilar jonimni bedod ulcha imkon aylabon.

Biri bo'rkin sindurub, jonlar safin sindurg'ali
Aqlu din mulkin safi mujgoni vayron aylabon.

Biri bir necha hilolin egri bog'lab noz ila,
Anjumu aflokni husnig'a hayron aylabon.

Biri xatti sabzasidin gulga aylab hoshiya,
Bazmni ul sabzayu gul bog'i rizvon aylabon.

Biri olam ahlining ko'ngli qushin sayd etgali
Sunbuli domini gul uzra parishon aylabon.

Biri qoshu kirpigidek o'q bila yo ilgida.
Lek ul yo birla o'q jonlarni qurbon aylabon.

Biri vo'sma birla surma rangidin ko'k toqini
Ofatangizu qaro nargisni fatton aylabon.

Biri bog'lab bargnay to'n uzra minorang qo'r,
Naxli qaddin g'ayrati sarvi xiromon aylabon.

Biri gulgun to'ng'a sarig' ostardin zeb etib,
Sarvi ra'nosin guli ra'noda pinhon aylabon.

Mastlig'din ul qilib ilgida dog'in oshkor,
Sho'xlug'din jong'a bu yuz dog'i hirmon aylabon.

Zulm ila ul o'lturub, bu lutfi birla tirguzub,
Gar bu qilsa zulm ul ham lufu ehson aylabon.

Men agar boqsam bu yon tig' urub oning ishvasi,
Boqsam ul yon g'amzadin bu tiyrboron aylabon.

Ey Navoiy, bu fasonang yo tush ermish, yo xayol,
Necha lof urmoq o'zungga muncha bo'hton aylabon.

* * *

Oshiq o'ldum necha javr ahli zamondin tortayin,
Ulki oshubi zamondur¹ bori ondin tortayin.

Yor ila ag'yor zulmi haddin o'tti, vah, necha
Vasl uchun javru jafo yaxshi-yomondin tortayin.

Hajr girdobidadur ko'nglum kamandi, vasl ber
Kim, solib ani bu bahri bekarondin tortayin.

Sen tana'um gulbunidin uz farog'at g'unchasi,
Men balo paykoni jismi notavondin tortayin.

Borg'ali ko'yida egnimdin chiqar go'yo qanot,
Javridin desam ayoq ul ostondin tortayin.

Mehmonim bo'lsang o'llingda havodis² tuhfasi
Nesh tandin, o'q ko'nguldin, nola jondin tortayin.

Ey Navoiy, necha qilg'aylar etakdek poymol,
Men dog'i emdi etak ahli jahondin tortayin.



¹ Oshubi zamoni — zamonga g'avg'o, g'ulg'ula soluvchi;

² havodis — hodisalar.

Chehra yopting xasta jonimni anga zor aylabon,
Zulf yig'ding telba ko'nglumni giriftor aylabon.

Gar muroding qatl esa jon topshuray olg'il ravon,
Rahm etib o'lturma yillar hajringga zor aylabon.

Dema javridin agar ul qochsa kimga javr etay,
Kim qocharg'a azm¹ qilg'umdur xabardor aylabon.

So'zki la'lingdin eshitsam uylakim obi hayot
Qonmon, ey jon, to tirikmen ani takror aylabon.

Dema Majnun ul pari hajrida menmen dasht uza,
Nola chekkan tosh ila ko'ksumni afgor aylabon.

Faqr ko'yida gadolig' garchi faxrimdur valek,
Saltanat arz etsalar mayl aylamon or aylabon.

Ko'yi azmida Navoiyg'a navo yetsa ne tong,
Kim qilur bulbul navo ohangi gulzor aylabon.



¹ A z m — niyat, maqsad.

* * *

El g'amimdin kuymasun deb nolayi zor aylamon,
Dardu holimdin mingidin birni izhor aylamon.

Yo'qsa yo'qtur hech soatkim fig'oni zor ila
Yuz tuman ming bag'ri toshning ko'nglini zor aylamon.


Turfa bu kim tortibon yuz muncha do'zax sho'lası,
Yor ko'nglin bu haroratdin xabardor aylamon.

Turfaroq bukim fig'onimdin uyumay¹ dahr eli,
Uyquluq baxtim ko'zin har lahza bedor aylamon.

Ishq aro men o'zga, Farhod o'zgadur, ey do'stlar,
Teshai g'am birla men tog' bag'rin afgor aylamon.

Soqiyo, andoq sabuh² istar ko'ngulkim, bersa dast
To qiyomat subhi andin o'zni hushyor aylamon.

Ey Navoiy, sudrab eltur boda birla mug'bacha,
Ixtiyorim birla azmi ko'yi xammor aylamon.



¹ U y u m a y — uxlamay; ² s a b u h — ertalabki ichish.



Qomatingdek bog'i husn ichra yo'q sarvi ravon,
Orazingdek xud qani sarv uzra arg'uvon.

Siymi soid¹ ko'rguzub ko'nglum oldi ul quyosh,
Kuchluk aning panjasi, men bag'oyat notavon.

G'am yukidin men kibi qadi xam bo'lmoq ne tong,
Har qarikim dilbari bo'lg'ay aning navjuvon.

To qaroqchi ko'zlaring din yo'lini urdilar,
Zuhdu taqvo mulkidin kelmadi bir korvon.

Naqdi jon istasa meni qiynasa kofir ko'zung,
Netgamen har yonkim ul turk mastidur avon².

Dahr elidin zinhorkim vafo qilma tama'
Kim, tama'din kimsaga yuzlanur doim havon³.

Ey Navoiy, go'yiyo kelgusidur yorkim,
O'trusig'a ko'z yoshing turmayin bo'ldi ravon⁴.



¹ Siymi soid — kumush bilak; ² avon — posbon, mirshab, soqchi; ³ havon — xorlik, tubanlik; ⁴ ravon — boruvchi, ketuvchi.

* * *

Xatingkim mehr uza chekti savodin,
Xamono mushkdin qilmish midodin¹.

Sochingda chun girihdin o'zga yo'qtur,
Ne nav' andin tilay ko'nglum kushodin².


Ajaldin yo'q malolim mundin o'zga
Ki, qobiz qo'ymag'ay qilmoqqa yodin.

Bo'lur ko'nglum uyidin xayr barbod,
Qachonkim fikr qilsam xayrbodin.

Murodi gar emas dilbar murodi,
Illohiy bermagil oshiq murodin.

Salohin gar ko'rar zuhd ichra zohid,
Riyoju ujb³din ko'rmas fasodin.

Navoiy topmasa yuz qatla o'lgay
Ising bir qatla har soat sabodin.



¹ M i d o d — siyoh; ² k u s h o d — yechim; ³ r i y o y u u j b — yolg'onchilik va ichki g'urur.



Yuzungda may guli yo gul ochilg'on bo'stondur bu,
Gulungda qatra xay¹ bo'stondag'i suvdin nishondur bu.

Ko'zumda qatra qonlar bog'lag'on ermas hamonokim,
Nazar bog'ida shavqungdin ochilg'on arg'uvondur² bu.

Emas vasling tilab uchqon ko'zum atrofida kirpik,
Kim ul daryoyi qushlarga qamishdin oshyondur bu.

Ko'nguldin chiqqon ohim aylar afzun³ xalq savdosin,
Ki shaydoliq diyoridin yetishgan karvondur bu.

Qizil ranglar ko'zumda ko'rgan anglar ashk selinkim,
Oqarg'a kelgan ul yo'llar bila har sori qondur bu.

Labindin xastadur ko'nglum, dam ochmay, ey Masih, o'tkim,
Ilojin yuz seningdekning begonmas notavondur bu.

Quyundek dasht aro ko'rsang meni, ko'p qochmakim, har dam
Boshingga evrulur sargashtayi bexonumondur bu.

Ko'ngul mayxona romi, xotirim xush may batidinkim⁴,
Munga ruhul-amindur⁵ ul, anga dorul-amondur bu.

Dema, hijron tuni har dam yetar ul oyg'a faryodim,
Ul oy faryodingga yetmas, Navoiy, ne fig'ondur bu?!

¹ X a y — yuzdagi ter tomchisi; ² a r g' u v o n — qizil gul; ³ a f z u n — ko'proq; ⁴ m a y b a t i — may idishi; ⁵ r u h u l a m i n — Jabrail.



• Belingu zulfung xayolin sharh etarmen mo‘-bamo‘¹,
Tashnadurmen la‘lingga to bordurur jonimda su.

Orzu aylar labing ollinda jon bermakni Xizr,
Xizr suyidin o‘luk umr aylagandek orzu.

Sharbati la‘ling qo‘yub no‘sh aylagan hayvon suyi
Bo‘lg‘ay andoqkim qo‘yub hayvon suyini, ichgay og‘u.

Sunbulingni qilg‘ali oshufta yo‘l topmas nasim,
Baski atrofidadur shaydo ko‘ngullardin g‘ulu².

Terlagan yuz qatrasidinkim yuzum qonin yudung,
Vah, ne deykim, ishq aro toptim ne yanglig‘ obro‘.

Ko‘nglaking lavnidin³ o‘ldum, atridin toptim hayot,
Qaysi gul barginda bor erkin bu yanglig‘ rangi bo‘?

Ey Navoiy, yor sarvaqtangg‘a⁴ yetmak istasang,
Ohu ashkingdin supur vaqting harimin⁵, balki yu (v).



¹ M o ‘ - b a m o ‘ — ipidan ignasigacha, miridan-sirigacha; ² g ‘ u l u — shovqun; ³ l a v n — rang, tus; ⁴ s a r v a q t — yo‘qlov; ⁵ h a r i m — ichki hovli.



Ko'p qochar yor, oni ko'p qilsam meni zor orzu,
Anda bisyor ijtinobu menda bisyor orzu.

Kufri zulfi orzusidin berurmen naqdi din,
Kim ko'rubtur, ey musulmonlar, bu miqdor orzu?!

To ko'zung ayni tanosidin menga qilg'ay nazar,
Kechayu kunduz qilurmen o'zni bemor orzu.

Chun erur har tori zulfung rishtai jon, bas ne tong,
Jon qushin ul dom aro qilsam giriftor orzu.

Jannat o'lsa maskanim ko'yung tilarman uylakim,
Do'zax ahli aylagay jannatqa izhor orzu.

Bog' tavfidin g'araz andoqki, bo'lg'ay sarvu gul,
Bizga ko'yung ichra bor ul qaddu ruxsor orzu.

Soqiyo, aylar xumorim qasdi jon qilsam ne ayb,
Xasta jonimni muqimi ko'yi xammor orzu.

Kundai do'zaxdurur bu ravzada har bargi shox,
Aylaram savsan kibi o'zni sabukbor orzu.

Andin o'ldum ozimi dayri fano, ey mug'bacha,
Kim qilibmen halqai zulfungni zunnor orzu.

Zohido, boshtin-ayog'ing zarg erur qo'y pandkim,
Besarupolarg'a bo'lmas kafshu dastor orzu.

Orzu aylar Navoiy ko'yung ichra orazing,
Zor bulbul aylagandek bog'u gulzor orzu.

* * *

To tushta yuzin ko'rdum bo'lmish menga kom uyqu,
Lekin g'amidin bo'lmish ko'nglumga harom uyqu.

Ko'nglim ne uchun yetgach zulfungg'a bo'lur behud,
Ma'hud¹ emas elga chun avvali shom uyqu.

El ko'zlaridin ul ko'z uyquni tamom olmish,
Bu ishdin ekin oxirkim, bo'ldi tamom uyqu.

Chun sayli sirishkimdin ko'zning qarosi bormish,
Ne nav' tuta olg'ay ul yerda maqom uyqu.

Yo tushta ko'ray oni, yo g'ayrini ko'rmay deb,
Ko'z ochmayin istarmen hajrinda mudom uyqu.

Bu marhalada² solik³ ko'z yumsa qolur yo'ldin,
Yo'l ahli qachon aylar aylarda xirom uyqu.

Uyqusi Navoiyning gar o'chti ajab ermas,
To dona sirishk o'lg'ay bo'lmas anga rom uyqu.



¹ M a ' h u d — odat; ² m a r h a l a — manzil, to'xtash joyi;
³ s o l i k — yo'lchi.

* * *

Yuzung bayozida¹ ul xoli mushkso² hindu,
G'arib tushti Xo'tan³ kishvari⁴ aro hindu.

Ne hol erurki ko'ngulni rabuda⁵ aylab olur,
Kishi bu nav' qachon ko'rdi dilrabo hindu.

Qaro ko'zungki vafo aynidin⁶ menga boqmas,
Ajab emastur agar bo'lsa bevafo hindu.

Tutub quyosh uza maskan solur jahong'a balo,
Yuz uzra xoling erur voqean balo hindu.

Ko'nglumni olsa malohat bila tafovuti yo'q
Xitoy o'lsunu yo armani va yo hindu.

Teng o'ldi bulbulu zog' ushbu bog' aro, ya'ni
Fasohat⁷ ichrayu kachcha yuzi qaro hindu.

Navoiy etti o'zin uyla turk hindusi,
Ki ahli Chinu Xito bo'ldilar anga hindu.



¹ Bayoz — oq, toza; ² xoli mushkso — qora xol; ³ Xo'tan — Sharqiy Turkistondagi joy; ⁴ kishvar — o'lka, mamlakat; ⁵ rabuda — tortmoq, o'ziga jalb qilmoq; ⁶ ayn — oina; ⁷ fasohat — so'zning ochiq, ravshan, yoqimli bo'lishi.

* * *

Agar oshiq etsa visol orzu,
Ayon etmish o'lg'ay mahol orzu.

Anga baski qilg'ay agar bersa dast,
Yiroqtin ko'rarg'a jamol orzu.

Ko'rub og'zin istarmen ul chehrani
Suvsiz aylagandek zilol orzu.

Suv g'a, yo'qsa ko'zguga solg'il nazar,
Ki etsang o'zungga misol orzu.

Ham oshifta, ham tiyradur bo'lg'ali
Zamirimg'a¹ ul zulfu xol orzu.

Quyoshdek manozil tay etmak kerak,
Ne rahki qilg'ali kamol orzu.

Navoiy tilar iyd² shomi qoshing,
Ulus aylagandek hilol orzu.

¹ Z a m i r — dil, ko'ngil; ² i y d — hayit, bayram.

* * *

Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo'stonig'a,
Barq erur har yel uchurg'on bargi bulbul jonig'a.

Garchi sham' o'ldi shabiston zebi, ko'rkim, shu'ladin
Til chiqarmishtur susab parvonalarining qonig'a.

Mayki quyg'ay soqiyi gulrux, erur hayvon suyi,
Vahki, ofat selidur ishq ahli xonumonig'a.

Nay yelin Iso dami tutqilki, ul bordur samum¹
Har nafas ahli muhabbat xotiri vayronig'a.

Bir qadah may ichmadi bu dayr ahli bexumor,
To taharruk² bo'ldi bu tosi nigun³ davronig'a.

Boda beranji xumor erur fano jomida, lek
Ichmak oni kelmamish har bulhavasning⁴ shonig'a.

Hasrat o'lturdi meni, ey mug', ketur jomi fano,
Kim chiday olmon bugundin so'ng oning hijronig'a.

Bo'lmayin foniy, muhabbat jomin ichmakdur mahol,
Sabt eting⁵ bu nuktani dayri fano ayvonig'a.

Kom topmay kimki hirmon dardig'a bo'lmish asir,
Istasa hamdard, o'lturtung Navoiy yonig'a.

¹ S a m u m — garmse; ² t a h a r r u k — harakatlanmoq; ³ t o s i
n i g u n — osmon, ko'k; ⁴ b u l h a v a s — yuzaki oshiq, yengiltak;
⁵ s a b t e t i n g — yozing, o'rnatish.

* * *

Yonida el ko'rsam, o'q sanchilmasunmu jonima,
Menki g'ayratdin ravo ko'rmon ani o'z yonima.

Zaxmliq jonimki ishq i o'tidin xursand erur,
O't emas ul marhamedurkim, yoqibtur jonima.

Vaslig'a ko'z mahram ermastur, netib mahram bo'lur
Ikki tardomanki, tonug'luq berurlar qonima?

Chun yetar ul oyg'a afg'onim, erur bu dam-badam
Kim chiqib jon dog'i hamrah bo'lg'usi afg'onima.

Aqlu jondin ishqida begona bo'ldung, ey ko'ngul,
Ket xudoy uchun, bugundin so'ng meni ham tonima.

Tan evin¹ dard o'qi ko'p zaxm etti, ammo shukrkim,
Kirmadi noshukrlug' selobi bu vayronima.

Ey Navoiy, kuldi ul gul ashkima, bo'lmay xalos
Yig'lamoqdin, kom² agar budur guli xandonima.

¹ E v — uy; ² k o m — maqsad.


Anbari tar¹ istamon yuz uzra xoling borida,
Kam ko'runur yangi oy mushkin hiloling borida.

Siymi ashkim itlaringning yo'lida sarf aylaram,
Chun demishturlarki: qozg'on² do'st moling borida.

Chashmayi hayvondin, ey jonim, suv ichmaydur ko'ngul,
Xizrvash xatting aro shirin ziloling borida.

Chun vafo qilmas kishiga oqibat davroni husn,
Bas g'animat bil vafo qilmoq jamoling borida.

Degasen, miskin Navoiy nolasin bulbul kibi,
Ey sabo, ul gul harimig'a majoling borida.



¹ T a r — toza; ² q o z g' o n — qozon.

* * *

Yo Rab, ul yuzni dame ko'zumga pinhon aylama,
Yo ko'zumni ondindin o'zga yuzga hayron aylama.

Chehrasig'a mezbond o'lsun ko'zum, ul chehrani
Ko'zlarim uyiddin o'zga uyga mehmon aylama.

Ochmayin zulfin, parishon ko'ngluma chekturma oh,
Yetmayin ohim yeli, zulfin parishon aylama.

Jonima la'liddin o'zga la'ldin berma hayot,
La'lig'a jonimdin o'zga jonni qurbon aylama.

Boshima ko'yiddin¹ o'zga ko'yni qilma vatan,
Ko'yida boshimdin o'zga boshni g'alton² aylama.

Ey ko'ngul, davr ahliddin ming yilchiliq yo'l go'sha tut³,
Yo alardindin yetsa yuz ming g'ussa, afg'on aylama.

Istasang, ey gul, Navoiydek xushilhon⁴ bulbule,
G'unchadek ko'nglin malomat xoriddin qon aylama.



¹ Ko'y — ko'cha; ² g'alton — yumalanuvchi; ³ go'sha tutmoq — chetlanmoq; ⁴ xushilhon — yoqimli kuylaydigan.

* * *

Boda tut, soqiyki, ayyomi visol o'ldi yana,
Dast berdi shodlig', g'am poymol o'ldi yana.

May mudom ich ul labi maygun sanam davrindakim,
Zuhd ila taqvo' haromu may halol o'ldi yana.

G'amza birla ko'zlari ayni balo bo'lg'on uchun,
Ushbu ma'nig'a parishon zulfi dol o'ldi yana.

Xo'blar ko'yiga sayr aylay borib erdi ko'ngul,
Kech kelurda anga, bilmon, kim zavol o'ldi yana?

To labi jonbaxshidin topti Navoiy komi dil,
Ey ajal, o'lmak anga asru mahol o'ldi yana.



¹ Z u h d i l a t a q v o — dunyodan chekinish, taqvodorlik.



Nasihat ahli manga derki: “Mayni tark et”, vah,
Ilik olib kelur, og‘iz ichar, manga ne gunah?

Manga may ichmak emas o‘zlugimdin, ey nosih,
Bu ishga chang¹ qadi dolu shohid o‘ldi guvah.


Qilur jununu qadah man‘ini manga zohid,
Degaynu telbaga bu so‘zni bo‘lmasa ablah?!

Qadah charog‘ini ollimg‘a tutqil, ey soqiy,
Ki zuhd zulmatida asru bo‘lmisham gumrah².

Bu sham‘ birla xarobot sori boshla meni,
Ki tiyra zuhd tuni ichra o‘lmayin nogah.

Boshimni piri xarobot dargahida qo‘yay,
Ki bor eshigida shohu gado gado bila shah.

Navoiy aytur emish dayr aro sanam zikrin,
Bu ism zikriga kim qilsa mayl bismillah.



¹ Ch a n g — changal, panja; ² g u m r a h — adashgan.

* * *

To ko'rubon yuzin quyosh qolg'ali ishtiyoqig'a
Goh boshig'a evrulur, goh tushar ayoqig'a.

Qoshida xoli hinduyiy kofir erurki, ahli din
Qatli uchun chiqibdurur ko'z sola dayr toqig'a.

Dardu balovu g'ussani ko'nglum aro keturdi ishq,
Do'stlarin birav kibikim tilagay visoqig'a¹.

Vasl meni chu o'lturur, bor sanga o'lmagim g'araz,
Rahm etib, ey ajal, meni solma aning firoqig'a.

Po'ya qilurda chobukum uchti rikobida² pari,
Naqsh sog'inma zeb uchun sizg'on aning janoqig'a³.

Tolibi faqr bor esang barcha bila muvofiq o'l,
Sen kimu e'tiroz kim ahli zamon nifoqig'a?!

No'shi labing zilolidin xasta Navoiy ichgali
Cheksa hayot chashmasin, zahr kelur mazoqig'a.



¹ V i s o q — uy, xona; ² r i k o b — uzangi; ³ j a n o q — egarning qoshi.



Vahki, umrum barcha zoyi' bo'ldi el komi bila,
Bodayi nob o'rnida xunoba oshomi' bila.

Kimsa yuz yil komronliq qilsa, bilkim, arzimas
Dahr aro bir lahza bo'lmoqqa birov komi bila.

Zahrni o'z komi birla ichsa ondin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomliq jomi bila.

Yuz dilorom aylagandin ravza hibsi² yaxshiroq
Bo'lmoq o'z vayroni ichra ko'ngli oromi bila.

Ey ko'ngul, el subhi ayshi sori boqma, xo'y qil
Fardlig'³ vayronida mehnat qaro shomi bila.

Qushqa yung maskan aro xushroq durur ozodlig',
Bo'lg'onidin band aro sayyod ipak domi bila.

Bo'lmoq itlar mun'imi⁴ tan to'ma⁵ aylab yaxshiroq,
Tanni qilg'uncha samin⁶ nokaslar in'omi bila.

Johu markab birla, eykim, bormading maqsad yo'lin,
Qat' o'lur beto'shalig' zodi fano gomi bila.

Ey Navoiy, huzn ila o'tkar qoriliq mehnatin,
Chun yigitlik bordi ayshu ishrat ayyomi bila.

¹ Oshom — ichuvchi; ² ravza hibsi — bog'da qamalmoq;
³ fardliq — yolg'izlik; ⁴ mun'im — yemak, luqma; ⁵ to'ma —
oziq; ⁶ samin — qimmatbaho.

* * *

Lablaringkim, hayf erur teng tutmoq oni qand ila,
Sindurur yuz qand bozorini shakkarxand ila.

Toki hayronmen sanga nomus ila itmish ko'ngul,
Telba yanglig'kim qochar el g'ofil o'lg'ach band ila.

Odam ul soatki jannat ichra avlodin ko'rar,
Ne quvong'ay dam-badam sen nozanin farzand ila.

Qo'y nasihat, zohidu, o'tlug' damimdin vahm qil,
Telba it imkoni yo'qturkim sog'alg'ay pand ila.

Hojatingni elga arz etmakka hojat bo'lmasun,
Xush chiqishsang lahzaye bu zori hojatmand ila.

Lablaring hajrinda yuz parkandkim bo'lmish ko'ngul,
La'l erur mahlul qon o'rnig'a har parkand ila.

Chun Navoiy ko'ngli sindi, emdi lutfung ne osig',
Kim ushatsa shishani, butmas yana payvand ila.

* * *

Gar sabodek hamdam ermon sarvi ozoding bila,
Bormen, ey gul, qaydakim bo'lsam sening yoding bila.

Range yo'qtur chun qizil guldin sanga, ey andalib,
El qulog'in asru ko'p yolqitma faryoding bila.

Eyki dersen, ko'zlarim ko'nglungni ne nav' etti sayd,
Bir kabutar netsun oxir ikki sayyoding bila?

Masjid ichra butparast o'lmoq necha, ey piri ishq,
Din uchun kirdim fano dayrig'a irshoding bila.

Sehr erur, ey ishqkim, ko'nglum bila paykonidin
Xirqayi jism ichra o'tu suvni asroding bila.

Gar itobe zohir etsang, o'zgalarning ko'nglin ol,
Negakim men xo'y etibmen zulmu bedoding bila.

Ey Navoiy, telbalik tark etgasen ko'rgach visol,
Hur siyratlik, malak xo'luq parizoding bila.



Hayhotkim, birav g'amidin zormen yana,
Faryodkim, balog'a giriftormen yana.

Ey muddaiki¹, orim edi ta'nu so'kmaking,
Forig² degilki, har ne desang bormen yana.

Daf' o'lmish erdi no'shi labingdin malolatim,
Lutf ayla, ey tabibki, bemormen yana.

Har kecha bir quyosh g'amida g'ussa toshidin
Boshtin-ayoq sipehrdek afgormen yana.

So'fiyi aql savmaasin³, shukrkim, buzub,
Dorul-fanoyi ishqda⁴ xammormen yana.

Og'zim qurub, damim tutulub, sekririm ne tong,
Kim telba chobukumga jilavdormen yana.

Aql itti, hush ketti, ko'ngul kuydi, chiqti jon,
Shukr et, Navoiyoki, sabukbormen⁵ yana.



¹ M u d d a i y — da'vogar, raqib; ² f o r i g' — bermalol; ³ s a v m a a — xristianlar ibodatxonasi; ⁴ d o r u l f a n o i i s h q — sevgining yo'qlik uyida; ⁵ s a b u k b o r — yuki yengil.

Va'da aylab vasl, jismi notavonim o'rtama,
Kelmagungdur, intizor o'tig'a jonim o'rtama.

Ishq o'tining o'rtari bastur, yana jonim aro
Dog'i hijron har dam, ey nomehribonim, o'rtama.

Jonni olding, solma oxir notavon jismimg'a o'rt,
Naqd chun yag'mog'a¹ bordi, xonumonim o'rtama.

Novakingning² kasratidinkim³, nayistondur⁴ ko'ngul,
O't olib kirma qamishqa, naysitonim o'rtama.

Jonima o't soldi ishqing, bal jahonim o'rtadi,
Rahm etib, mundin nari jonu jahonim o'rtama.

Har nafas kuydurma bir o't birla, ey g'ardun, meni,
Kuydururga har dam aylab imtihonim o'rtama.

Qilma nisbat xo'blar birla Navoiydek meni,
Tuhmat aylab har zamon, ey badgumonim⁵, o'rtama.



¹Y a g' m o — talon-taroj; ²n o v a k — kamon o'qi; ³k a s r a t — ko'plik; ⁴n a y i s t o n — qamishzor; ⁵b a d g u m o n — yomon xayol qiluvchi.

* * *

Falakdin yaxshiliq yetgay debon ko'nglungni shod etma,
Yamonlig'kim yetar, holo unut, o'tganni yod etma.

Zamona ahlig'a gar yuz quyoshcha ko'rguzubsen mehr,
Vafo zinhorkim bir zarra chog'lig' e'timod etma.

Nujumu charx deb o'kma gadoning bah'yaliq sholin,
Tutunni charxu uchqunlarni anjum e'tiqod etma.

Fano ahli ayog'i tufrog'i sharhin yozar bo'lsang,
Qarog'imni hal ayla, ey rafiq, o'zga midod etma.

Midod etgan qarog'imni qilibon kirpigim xoma,
Ko'zumning pardasidin o'zga kog'azga savod etma.

Qilib solih amal kasbi shioringni saloh etgil,
Vale fosid xayoling birla har dam bir fasod etma.

Chu bilding, rizq erur maqsum, chekma do'stdin minnat,
Qazodin xorij ermas ish, adug'a inqiyod etma.

Tilarsen faqr dashtin qat' qilg'aysen eranlardek,
Bag'ir suv qil, yurak pargolasidin o'zga zod etma.

Navoiy, istasang uqbo murodin nomurod o'lg'il,
Agar dunyo murodi yo'qtur, o'zni nomurod etma.

* * *

Istaram yetsam quyundek gul'uzorim qoshig'a,
Ollida tufrog' o'lub evrulsam aning boshig'a.

Xora uzra lola butgandek erur har yerda qon,
Boqsalar jismimg'a otqan har malomat toshig'a.

Ko'zlaridin yosh oqizg'ay, balki qon beixtiyor,
Har kishikim solsa ko'z giryon ko'zum qon yoshig'a.

Ishq dashti zog'ining minqoridur¹ yoqutrang,
Go'yiyo tushgandurur la'ling haloki loshig'a².

Ko'zlarim qilsun sadaf, kirpiklarim etsun qalam,
Bo'lsa darboyisti zebo suvrating naqqoshig'a.

Ko'p tajammul sotmag'il, ey charxkim, har kavkabin
Bir diramcha yo'qturur dayri fano qalloshig'a.

Har guharkim vasfida sochti Navoiy nazmidin,
Ul pari devona deb bir tosh otar podoshig'a³.

¹ M i n q o r — tumshug'; ² l o s h — o'limtik; ³ p o d o s h — evaz, mukofot.

* * *

Bir kichik yoshlig' nigore topmisham nozukkina,
Sekreturga tavsani¹ maydon aro chobukkina.

Gah vafo, gah nozu gah afsun bila o'zginasin
Ko'rguzur har lahza dilbarlig'da bir turlukkina.

Javr ila tahdidi bedillarg'a bori ching'ina,
Mehr ila har va'dakim qilsa bori o'trukkina².

Asru yolg'on va'dasidin kuymish erdi jong'inam,
Ongdibon³ bir kecha tushti ilgima usrukkina⁴.

Istadim bo'ynun quchub, yuzginasidin o'pgamen,
Iztirob aylab talashdi, bor emish kuchlukkina.

Yuz o'parga qo'ymadi, ilgin dedim borin o'pay,
Tashladi yumruqqina⁵, qildi ko'zumni ko'kkina.

Har ne deding bor edi yolg'ongina boshdin-oyoq,
Ey Navoiy, muncha yolg'on deguchi o'l shukkina⁶.

¹ T a v s a n — ot; ² o' t r u k — yolg'on; ³ o n g d i b o n —
qo'qqisidan; ⁴ u s r u k — mast; ⁵ y u m r u q — musht; ⁶ sh o' k —
poylab turgan.

* * *

Sarvu gul husn ichra yo'q ul sarvi gul ruxsorch'a,
Uylakim, qumriyu bulbul nolada men zorch'a.

Ul bahori husn uchun har seli ranginkim, bulut
Zohir etti yo'q edi bu diydai xunborcha¹.

Garchi davron xoridin gul yafrog'idur yuz to'shuk,
Hajr neshidin emish bu xotiri afgorch'a.

Zulfining har tori bir mo'minni chun kofir qilur,
Desa bo'lg'ay oni din ahlig'a ming zunnorch'a.

Ko'yini ul hurning selobi ashkim kasrati,
Aylamish jannot tajri tahta hal — anhorcha.

Abri rahmat soyayi sihat boshimg'a solmag'ay,
Ul quyosh ko'yi diyorinda buzug' devorch'a.

Bu ko'han² dayr ichra bir dam qilg'ali daf'i xumor,
Amni manzil topsa bo'lmas kulbai xammorch'a.

Olam ahlig'a vafo aylab jafo ko'rgan erur,
Yuz tuman ming zor emas, ammo biri men zorch'a.

Chun Navoiy ko'nglini sindurdung, emdi butmagi
Mumkin ernas, itti chun har yon tushub bir porcha.

¹ X u n b o r — achchiq yig'lovchi; ² k o' h a n — eski.

* * *

Ey sabo, holimni arz et gulruxi tannozi-
ma, Egma qaddimning salomin ayt sarvinozi-
ma.

Ayt ko'pdin-ko'pu ozdin oz shikibim¹ sharhini,
Dardu sabrim naqdi sadqang boqma ko'pu ozima.

Chunki o'lgum yoshurun ishqim ayon qil shammaye²
Voqif etma lek ishq ahlin bu maxfiy rozima.

Novakandozimki³ elni yiqti ko'p andozadin,
Vahki, emdi tortmish novak mening andozima⁴.

Ul kabutarg'a fido jonimki, shavqum nomasin
Qilsa taslim eltibon sho'xi kabutarbozima.

Changdek g'am bazmida qaddim xam o'ldi, ey rafiq,
Ashk har toridin ortar nolai bu sozima.

Ey, Navoiy, ishq aro qochma balodin zinhor,
Chunki oshiqqa balokashlik kelibtur lozima.

¹Sh i k i b — sabr, chidam; ²sh a m m a y e — biroz; ³n o v a k a n -
d o z — o'q otuvchi; ⁴a n d o z a — had, me'yor.

* * *

Kishi visol tuni yori birla yotquncha,
Jamoli sham'ig'a qilsun nazar tong otquncha.

Muyassar o'lmadi jon bermaku labin o'pmak,
Nedinki qolmadi jonim ani unotquncha.

Meni yo'q etgan erur hajri sangboroni,
Nedinki, yog'di tanim tosh ichiga botquncha.

Maloldin meni bir jur'a¹ birla sotqun ol,
Xurushu arbada² aylab jahong'a sotquncha.

Ko'ngul jarohatig'a yoq visol marhamini,
Firoq xorasi³ birla boshim ushotquncha.

Saloh⁴ to'nini chok etsa yaxshiroq, ey shayx,
Riyo yuruni bila xirqani yamotquncha.

Navoiy, ahli fano dayri halqasin xush tut,
O'zungni zuhdi riyo majma'ig'a qotquncha.



¹ J u r ' a — qultum; ² x u r u s h i a r b a d a — shovqun-suron, to'palon; ³ x o r a — tosh; ⁴ s a l o h — ozodlik, pokizalik.

Yordin yaxshi emas aylamagi yor gila,
Yo'qsa ul yordin erdi menga bisyor gila.

Buki ag'yorg'a mendin gila izhor etti,
Har necha aylasam izhor yana bor gila.

Ko'rubon g'ayrg'a lutfungni agar dam urmon,
Dema yo'qtur gilalik aylamon izhor gila.

Ko'p jafosidin agar o'lsam erur turfa bukim,
Yana mendin qilur ul sho'xi jafokor gila.

Xirqa kuydurdi xumor o'tida qilma, ey shayx,
Ani qilsam garavi kulbai xammor gila.

Chun azal qismatidin hech nima xorij¹ emas,
Aylamas foqasidin² voqifi asror³ gila.

Ey Navoiy, desang oyini rizo hosil etay,
Yordin har ne kelur aylama zinhor gila.



¹X o r i j — tashqari; ²f o q a — kambag'allik, faqirlik; ³a s r o r — sirlar.

* * *

Labing fikri bag'rimni qon qildilo,
Chu qon qildi ko'zdin ravon qildilo.

Yuzumni demaykim, bori yer yuzin
Hamul qon ichinda nihon qildilo.

Dedi, ko'nglung ettim nishon vasl uchun,
Firoqi o'qig'a nishon qildilo.

Ko'ngulkim buzuldi tilab ganji vasl,
Ani chug'zi hajr oshiyon qildilo.

Ko'ngul birla ko'z sirrini, ey rafiq,
Yana ohu ashkim ayon qildilo.

Vafo ahlini charx bekom etib,
Jafo xaylini komron¹ qildilo.

Navoiyg'a gar tavba yaxshi edi,
Yana tarkini ul yomon qildilo.

¹ K o m r o n — maqsadga erishgan.

* * *

Chun ilik bermaski o'psam, ul sitamkor ilgini,
Bir kishi ilgin o'paykim, o'pkay ul yor ilgini.

Chun ayog'i tufrog'in o'pkuncha topmon e'tibor,
Sunsam ham nogah, o'parga ne hadim bor, ilgini?

Jon sotarmen xoki poyingg'a, nedinkim ahli bay'¹
Tuttururlar sotquchi birla xaridor ilgini.

Zulfidin, tong yo'q, Kalimullohdek² etsa ajdaho,
Kim yadi bayzodin³ aylabdur namudor⁴ ilgini.

So'rg'ali kelsa Masihim boshima domankashon⁵,
Ul etakdin kim ola olg'ay bu bemor ilgini?

Dog'u qondin borur ul qo'lkim ochilmish lolazor,
Hajring ayyomida cheksang oshiqi zor ilgini.

Ey Navoiy, bilki, hijron dashtidin bo'lmas xalos,
Sayr aro matlub⁶ agar tutmas talabgor ilgini.

¹ A h l i b a y ' — savdo qiluvchilar; ² K a l i m u l l o h — Muso payg'ambar; ³ y a d i b a y z o — oppoq ko'l, kuch-qudrat; ⁴ n a m u - d o r — ko'rsatilgan; ⁵ d o m a n k a s h o n — etak sudrab yurish, sudralish; ⁶ m a t l u b — talab qilingan.

* * *

Jong'a chun dermen: "Ne erdi chiqmog'ing kayfiyati?"
Derki: "Bois bo'ldi jism ichra marazning¹ shiddati".

Jismdin so'rsamki: "Bu za'fing'a² ne bo'ldi sabab?"
Der: "Anga bo'ldi sabab o'tluq bag'irning hirqati"³.

Chun bag'irdir so'rsam, aytur: "Anda o't tushdi manga,
Kim ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi⁴ ofati".

Ko'nglumga qilsam g'azab, ayturki: "Ko'zdindur gunah,
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati".

Ko'zga chun dermenki: "Ey tardomani⁵ yuzi qaro,
Sendin o'lmish telba ko'nglumning balovu vahshati?!"

Yig'lab aytur ko'zki: "Yo'q erdi manga ham ixtiyor,
Kim ko'rundi nogahon ul sho'x mahvash tal'ati"⁶.

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy,
Kim sanga ishq o'ti-o'q ermish azalning qismati.

¹ M a r a z — kasallik; ² z a ' f — yara; ³ h i r q a t — yonish;
⁴ b a r q — chaqmoq; ⁵ t a r d o m a n — gunohkor; ⁶ t a l ' a t —
ko'rinmoq, chiqish.

* * *

Bir kun meni ul qotili majnunshior o'lturgusi,
Usruk chiqib, javlon qilib, devonavor o'lturgusi.

Gar za'f ila ojizlig'im ko'ngliga rahme solsa ham,
Boshimg'a yetgach sekretib beixtiyor o'lturgusi.

Vasli aro gar o'lturur, jonimg'a yuz ming shukr erur,
Chun qolsam ondin bir zamon, hijroni zor o'lturgusi.

Oshiq bo'lurda bilmadim men notavoni xastakim,
Hajr o'lsa, g'am kuydurgusi; vasl o'lsa, yor o'lturgusi.

Maydon aro, ey ahli din, kirmang tamoshosig'akim,
Yuz ko'rmayin ul kofiri chobuksuvor o'lturgusi.

La'ling zakoti may tutub tirguzmasang, ey mug'bacha,
Dayr ichra men dilxastani ranji xumor o'lturgusi.

Derlar Navoiy qatlig'a gul-gul ochibtur orazin,
Ko'rguncha oni, voykim, bu xorxor o'lturgusi.

Yuz urma har taraf, ey sho'xu, zor qilma meni,
Qaror tut rafase, beqaror qilma meni.

Ko'zumni sham'i jamoling furug'i¹ birla yorut,
Tong otqucha kechalar ashkbor² qilma meni.

Xudoy uchun yana har sori bexabar borma,
Fig'onu nolada beixtiyor qilma meni.

Tarahhum aylagil, ey ixtiyorsiz nola,
Damo-dam el ichida sharmsor qilma meni.

Hayot ranji, o'lum yodi sa'b emish, soqiy,
Bu dayr ichinda dame hushyor qilma meni.

Men o'zga, Vomiqu Farhod o'zgadur, ey ishq,
Tana'um³ a'li aro e'tibor qilma meni.

Qayonki borsang, o'larmen Navoiy yanglig' zor,
Yuz urma har taraf, ey sho'xu, zor qilma meni.

¹ F u r u g' — shu'la, nur; ² a s h k b o r — ko'z yoshi to'kuvchi;
³ t a n a ' u m — nozu ne'matlar ichida yashamoq, rohat.

* * *


Ey, guli suri chamanda orazing sharmandasi,
Sarv bu ozodliq birla qaddingning bandasi.

Gar o'g'uramaydurur jon naqdini shirin labing,
Bas, nedur so'rsam tabassum birla shakkar xandasi.

Vaslin ista, ey ko'ngul, shoyadki oxir topqasen,
Chun masaldurkim, topar har nimani jo'yandasi¹.

Aytur ermishsenki, oy bir kamtarin quldur manga,
Ko'rki, yori etmish oyning toli'i farxandasi².

Toji Kayxusrav³ bila mulki Sulaymon⁴ istamas,
To Navoiy bo'ldi ul sultoni olam bandasi.



¹ J o' y a n d a — izlovchi; ² f a r x a n d a — qutlug', saodatli;
³ K a y x u s r a v — Ajam shohlaridan biri; ⁴ S u l a y m o n — podshoh
Sulaymon payg'ambar.

* * *

Nargisin gul uzrakim bemor etar noz uyqusi,
Misli sho'xedurki, sust etgay ani yoz uyqusi.

Ko'z ochib bexudlug'umni ko'rmasa, yo'qtur ajab,
Kim manga baxt uyqusi bo'lmish anga noz uyqusi.

Charxi soyir¹ go'yiyo oshiqdururkim, kechalar
Bor aning ham men kibi ko'p ashkiyu oz uyqusi.

Bizni daf' o'lsun debon solmish o'zini uyqug'a,
Zarqdin xoli emastur ul fusunsoz uyqusi.

Har tun aylar istimo'² el qissasin, vahkim, kelur
Menki o'z holim desam, ul qissapardoz³ uyqusi.

Ista komil xizmatin, g'aflatni raf' aylay desang,
Bordur o'zdin g'oyib o'lmoq zumrayi roz⁴ uyqusi.

Ey Navoiy, ochma g'amdin ko'zki, sirrim qildi fosh,
Yaxshiroq bedorliqdin buyla g'ammoz⁵ uyqusi.

¹ Soyir — aylanuvchi; ² istimo' — eshitmoq; ³ qissapardoz — usta hikoyachi; ⁴ zumrai roz — sirlardan ogoh guruh; ⁵ g'ammoz — sir ochuvchi.

* * *

Ey ko'ngul, berding ilikdin vaslining davronini,
Bilmading bu nav' talx¹ ermish g'ami hijronini.

Go'yiyo Farhod erur tog' ichrakim, cheksam fig'on,
Ul dog'i hamdardliqdin teng chekar afg'onini.


To'tiyoyi ko'z tutarmenkim, ketursang, ey nasim,
Ko'rsang ul badmehri chobuk² turkning javlonini.

Qoldi ko'nglum senda, lekin asradim, ey qoshi yo,
Xasta ko'nglum o'rnida xoki³ daring paykonini.

Ne uchun kiymish qizil to'n dahr bo'stonida gul,
Gar oqizmoq istamas oshufta bulbul qonini?

Tiyrboroni g'aming jismimni qildi yerga past,
Vahki, yong'ur kasrati yiqti g'aming vayronini.

Ey ajal, tengri uchun ketkim, bihil qilmon sanga,
Qo'ymasangkim, dardi-o'q olg'ay Navoiy jonini.



¹ T a l x — achchiq; ² c h o b u k — chaqqon, ildam; ³ x o k i y — uchiga suyak qadalgan va uzoqqa ketadigan o'q.

* * *


Mahvashekim, mehridin bo'ldum jahon ovorasi,
Rahm etib bir chora qilmas o'lsa ham bechorasi.

Zaxmlar qilding yana g'am neshidin, ey bevafo,
Butmish erdi vasl no'shi birla bag'rim yorasi.

Bevafolar ko'ngli, tong yo'q, lablaringg'a bo'lsa sayd¹,
Qaydakim la'l o'lsa atrofida bo'lur xorasi².

Yuziga boqqoch, ajab yo'q ko'zlarimga to'lsa ashk,
El ko'ziga yosh to'lar qilsa quyosh nazzorasi.

Dardi hajringdin Navoiy ko'ngli, ko'ksi, bag'ridur
Har biri yuz poravu ming yora har bir porasi.



¹ S a y d — ilingan; ² x o r a — tosh.

* * *

G'aribliq yana ko'nglumni dardnok etti,
Shikastaliq yana ko'ksumni chok-chok etti.

Bu barcha bir soriyu yor holatimni bilib,
Tag'oful¹ etmagi men xastani halok etti.

Damingni asra, Masihoki, chiqmag'ay gardim,
Bu damki ko'yida jismimni dahr² xok etti.

Yuzungga ulki quyosh tobi berdi, yuz ming shukr,
Quyosh kibi meni ham ishqing ichra pok etti.

Xush ul dameki, degaylar, fano o'tig'a falon
Qadam qo'yarda ne vahm ayladi, ne bok³ etti.

Ne may, ne jom, men usruk hamisha, go'yo ishq
Tanim hadiqasida⁴ raglarimni⁵ tok etti.

Navoiyni tila andin burunki, degaylar:
“Adam yo'lin tutub ul zori benavo ketti”.



¹ T a g' o f u l — beparvolik; ² d a h r — zamona; ³ b o k — qo'rqish;
⁴ h a d i q a — bog'cha; ⁵ r a g — tomir.

* * *

Jonim chiqadur, hajr ila jonon kerak erdi,
Ko'nglum kuyadur, dard ila darmon kerak erdi.

G'am shomida parvona sifatkim kuyadurmen,
Boshim uza ul sham'i shabiston¹ kerak erdi.

Ko'z bog'ida yuz gul ochadur ishq, va lekin
Yuzu xatidir lolavu rayhon kerak erdi.

Xush keldi hazin ko'nglum aro g'amzalaringkim,
Oh o'qlarig'a bir necha paykon kerak erdi.

Qabring'a xirom ettingu yo'q tuhfaye, vahkim,
Bu xas kibi jism ichra bugun jon kerak erdi.

Xush ziynati ko'p nomadurur umr, va lekin
Tavqiyi vafodin anga unvon kerak erdi.

Bilmay seni ul gul qovar, ey zor Navoiy,
Sendek anga bir bulbulu nolon kerak erdi.



¹ Sh a b i s t o n — uyqu xonasi.

Ey, hayotim naqdi la'li xurdaqoning¹ sadqasi,
Javhari jonim aqiqi² durfishoning³ sadqasi.

Ko'zlarimning mardumi xolin savodig'a fido,
Bog'i umrum gulbuni sarvi ravoning sadqasi.


Ko'zlaring gar notavondur, sadqa vojibdur anga,
Yuz meningdek notavon bir notavoning sadqasi.

Qomatu qoshing alif-nunikim⁴ ul husn onidur,
Har malohat ahlikim bor, bo'lsun oning sadqasi.

Qulni boshtin evurub ozod etarlar, vah, meni
Boshqa evur, lek ozod etma, joning sadqasi.

Ting'asen sargashtalikdin, ey ko'ngul, gar bo'lg'asen
Mehribonlig' bog'ida nomehriboning sadqasi.

Bo'lur ul gul sadqasi holimni arz etmish sabo,
Ey Navoiy, bo'lsa yuz jonim, saboning sadqasi.



¹ X u r d a d o n — nozik fahmli; ² a q i q — qizil rangli (lab ko'zda tutilmoqda); ³ d u r f i s h o n — durlar sochuvchi (so'z ko'zda tutilmoqda); ⁴ a l i f — nun (qomat va qosh ko'zda tutilmoqda).

* * *

Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'lmag'ay,
Balki ul xilvatning atrofida dayyor¹ o'lmag'ay,

Eldin andoq yoshurun istarmen ul xilvatnikim,
Ko'nglum andin voqifu jonim xabardor o'lmag'ay.

Ko'zga ko'nglum dardidin yig'larg'a imkon qolmag'ay,
Tilga dardim sharhini aylarga guftor² o'lmag'ay.

Yor budi ichra nobud o'lg'amenkim, o'rtada
O'zgalikdin demakim, o'zluksin osor³ o'lmag'ay.

Buki, derlar bordurur devor keynida quloq,
Ul fazo davrida ko'z etguncha devor o'lmag'ay.

Maxfiy asrorimg'a bo'lg'ay yor lafzidin ado,
Yordin ayru va lekin sohib asror o'lmag'ay.

Ey Navoiy, qilma har yor ollida sirringni fosh,
Bormudur imkonikim ul yorg'a yor o'lmag'ay?



¹ D a y y o r — turuvchi, yashovchi; ² g u f t o r — so'z; ³ o s o r — izlar.



Og'iz ichra tilingdek g'unchada gulbargi tar bo'lg'ay,
Vale bu shart ilakim bargi gul ichra shakar bo'lg'ay.

Qadingg'a sarvi ra'no o'xshag'ay, lek ul zamonkim sarv
Xiromon bo'lg'ayu gul bergay, ul guldin samar bo'lg'ay.

Yuzung davrig'a oy davrini tashbih etkamen, vaqte,
Ki anda xol ila xat fitnayi davri qamar bo'lg'ay.

Ko'zungga o'xshag'ay nargis, agar qiymoch¹ o'lub oqi,
Mudavvar² asfari³ ichra qarolig'din asar bo'lg'ay.

Xatingg'a qadr shomi⁴ o'xshag'ay bu shart birlakim,
Tajallo⁵ nuridin ul shom arosinda sahar bo'lg'ay.

Chu minsang ashhabing ul dam quyosh bo'lg'ay sanga monand,
Ki bersa ko'kbo'zin javlon jahon zeru zabar bo'lg'ay.

Manga ishqingda Majnun birla Farhod o'xshag'ay ul chog',
Ki bu bo'lg'ay jahon rasvosi, ul mundin batar bo'lg'ay.

Xabardor oni bilgil, ey ko'ngul, bu davr javridin
Kim ul tun-kun xarobot ichra mastu bexabar bo'lg'ay.

Dedim, nazm ahlining sarxayli kim bo'lg'ay, dedi hotif:
Navoiy bo'lgay, ulkim sen tilaydursan agar bo'lg'ay.

¹ Q i y m o c h — qiyiq, suzilgan; ² m u d a v v a r — aylana;
³ a s f a r — sarg'ish; ⁴ q a d r s h o m i — (lablatul qadr); ⁵ T a j a l l o —
yorug'liq.

Labing takallum etib, soʻzda lol qildi meni,
Ochildi zulfungu oshuftahol qildi meni.

Yuzi koʻrundi, oching emdi zulfi silsilasin¹,
Ki ul pari yana majnunmisol qildi meni.

Ayogʻin oʻpgali boshim yoʻligʻa etkurdum,
Figʻonki, zulfi kibi poymol qildi meni.

Qoshi xayolida payvasta baski chektim ranj,
Falak bu gʻamda nechukkim hilol qildi meni.

Beli gʻamida xayol oʻldum ohu afgʻondin,
Bu moʻya² moʻy etib, ul nola nol qildi meni.

Kup ogʻzima quyu qoʻy adl jomin, ey mugʻkim,
Qazo bu shevada beeʻtidol qildi meni.

Navoiy, anglaki, jurmumcha³ yuz umidim bor,
Faqiri zohid oʻzidek xayol qildi meni.

¹ Silsilat — zanjir; ² moʻya — hoʻngrab yigʻlash; ³ jurm — gunoh.

* * *

Bir pari paykar g'ami oshuftahol etmish meni,
Elga ahvolim demakdin gungu lol etmish meni.

Men havoyini, ne tong, ko'rguzsalar bir-birgakim,
Egma qoshing fikri andoqkim hilol etmish meni.

Oshkor etsam edim ishqin, vale o'tgan kecha
Boda zo'r aylab, yig'i bee'tidol¹ etmish meni.

Yor ko'yi ichrakim tufrog' ila teng bo'lmisham,
Ishq g'avg'osi bu yanglig' poymol etmish meni.

To tanimg'a o't tutashmish, barqdek²dur hay'atim³,
Furqating to za'fdin andoqki nol etmish meni.

O't solurmen oh ila olamg'a, men kim — zuhd kim?
Zohidi afsurda, oyo, ne xayol etmish meni?!

Dasht vahshig'a anis⁴ o'lsam Navoiydek, ne tong,
Ul pari savdosi chun Majnunmisol etmish meni.



¹ B e e ' t i d o l — o'zini tuta olmaydigan, mo'tadillikni yo'qotgan;
² b a r q — chaqmoq; ³ h a y ' a t — shakl, suvrat; ⁴ a n i s — ulfat.



Topmadim aali zamon ichra bir andoq hamdame,
Kim zamon osibidin¹ bir-birga aytishsaq g'ame.

Kimki davron sog'aridin dam-badam xunob ichar,
G'am yo'q ar har dam g'amin ayturg'a topsa hamdame.

Charx uzukning halqasidur, lek har kavkab anga
Qatl uchun ostida qilg'on zahr pinhon xotame².

Yo'q farog'at dahr arokim shomdin sochin yoyib,
Yog'durub ashkin tutar holingg'a har tun motame.

Gar budur olam, kishiga mumkin ermas anda kom,
Haq magarkim kom uchun boshtin yaratqay olame.

Yo'q vafo jinsi bani odamda, bo'l navmidkim,
Sen vafo ko'rmak uchun xalq o'lg'usi yo'q odame.

Nukta nozik bo'ldi asru, bo'lg'ay erdi koshki,
Shammaye bu ramzdin zohir qilurg'a mahrame.

Dardu zaxm o'lmish ichu toshim, qadah quy og'zima,
Soqiyo, ko'ksunga loyidin dog'i yoq marhame.

Davr aro suhbat bu vanglig'dur, Navoiy, tong emas,
Nolayu faryodi bir'a gar tuzar zeru bame³.

¹ O s i b — qayg'ui; ² x o t a m — uzuk, belgi; ³ z e r u b a m — muzikadagi eng ingichlik va eng yo'g'on ovoz.

Bog'din keldi nasimu gul isin kelturmadi,
Ne tikanlarkim bu g'am ko'nglum aro sanchilmadi.

La'li yodidinki yutqum dam-badam hasrat suyin,
Olloh-olloh, qaysi qonlarkim bu g'am yutturmadi.

Shomi hajrim tiyradur, andoqki kunduz ham bo'lub,
Har nechakim ehtiyot ettim quyosh bilgurmadi.

Hajri zulmidin dedim, aylay ajal'ga dardi dil,
Oqibat jonimg'a rahm aylab anga yetkurmadi.

Vasl aro ko'p istadi jonimki andin ting'amen,
Hajr to jonimni tandin olmadi, tindurmadi.

Qaysi gul bedodi bir bulbul parin sovurdikim,
Charx zulmi ham aning yofrog'larin sovurmadi.

Ey Navoiy, bevafo dur xo'blar, bo'ldi xalos
Ulki, ba'zig'a ko'ngul, ba'zig'a ko'z oldurmadi.



* * *

Ne bir subh ul quyosh bazmi aro ichtim to'la jome,
Ne yottim mast ruxsorim ayog'ig'a qo'yub shome.

Ne bir qush ha'giz ul gulshan sari etkurdi payg'omim,
Ne bir el hargiz ul guldin menga yetkurdi payg'ome.

O'qungdin ming to'shukluk ko'nglak ichra talpinur jismim,
Ham ul qush mislikim oni muqayyad aylagay dome.

Nechukkim tutnading, ey umr, vayronim aro orom,
G'amingdin tutnadi jon ham buzug' jismimda orome.

Hamul kundan sarig' chehramda gulgun ashkdur, ey shayx,
Ki bir zarbaft gulfome kiyib chiqti gulandome.

Yugurdung Ka'bai maqsad tilab ko'p lek yetmaysen,
Chiqarsang o'z'lukungning dayridin o'zni erur kome.

Navoiy, tongla huru sofiy kavsardin ortuqdur,
Bukun ul mug'bacha ishqida bo'lsang durdoshome.

* * *

Nogah o'ldum bir ko'zi sohir¹ giriftori, netay,
Kim agar sehr aylasam boqmas mening sori, netay.

Men chu o'ldum kirpikining zahrliq paykonidin,
Gar o'lukni tirgizur la'li shakarbori, netay.

Tiyr a zulfi subhi ayshimni chu qildi shomi g'am,
O'zgalarga sham'i majlis bo'lsa ruxsori, netay.

Mumkin ermas chun nazar ollida ko'rmak suvratin,
Safhai xotirda naqsh etmay namudori, netay.

Eyki, dersen, zulfi chun to'lg'ondi urma tobu pech,
Har sari mo'yumg'a bog'lig' bo'lsa bir tori, netay.

May bila g'am rangiga bersam jilo ayb etmangiz,
Buyla bo'lsa iqtizoyi² charxi zangori netay.

Dayrdin qoch der, Navoiy, jilva qilg'ach mug'bacha,
Bo'ynuma gar mahkam o'lg'an bo'lsa zunnori, netay.



¹ S o h i r — sehrlovchi; ² i q t i z o — talab.

Halqai zulfung ko'ngul chekmasmu erdi, ey pari,
Kim gajakdin sanchting qulloblar¹ ham har sari.

Tobu pech² ermas gajakdakim, ajab yo'q pechu tob³,
Chun yuzining o'tig'a tushmish parining bir pari.

O'tda bir noxush berur is, vah, muattar⁴ aylamish,
O'tqa tushgan parg'a monand ikki zulfung anbari.

Go'yiyo ermas gajaklarda bu yanglig' tobkim⁵,
Chehrang o'ti tobidin qaytardilar yuz har sari.

Chashmai xurshid ul yuz yonida qullobi zulf,
Soldilar go'yo gajak ul chashmaning o'rdaklari.

O'g'ridur ul zulf voqif bo'lki, behad biymi bor
Halqai qullobig'a tushsa qulog'ing gavhari.

Gar Navoiy telba bo'lsa yo'q ajab bu nav'kim,
Zulfining zanjirini qildi parishon ul pari.



¹ Q u l l o b — changak, ilmoq; ² t o b u p e c h — chirmashuv;
³ p e c h u t o b — o'ralib ketmoq; ⁴ m u a t t a r — xush hazm; ⁵ t o b —
issiq, harorat.

Vahki, hajring o'ti jismi notavonim o'rtadi,
Notavon jismimga tushgan sho'la jonim o'rtadi.

Qo'zg'abon ko'nglum aloxonu alomon¹ ayladi,
Ne aloxonu alomon, xonumonim o'rtadi.

Barqi ishqing chunki tushti jismu jonim bo'ldi kul,
Turfa o't erdiki paydoyu nihonim o'rtadi.

Dema, ishqim nayladikim, ro'zgoringdur qaro?
O'rtadi, ey qotili nomehribonim, o'rtadi.

La'li mahlul² aylagandek o't yoqib xoshok ila
Hajri jonim kuydurub, jismimda qonim o'rtadi.

Bo'lmasa nomu nishonim ayb qilmangkim, firoq
Ro'zgor avroqidin³ nomu nishonim o'rtadi.

Shomi hajrimda shafaq ko'rsang, Navoiy, bil yaqin
Kim falakni sho'lai ohu fig'onim o'rtadi.



¹ A l o x o n u a l o m o n — xonavayron; ² m a h l u l — eritilgan;
³ a v r o q — varaqlar.



Bo'lmasam oshiq fig'onim zor bo'lg'aymu edi,
Kuymasam pinhon ichim afgor bo'lg'aymu edi?

Zulfunga vobastau¹ ko'zungga vola² bo'lmasam,
Jon parishcnu ko'ngul bemor bo'lg'aymu edi?

Bo'lmasa ko'fir ko'zung oshiftasi shaydo ko'ngul,
Rishtai zulfung anga zunnor bo'lg'aymu edi?

Istabon vas'ing gulistonin havoyi bo'lmasam,
Abri naysondek³ ko'zum durbor⁴ bo'lg'aymu edi?

Bo'lsa erdi, ey pari, ishqing aro ko'nglumda hush,
Guftu go'yum muncha majnunvor bo'lg'aymu edi?

Bilsa erdi ishqida sirrimni, har bir lafzida
Yordin yuz e'tiroz izhor bo'lg'aymu edi?

G'uncha kulgusiga, ey bulbul, ko'ngul gar bermasang,
Bag'ringa har gul sayi yuz xor bo'lg'aymu edi?

Ey Navoiy, qilsang erdi ofiyat⁵ kunjin vatan
Muncha munglug' joningga ozor bo'lg'aymu edi?



¹V o b a s t a — bog'langan; ²v o l a — sevguchi; ³a b r i n a y s o n — bahor yomg'irining buluti; ⁴d u r b o r — dur to'kuvchi; ⁵o f i y a t — sog'liq.

* * *

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,
Andin ortuq anglakim bir banda ozod aylagay.

Yordin har kimki bir so'z der, tuganmasdin burun
Istaramkim, avvalidin yana bunyod aylagay.

Yor hijronidin o'lgumdur bu nav' ermish sazo,
Ul kishigakim, birovga o'zni mo'tod aylagay.

Necha sabr avroqi yozg'ay ko'nglumu bir oh ila,
Sarsari¹ ishqing etib borini barbod aylagay.

Shayxdin zuhdi riyosi kasb o'lur, yo Rab, qani
Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay.

Odam avlodida kamdur odamiylik² shevasi,
Odam ermas ulki mayli odamizod aylagay.

Ne balodurkim falak har kimga cheksa tig'i hajr,
Yongilib avval mening jonimg'a bedod aylagay.

Besha ichra devlar maqtuli² bo'lsun, ey pari,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.

¹ S a r s a r — bo'ron, shamol; ² m a q t u l — o'ldirilgan.



Tushta sarvu guldin islab birni, quchtum birini,
Aylagil, ey sarvi gulrux, bu tushum ta'birini¹.

Anglading o'tluq yuzi ko'nglum ne yanglig' qildi su,
Mum aro kim ko'rmamishtur sho'laning ta'sirini.


Do'stlar dafi jununum gar tilarsiz, bog'langiz
Ul pari ko'yida bu devonaning zanjirini.

Suvratingdin ojiz o'lsa Moniy ermastur ajab,
Qayda naqqosh aylagay kilki qazo tasvirini.

Vasl ila qilg'il buzug' ko'nglum, ilojinkim, qilur
Shoh adl etmak bila vayronalar ta'mirini².

Ishqu may, ey shayx, azaldin samavisht³ ermish menga,
Vah, netib xush ko'rmagaymen tengrining taqdirini.

Ey Navoiy, dersen ul oy ishqini eldin yashur,
Oti mazkur o'lsa naylay holatim tag'yirini⁴.



¹ T a ' b i r — tushni tushuntirish; ² t a ' m i r — tiklash;
³ s a r n a v i s h t — peshonaga yozilgani; ⁴ t a g' y i r — o'zgarish.



Demangiz har kimni kim bir yor ila bor ulfati,
Kim menga basdur mening bekasligimning mehnati.

Elni no'shi vasi agar tirguzsa naylay, ey muhib,
Kim meni qildi halok ahbob zahri furqati.


Sabr ko'p qilsang favoyid¹ ko'p deding, nosih, ne sud,
Kim ko'ngulni hajr aro bir lahzaliq yo'q toqati.

Topti go'yo har biri jismimdagi bir dog'ni,
Har taraf xirqamdag'i tevruck² — yo'runlar³ hay'ati.

Bir qaro tog'e qo'pub gar tushsa oshiq boshig'a,
Andin ortug'roqdurur hijron kunining shiddati.

Xirqam olib boda ber, ey dayr pirikim, yana.
Qo'ymag'ay shayx ollib bormoqqa bu ish xijlati.

Ey Navoiy, har nafaskim xush kechar, tut mug'tanam⁴
Hech kimga umrining ma'lum emas chun muhlati.



¹ Favoyid — foydalar; ² tevruck — quroq, yamoq; ³ yo'rin — parcha-purish; ⁴ mug'tanam — g'animat tushmoq.

* * *

Kecha hajringda tiriklikdin malolim bor edi,
Tongg'a tegru ayta olmonkim, ne holim bor edi.

Furqating bedodidin yo'q erdi bir soat majol,
Bo'lsa dog'i yig'lar erdim to majolim bor edi.

Tosh urub ko'ksunga, tufroqlar boshimg'a sovurub,
Lek bu vaqte edikim e'tidolim bor edi.

Kelsam o'z holimg'a nogah bu alomatlar aro,
Goh o'zumdin, goh ulusdin infiolim bor edi.

Vasl umidi kirmasa jonim arosig'a gahi,
Qayda jon elturga bori ehtimolim bor edi.

Vasli tarkidin agarchi mujrim¹ o'ldum, vah, qachon
Hajrni bu nav' sa'b erkan xayolim bor edi.

Ey Navoiy, furqatim ayyomi mundoq qolmag'ay,
Qolmadi chun ulki davroni visolim bor edi.

¹ M u j r i m — gunohkor.

* * *

Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!
V-ar g'amima shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

Ranjima bu esa adad xosti¹ bu ersa naylayin,
Dardima gar kanora² yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

Jam' emas ersa xotirim jam' o'lurig'a, zohido,
Hojati istixora³ yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

Yordin elga komlar, buki mening sori gahi
Ko'z uchidin nazora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

Mash'ali vasl ila ulus shomi munavvaru mening
Baxtima bir sharora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

Qismi azalg'a shodmen buki falak rioyati
Holima oshkora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

Dedim: erur Navoiy o'z dardig'a chorasiz, dedi:
Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!

¹ X o s t i — istagani; ² k a n o r a — chek; ³ i s t i x o r a — xayoliy ko'rinishlar.

* * *

Charx agar solsa yiroq yuz yil visolingdin meni,
Oyira olg'aymu bir soat xayolingdin meni.

Belu og'zing zikru fikri birla bo'lsam, ne ajab,
Shavq bir dam g'ofil etmas qilu qolingdin meni.

Yangi oyduz mujibi savdoyu men devonamen,
To falak soldi judo mushkin hilolingdin meni.

Elga yuz ochib qorong'u qilma olamni menga,
Tiya qilmog'lig' nedur sham'i jamolingdin meni.

Jon bag'ishlab elga la'lingdin, men o'ldum tashna lab,
Vahki, qilding qatl jonparvar zilolingdin meni.

Bastai zunnor qil bir rishtag'a, ey piri dayr,
Har sari tori chubulg'an eski sholingdin meni.

Ey Navoiy, yana ishq aylab taxayyul zinhor,
Qilma har dam ranja bu fosid xayolingdin meni.

* * *

Kelgil, ey oromi jonimkim, tilaydur jon seni,
Chehra ochkim, ko'rmak istar diydai giryon seni.

Ey g'izoli mushkbo', kelkim quyundek, qolmadi
Vodie axtarmag'an istab bu sargardon seni.

Sen pari pinhon uchun men ham kamoli za'fdin
G'oyib o'ldum el ko'zidin ko'rgali pinhon seni.

Qon aro gar g'arqasen, ey ko'z, ne tongkim tez boqib,
Zor ko'nglumni chu qatl etting tutubtur qon seni.

Garchi mumkin yo'q vale bir qatla kirsang ilgima,
Borsa bosh aldin chiqarmoq o'zga ne imkon seni.

Ko'z yuzungdin olmasam, ayb etmagil, ey mug'bacha,
Aylay olmon diydadin g'oyib meni hayron seni.

Ey pari, gar telbarab bo'lmish Navoiy darbadar,
Bu anga maqsud erurkim, istagay har yon seni.



* * *

Necha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtimu chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zing'ayu ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'onda qarong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa borrukim, oni ko'rganda kulgu kelmadi.

Ko'zlaringdin necha su kelgay deb o'lturmang meni
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas yo'qsa kim qo'ydi qadam,
Yo'lg'a kim avval qadam ma'shuqi o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

* * *

Xushtur ichmak yor yodi birla ishrat jomini,
Xossakim, qosid keturgay yorning payg'omini.

Ruqa'si jismimg'a jon berdi qaro ichra magar,
Obi hayvon tomizib chekmish xati arqomini¹.

Safhai gulgun uza yozib xati mushkin tiroz²,
Yodi berdi xatti mushkinu ruxi gulfomini.

Ram³ yegan ko'nglum qushin tutmoqqa go'yo safhada
Nuqtayu xat birla sochib dona, yoymish domini.

To ne afsun qildi ul sohirki, dilkash nomasi
Oldi ham jismim qarori, ham ko'ngul oromini.

Jomi ishrat tortmoqdin yaxshiroq ish topmadim,
Chunki bu davr ichra bilmas kimsa ish anjomini.

Bu kecha qosid malolidin agar vahm etmasam,
Ey Navoiy, kim topa olg'ay so'zum itmomini⁴.



¹ A r q o m — yozuvlar; ² t i r o z — ipak jiyak; ³ r a m — hurkish;
⁴ i t m o m — tugash, oxiri.

Hijron kuni har xastaki jonong'a yo'luqti,
Qil uyla tasavvurki o'luk jong'a yo'luqti.

Zulfung qaro qayg'usida la'lingg'a yo'luqq'an,
Zulmat ichida chashmai hayvong'a¹ yo'luqti.

Qochti ko'ngul ashkimdinu ohim aro tushti,
Yong'ur suyidin qochtiyu to'fong'a yo'luqti.

Majnung'a yo'luqti menga g'am dashtida yetgan
Majnun dernakim g'uli biyobong'a² yo'luqti.

Hayronlig'ina hayrati mendin dog'i oshti,
Ishq ahlidin ulkim meni hayrong'a yo'luqti.

Davronda kamol ichra quyoshtin biyik o'ldi,
Har zarraki bir komili davrong'a yo'luqti.

Ishq ahli ishi tobtı bari vasl ila chora,
Bechora Navoiy g'ami hijrong'a yo'luqti.

¹ Chashmai hayvon — hag't suvi bulog'i; ² g'uli biyobon — dashtu sahro devi.

* * *

Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag'ay erding bori olamda g'avg'o koshki.

Chun jamoling jilvasi olamg'a soldi rustaxezi,¹
Qilmag'ay erdi ko'zum oni tamosho koshki.

Bo'lmag'ay erdi ko'zum o'tluq yuzung ko'rgan zamon,
Ishqing o'ti sho'lasi ko'nglumda paydo koshki.

Aylagach ishqing balosi zor ko'nglumni hazin,
Qilmag'ay erding meni mahzung'a parvo koshki.

Tushmagay erdi firibomiz lutfung bilmayin,
Notavon ko'nglumga vaslingdin tamanno koshki.

Lutf ila ko'nglumni vaslingdin tama'gir² aylabon,
Qilmag'ay erding yana zulm oshkoro koshki.

Bevafolig' anglag'ach ishqingni ko'nglum tark etib,
Qilmag'ay erdi o'zin olamda rasvo koshki.

Emdi kim devonayu rasvoyi olam bo'lmisham,
Vasl chun mumkin yo'q o'lturgay bu savdo koshki.

Ey Navoiy, bevafodur yor, bas ne foyda
Necha kim desang agar, yoxud magar, yo koshki.

¹ Rustaxezi — ag'dar-to'ntar; ² tama'gir — istovchi, umid bog'lab kutuvchi.



Navbahor o'ldiyu ayshim gulbuni¹ ochilmadi,
Kom ila bir g'unchasi balkim tabassum qilmadi.

Vasl jomidin ulus mast o'ldilar, yuz voykim,
Bir qadah b'rla xumori furqatim yozilmadi.

El ko'zin yorutti barqi vaslu, hijron kojidin²
Qaysi o'tlarkim ko'zumga barqdek choqilmadi.

Vasli gulzori aro el mastu hijron dashtida
Qolmadi erdi tikankim, bag'rima sonchilmadi.

Lolalar ko'nglumga qonlig' dog'lardur navbahor
Kim, vatang'a lolaruxsorim azimat³ qilmadi.

Furqatim sa'b⁴ erkanin ishq ahli ichra bilmagay,
Yorig'a ulkin qo'shulmastin burun oyrimadi.

Qayda bag'rim choki muhlik⁵ erkanin fahm aylagay,
Ulki hijron rig'i zahr oludi bag'rin tilmadi.

Chun o'larmen, sirri ishqim maxfiy o'lg'ay, yaxshiroq
Bilmasun el ham, chu hajri jonim olg'an bilmadi.

Bir junun o'ti aro tushmish Navoiy telbakim
Bo'ldi kuymaktin xalos ulkim, anga qotilmadi⁶.

¹ Gulbun — gul tupi; ² koj — shapaloq; ³ azimat — kelish;
⁴ sa'b — qattiq; ⁵ muhlik — halok etuvchi; ⁶ qotilmog' —
qo'shilmoq, aralashmoq.

* * *

Ey uzoring ollida sharmanda mehri xovari,
Yo'qsa nevchun yoshunur har kecha andoqkim pari.

Qomatingdin azmi sahro qildi gulshandin tazarv¹,
Tog' sori uylakim faryod etar kabki dari².

Gulshani husnungg'a ziynat berdi terdin qatralar,
Kim ko'ribtur bo'yla gulbarg uzra shabnam gavhari.

So'zi hajring za'flig' jismim aro bo'lmish nihon,
Bas ajabdur bir ovuch xas ichra do'zax axgari.

Safhai husnungda haq sirrin ko'rar ko'nglum ayon,
Tong emas bulbulg'a mushaf³ o'rnida gul daftari.

Yor bazmida visol ahli chekar jomi murod,
Davr chun hajr ahlig'a qism etti mehnat sog'ari.

Ey Navoiy, yor hajrig'a ne chora, g'ayri sabr
Kimsa netgay sabr qilmay zolim o'lsa dilbari.



¹Tazarv — tustovuq; ²kabki dariy — kaklik; ³mushaf — qur'on.

Muddaiylar betarahhum, yor beparvo base,
Ham alar ko'p zulm etarlar, ham bu istig'no base.

Zulfi zanjiri magar qilg'ay, ilojim, ey hakim,
Kim dimog'imni parishon aylamish savdo base.

Men o'lar holatdayu motam edi ahbob aro,
Buki aqshom qildi ko'yung itlari g'avg'o base.

Turfa menmen ishq dashti ichra, yo'qsa anda bor
Vomiqul Farhod ila Majnun kibi shaydo base.

Ey sabo, ko'yida eltib ko'nglumnikim, aylar emish,
Bul ajabvashliqlar ul oshiftani rasvo base.

Xastamen davron jafosidin, keturgil bodakim,
Nofi'1 ermish ul marazg'a² sog'ari sahbo base.

Boda ichkim, charx rif'at ahlini ko'p qildi past,
Pastlarni ko'mdi tufrog' ostig'a dunyo base.

Men kishi ermon junun ichra, yo'q ersa ko'rguzur
Odamiliq ul pari paykar malaksiymo base.

Ey Navoiy, gar desang, ko'p injimay³ davr ahlidin,
Har ne derlar, yo qilurlar qilmag'il parvo base.

¹ N o f e ' — foyda keltiruvchi; ² m a r a z — kasallik; ³ i n j i m a y —
rangimasdan.

* * *

Evrulay boshingg'ayu behushu hayroning bo'lay,
Bir zamon sadqang bo'lay, bir lahza qurboning bo'lay.

Xoni vaslingdin agar qovsa raqibing rag'mig'a',
Ko'nglum istardek taxayyul birla mehmoning bo'lay.

Netti jon topsam visolingdin labingning xolidek,
Ko'zu zulfungdin necha mastu parishoning bo'lay.

Xushturur vasling mayidin har taraf xirqamda dog'
Necha, jono, muhtaloyi dog'i hijroning bo'lay.

Garchi bandangmen meni ozod qilma lutfdin
Kim, quyundek sadqai sarvi xiromoning bo'lay.

Tanni jilvang vaqti tufrog' aylay, ey chobuksuvor,
To boshingg'a evrulurga gardi maydoning bo'lay.

Ey Navoiy, gungu lol istar esam tong yo'q, seni
Tobakay ozurdai faryodu afg'oning bo'lay.

Ey alifdek qomating mayli buzulg'on jon aro,
Ganji husnang javhari bu xotiri vayron aro.

Ko'lmaking ichra malohat o'yladurkim, sho'xlar,
O'ynamoqdin yuz yoshururlar guli xandon aro.

Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey habib,
Ayb qilmakim g'alat gohi tushar qur'on aro.

O'qlaringdin jon toparmen, go'yiyo paykonlari,
Suv icharda g'o'ta' topmish chashmai hayvon aro.

Xasta ko'nglumi ohi ko'nglungga dedim qilg'ay asar,
Qayda o'ltursun vale bemor o'qi sandon aro.

Boshta gavhar go'yining fikridin ortar dardi sar,
Kimki, kechti boshidin go'y urdi bu maydon aro.

Uyki, adno² tebranur sokinga³ xotir jam' emas,
Ne ajab gar arnn⁴ yo'qtur gunbazi gardon aro.

La'ling olg'on ko'nglum ahvolin munajjim chun ko'rar,
Aytur ul ovora bo'lg'on g'oyibingdur qon aro.

Ey Navoiy, ishq dardi ko'rgan el ko'nglin buzar,
Har xaroshikimi unung zohir qilur afg'on aro.

¹ G' o' t a — suvga sho'ng'imoq; ² a d n o — past; ³ s o k i n — o'tiruvchi; ⁴ a m n — tinchlik.

* * *

Kimki ko'rsa mushki nob ul sunbuli serob aro,
Bir qaro tufrog' degaykim, tushti mushki nob aro.

Qoshing ichra rishtai jonimg'a chirmong'on ko'ngul,
Ankabutidurki, aylabdur vatan mehrob aro.

Ul quyoshdin ayru ashkim yomg'urining barqidur,
O't tutoshqon rishta yanglig' jismi pechu tob aro.

Ul labi unnobgun¹ ko'nglumga ekkan tuxmi mehr,
Ko'nglum ichra yoshurun durdonadek unnob aro.

Uyqu saydi qasdig'a otqon toshingdindur nishon,
Ko'z qarosi demagil bu diydai bexob aro.

Charxi doir² bahridin el tutmasun sohil umid,
Kim qutulmas har kishikim, tushti bu girdob aro.

Gar Navoiy yodini qilmoq habib imkon emas,
Basdurur mazkur ham bo'lsa gahi ahbob aro.



¹ U n n o b g u n — chilonjiyda rangli; ² d o i r — aylanuvchi.

* * *

Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro,
Bu tanni hajr tashladi yuz ming tikan aro.

Lek ul tikanlar uzra xayoling bila ko'ngul,
O'ynar magar gul uzrayu ag'nar saman¹ aro.

Jism uyidin ko'ngul tilar ul ko'yni, vale
G'urbat suubatin kishi bilmas vatan aro.

Ermas uchug' labingdaki ul yuz Suhaylidin²,
Rang olmadi bu qatra aqiqi³ Yaman aro.

Jonim labing shahidi ekanga tonug' durur,
Har ol⁴ rishta⁵ qong'a bo'yalg'on kafan aro.

Bulbul ne kuymasunki bir o't yoqti qasdig'a,
Har otashin gul ushbu vafosiz chaman aro.

Ko'rdung, Navoiy, ul sari zulf uzra yuz shikan⁶
Ko'r emdi yuz shikasta ko'ngul har shikan aro.

¹ S a m a n — suman — oq-sariq rangli xush is gul; ² S u h a y l — yorug' yulduz; ³ a q i q — qizil rangli qimmatbaho tosh; ⁴ o l — qizil; ⁵ r i s h t a — ip; ⁶ s h i k a n — buralish, bukik.

* * *

Ey ko'ngul, gar kimsa ahvolim demas yor ollida,
Xotirim kimdin malul o'lsun, kimim bor ollida.

Ul ko'z ollida halokim desalar yo'q bok hech,
Garchi o'lmakdin demak yo'q shart bemor ollida.

Ne jafokashmen ko'runkim, bor anga qilmoq jafo,
So'z vafodin zohir etsam ul jafokor ollida.

Ollig'a gullarki sonchibdur mushobihdur¹ anga
Kim tushar gohi mulavvan² muhr dastor³ ollida.

Ko'zlaring qonim g'izo qilsun agar yolg'on desam,
Bir qoshuq qonim bihil ul ikki xunxor ollida.

May berur bo'lsang manga dayr ichra ber, ey bug'bacha,
Kim qo'yay boshimni qo'ysam piri xammor ollida.

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo'li bo'lma zabun bu zoli makkor ollida.



¹ M u s h o b i h — o'xshash; ² m u l a v v a n — rang-barang;
³ d a s t o r — salla.

* * *

Ne xush bo'lg'ay ikovlon mast bo'isoq vasl bog'inda,
Qo'lum bo'lsa aning bo'ynidayu og'zim qulog'inda.

Dami vasl ichra volihlig'¹ bila ruxsorim egnida,
Yana bir dam niyozu ajz ila boshim ayog'inda.

Tutub gohi zanaxdonin mukarrar aylasam bot-bot,
Ko'rub gullar ochilg'on bodadin ruxsori bog'inda.

Shimib yutsam gahi hayvon suyidek zavqdin ko'rgach,
Tarashshuh² bodadin gul yafrog'i yanglig' dudog'inda.

Gahi ko'z surtarimda, yo'qsa har yon shodlig' ashkim,
Gul uzra qatra shabnamlar kibi siymin saqog'inda.

Gahi bexudlug'uidin seskanib tutsam adab rasmi,
Belida chirmashurda shavqning ifroti chog'inda.

Ne kelsa tongla kelsun, bir tun usruk yotsa ham xushtur,
Kishi gul chog'i bir gul xirmanin tortib quchog'inda.

Qachon davron manga bir bo'yla ishratni ravo ko'rgay,
Ki o'rganmish meni o'rtarga hijron dardu dog'inda.

Navoiy, sen kimu, ishrat mayi?! Bilmasmusenkim, it —
Agar qon ichsa ham boshi keraktur o'z yalog'inda.

¹ V o l i h — shaydo, asir; ² t a r a s h s h u h — suyuqlikning sizib oqishi.

* * *

Oncha davron birla ko'rdum ahli davrondin jafo,
Kim ko'zumga to'tiyodek bo'ldi jonondin jafo.

Bu jafo daf'in ne yanglig' aylagaymenkim, yetar
Aylasam kimdin jafo man'in tama', ondin jafo.

Ming jafo har lahza ko'rsam bir taraf, ul bir taraf
Kim yetar jonon uchun jonimg'a hijrondin jafo.

Sayddekkim charkada yuzlansa, har yon kelgay o'q,
Ahli davrondin kelur ko'nglumga har yondin jafo.

Gar ko'ngul ul zulfdin ko'rsa jafo, vah, ne ajab,
Chun ko'rar ushbu siyahro'zi parishondin jafo.

Angla, jonokim, jafo qilmoqqa topqung yo'q kishi,
Men jafokashga nedinkim o'tti imkondin jafo.

Kechalar ul oy jafosidinki afg'on tortaram,
Ul xud ortuqroq chekar har tun bu afg'ondin jafo.

Ne musulmonlig' bo'lur ushbuki, davron boshima
Yetkurar har dam yana bir nomusulmondin jafo.

Ey Navoiy, borg'ali jonon sari jonim yetar,
Jong'a jonondin jafo, men xastaga jondin jafo.

* * *

Bo'lsa ikkimizning yuzi aksi suvda paydo,
Ul suv ne taraf borsa ochilg'ay guli ra'no.

Zulfung g'ami ko'nglumni beling fikriga soldi,
Ko'rkim, ne taxayyulg'a solibtur ani savdo.

G'avg'o qilur el mahvashlar ko'yida, lekin
Mahvashlar ishi qilmoq aning ko'yida g'avg'o.

Ahvolima Farhod ila Majnung'a taajjub,
Ishq etti x'rad ahli qoshida meni rasvo.

Har sori tamoshog'akim ul sho'x qilur azim,
Yo'q anga tamoshoki erur elga tamoshho.

Davron sanga zulm etsa, qadahlar to'la may ich,
Qon yutsang ayog'lar to'la davrong'a ne parvo.

Ul sho'xki maydon aro ko'rganga solur tiyg',
Ko'rmasga solur etsa Navoiy sori emdo.

May birla yuzung timtim ahmarmu ekin oyo?
Yo shu'la aro bir-bir axgarmu ekin oyo?

Har sori qulog'ingda gavharmu ekin, yoxud
Har jonibida oyning axtarmu ekin oyo?

Ruxsoring uza xaydin yuz qatraki ko'rguzdung,
Gul bargida shabnamdin gavharmu ekin oyo?

G'uncha ichida davron mahkam tikan urg'ondek,
Ko'nglum aro g'amzangdin xanjarmu ekin oyo?

Ko'nglum qushikim qolmish zulfung aro sargardon,
Savdo tunida soyir shapparmu ekin oyo?

Zulf ichra yuzi yanglig' ofoqni kuydurgan,
Ohim tutuni ichra ozarmu ekin oyo?

Hijrondamu ul mahvash ag'yorga moyildur,
Yo zahri firoq ichra nishtarmu ekin oyo?

Jon pardasida har yonkim yangi tuganlardur,
Qatling'a falak tuzgan mahzarmu ekin oyo?

El desa Navoiyni kim javr ila tark etti
Ishqingni, sanga bu so'z bovarmu ekin oyo?

* * *

Ey, sanga yuz xo'bu lab xo'bu labingdin kulgu xo'b,
Har nekim voqe' bo'lur sendin ko'zumga asru xo'b.

Deding ul oy vasfin, ey roviy, yana so'r demagil,
Xo'blardinkim so'zung erdi bu yerga tegru xo'b.

Xo'blar qul bo'ldilar, lekin parilar qochtilar,
Olam ichra odamiy bir senga bor erkinmu xo'b.

Xo'blarni arz qildim, qilmadi ko'nglum pisand,
Oni ko'rgach ixtiyori qolmayin dedi: "Bu xo'b".

Vaslida jonimg'a hajridin ne kelganni demon,
Kim farah bazmida zikr etmak emastur qayg'u xo'b.

Javru lutfu kibru noz andin ko'ngulga xo'b erur,
Haq azalda zotini oning yarotibdur chu xo'b.

Sof qil xotirki solg'ay aks ul yuz yaxshikim,
Ko'rguzur yuzni qachonkim ravshan o'ldi ko'zgu xo'b.

Ey ko'ngul, borsang ul oy nazzorasig'a zinhor
Ashk birla ko'zlaringdin g'ayrining naqshin yuv xo'b.

Xo'blarni ko'rmasa sensiz Navoiy qilma ayb,
Kim ko'runmaydur ko'ziga kimsa sendin ayru xo'b.

* * *

Ishqdin yonsa tanim so'rma sabab,
Kuysa xoshok yolindin ne ajab.

Sekridi, chunki samanding dedi aql.
Barq bo'lmish bu quyoshqa markab.


Xo'blar maktab aro xayli nujum,
Ul quyosh o'rtada mohi maktab.

Zaqaning chohu aning ostida xol,
Chohning nuqtasi, ey no'shin lab.

Husn aro ishvau noz el ko'nglin
Oncha olmaski hayo birla adab.

Nega matlub tilarsen, chunkim
Ne talabdur sanga, ne dard talab.

Hajr aro xasta Navoiyyu fig'on,
Ey visol ahli, sizu lahni¹ tarab².



¹ L a h n i — xushchaqchaqlik; ² t a r a b — shodlik.

* * *

Kezarmen ko'yida yillar nazar holing'a solg'ay deb,
Agar o'ltursa, qonim rangi tufrog'ida qolg'ay deb.

Ko'ngulga yuz tuman nesh ura hijron aylamon nola,
Visoling no'shiddin ul zaxmlar bir kun o'ngalg'ay deb.

Ko'ngulga novaking to kirdi behad hifzin aylarmen,
Ki bu shisha ichinda ul dag'i nogah ushalg'ay deb.

Ko'ngulni ko'yida yuz ranj ila mehnatqa topshurdum,
Ki gar ko'rsa bu surat birla shoyad ko'nglum olg'ay deb.

Sirishkim qoni qildi ko'yining tufrog'in og'ushta,
Itiga shoyad ul balchig' bila bir uy yasalg'ay deb.

Haram vaslin tilarsen po'ya ur mardona, ey solik,
Qadam ohista chekma bag'ring ul yelmakda tolg'ay deb.

Navoiy benavolig' birla doim may ichar, bir kun
Navo naqshini davron mutribi¹ bazmida cholg'ay deb.

¹ M u t r i b — cholg'uvchi.

* * *

Voykim, dushmandek o'ldi ahdidin begona do'st,
Dushmanim o'ltursa ahd ettimki tutmay yona do'st.

Sog'arimda zahru sahro uzra po'yam shiddatin
Bilmas ulkim, bor anga hamkosau hamxona do'st.

Jon qushi o'rtandi sevgach yorning o'tlug' yuzin,
Naylagay kuymay, chu bo'lg'ay sham' ila parvona do'st.

Vodiyi hijronda ag'yorig'a yor o'ldum, ne tong,
Gar bo'lur g'uli biyoboniy bila devona do'st.

Do'stluq jonondin istarmen, manga olam edi
Dushmani jon bo'lsa bo'lsun, bor esa jonona do'st.

Ahli din paymon shikandur¹ qilsa bo'lmas do'stluq,
Bas manga mug' dayrida ulkim tutar paymona² do'st.

Zulfig'a tushsa Navoiy xoli shavqidin, ne tong,
Domdin yo'q chorasi har qushki bo'lg'ay donado'st.



¹ P a y m o n s h i k a n — ahdini buzuvchi; ² p a y m o n a — qadah.

* * *

Mening jununuma gar ul pari erur bois,
Halokima qad ila paykari erur bois.

Dema nedin kuyasenkim, aning yuzu labining
Bu ishga shu'la bila axgari erur bois.

Ko'ngul qushi tunu kun mulki boxtar¹ sari
Havo qilrg'a mahi xovariy² erur bois.

Mangaki g'amzasidin o'lmisham hayoti abad
Xayolig'a labi jonparvari erur bois.

Chamanda bulbul etar shavq nuktasin takror,
Ki gul varaqlarining daftari erur bois.

Ul oy firoqida ashkim oqarg'a shomu sahar,
Tului Zul'ra bila Mushtari erur bois.

Ko'ngulni choku bag'imi shikof istarima
Aning qilichi bila xanjari erur bois.

Hamisha dayr ichida bo'lmog'img'a mug'bachalar
Karashmasiyu fano sog'ari erur bois.

Navoiy o'lmasig'a ozimi Iroqu Hijoz
Magar nazohati mulki Hiri³ erur bois.

¹ B o x t a r — g'arob; ² m a h i x o v a r i — Sharqdan chiquvchi oy;
³ H i r i y — Hirot.

Xonaqahda halqai zikr ichra g'avg'o qildi shayx,
Ahli dillar¹ naqdi avqotini² yag'mo qildi shayx.

Ul biri dom erdi, bu bir dona el saydi uchun,
Har qachonkim azmi tasbihi musallo qildi shayx.

Yo xayoli bang, yoxud xonaqah fikri edi,
Har karomatu maqomotiki ifsho qildi shayx.

Kaf sohib, faryod etib, sekrib, parivashlarni sayd
Qilg'oli devonalig'lar oshkoro qildi shayx.

To'q chiqib xilvatdin o'zni ro'za deb juhholdin³,
Asru ko'p nodonni o'z tavig'a⁴ shaydo qildi shayx.

Bovujudi masxu nodonlig' murid aylar uchun,
Ko'p o'zidin masxu nodonrog'ni paydo qildi shayx.

Dayr pirining muridi menki, fayzi om erur,
Xonaqahda fayzi om eldin tamanno qildi shayx.

Dayr aro tindi qulog'im, rohibo, zikring baxayr,
Kim sahar zikr ayturida ko'p alolo qildi shayx.

Ey Navoiy, xirqasin berdi, karomat ayladi,
Kim manga tartibi vajhi rahni sahbo qildi shayx.

¹ A h l i d i l l a r — chin e'tiqod egalari, imonli kishilar; ² n a q d i a v q o t — qimmatli vaqtlar; ³ j u h h o l — johillar, nodonlar; ⁴ t a v r — fe'li xuy.

* * *

Chekar un ko'nglum ursang tiyg'i bedod,
Ne tong suv qo'yg'och etmak shu'la faryod.

Ko'ngul sensiz topar g'am shodlig'din,
G'aming etgach vale aylar ani shod.

Ne tong majnunlug'umkim jilva aylar,
Ko'zumga lahza-lahza bir parizod.

Ko'ngulni, soqiyo, maydin qilib xush,
Buzug'ni sel ila aylarsen obod.

Meni shod aylagil bir jur'a birla,
Ki g'amdin jong'a yetti joni noshod.

Sanam ollida maydin bosh ko'tarmon,
Ki qildi dayr piri mundoq irshod.

Sening yoding bila o'ldi Navoiy,
Tirik bo'l, garchi oni qilmading yod.

* * *

To xayoling gah ko'ngul, gah ko'z aro mehmon erur,
Ko'z bila ko'nglum arosinda hasaddin qon erur.

Ko'ngluma paykonlaringdin qatra-qatra suv emas,
Holima ko'zdek biaynih ul dog'i giryon erur.

G'arqamen ashk ichrakim, ishqing tanimni o'rtamas,
Yo'qsa o't kim ko'rdikim xoshok aro pinhon erur.

Hajr o'qidinkim erur bag'rim aro yuz ming teshuk,
Har teshuk bir ko'zdururkim, holima hayron erur.

Husn maydonida ul ko'z chobukidurkim, anga
Xoli mushkin go'yu zulfung anbarin chavgon¹ erur.

Dahr bo'stonida bosh chekkan nihol atrofida,
Shox emas novak degil, yafrog' emas, paykon erur.

Tiyg' ila dushvor aylabsen Navoiy qatlini,
Chehradin burqa'ni olg'ilkim base oson erur.



¹ G o ' y v a c h a v g o n — ot ustida o'ynaladigan to'p o'yini.

* * *

Tirguzur har dam raqiblarniyu meni o'lturur,
O't yoqib el jonig'a mening ichimni kuydurur.

Ko'nglum ahvolin sabodin so'rdum ersa dedikim:
"Telbalardek bir pari ko'yida sargardon yurur".

Ul quyosh yuziga boqqon soyi ortar ko'z yoshim,
Mehr tobidin agarchi har nekim, o'ldur qurur.

Qon yoshim rangi yoshurdi xotami la'l og'zini,
O'ynamoqda yoshlar andoqkim uzukni yoshurur.

Senki yo'qsen mohruxlar jilva aylarlar valek,
Kecha ishnor qurt¹ nuri mehr chiqqoch bilgurur.

Ul quyosh hijronida har tun iki munglug' ko'zum
Tongg'a tegru subhidam yo'lig'a boqib telmurur.

Tuzluk aylab sham'dek, vah, bilmadimkim bu ne hol,
Mehnat o'ti gul ochar, yosh qatrasi bar² kelturur.

Bul'ajablig'lar bahori ishq aro ko'rkim, meni
Gah bulutdek yig'latur, gohi choqindek kuldurur.

Zuhd ohangin Navoiy har nechakim soz etar,
Bir navo birla mug'anniy yona yo'ldin ozg'urur.

¹ I s h n o r q u r t — yaltiroq qurt; ² b a r — meva.



Barmog'i hayrat bilakim la'li xandon ichradur,
Ul alif yanglig' dururkim filmasal jon ichradur.

Xoni husni zavqini bilmakka yoxud barmog'i
La'li xandon ichra ermaskim, namakdon¹ ichradur.

La'li bir so'z birla yuz yilliq o'lukni Xizr etar,
Go'yiyo Ruhullah ushbu obihayvon ichradur.

Munfaildur yuzi zulfidinki titratgay nasim,
Jilvagar tovuskim, firdavsi rizvon ichradur.

Orazing hajrinda har qonlig' ko'zumdur lolaye,
Dog'lar ko'zning qarosin anglakim qon ichradur.

Tutma ulfat bog' arokim sarsari daydin durur,
Emin ul qushkim aning ma'vosi vayron ichradur.

Ey Navoiy, birga yuz jomi balo turmish to'la,
Har nechakim sog'ari ishrat bu davron ichradur.



¹ N a m a k d o n — tuz idishi.

* * *

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,
So'ngra degil ko'ngul otlig' notavonimdin xabar.

Chun manga berding xabar, lutf aylab ul yon dog'i elt
Xotiri majruh ila ozurda jonimdin xabar.

Gar bular ko'ngliga ta'sir aylamasdek bo'lsa, ayt
Yer yuzin g'arq aylagan ashki ravonimdin xabar.

V-ar munga ham qilmasa parvo, degil aflok elin
Kecha-kunduz jong'a yetkurgan fig'onimdin xabar.

Qilsa istig'no kerakkim, aylagay, albatta, rahm,
Gar desang jonim aro dog'i nihonimdin xabar.

Aytkim, tutqil xabar mendin yo'q ersa, topmag'ung
Olam ichra istabon nomu nishonimdin xabar.

Arz qil tadrij¹ ilakim, shodlig'idin o'lmayin,
Ey Navoiy, kelsa nogah dilsitonimdin xabar.



¹ T a d r i j — sek n-asta, birma-bir.

Ul malaksiymo parikim xalq aning hayronidur,
Jonlar oshubi, vale oshufta jonim jonidur.

Tifl avroq ichra bir-bir bargi gul tergon kibi,
Nomai hijron aro tim-tim sirishkim qonidur.

Ko'rsa jon zaxmida qonlig' marhamin aylar gumon,
Kim buzulg'on ko'nglum o'tidin qiziq paykonidur.

Yuzungga may gullari yuz fitna qildi go'yiyo,
Fitna har gulkim ochar yuzung aning bo'stonidur.

Bornudur ko'nglumda kesgan ham alif, ham na'lu dog',
Yo bu mir'ot ichra solg'on aksi husnung onidur.

Dahr toroji qilur uryon chaman ra'nolarin,
Eldin un chekmas yig'ochlarkim chaman afg'onidur.

Ey Navoiy, bilki tong otkuncha yig'lar har kecha,
Charxdek har kimki bir badmehr sargardonidur.

* * *

Yo'qki ul ko'z qoradur husnuning aro, ey qorako'z,
Kim qoshing dog'i erur asru qaro, ey qorako'z.

Gar ko'ngullarni jaloyi vatan istar bo'lsang,
Yesh tugunlarniyu zulfungni taro, ey qorako'z.

Qaro nargis ko'zu gul yuz bila gar sen kibi yo'q,
Bulbule meni kibi yo'q nag'masaro¹, ey qorako'z.

Ko'zlaring zaxm agar qilmadi har kirpik ila,
Bas nedur ko'ngluma yuz yerda yaro, ey qorako'z.

Men menu, bir yaramas ko'nglum aning qatli uchun
Ko'z qaro qilma, bir ishimga yaro, ey qorako'z.

Goh faqr ahlig'a ham rahm ko'zi birlan boq,
Kim duogo'yung erurlar fuqaro, ey qorako'z.

Sen Navoiyg'a vafo aylamasang, bor o'lsun
Shoh Abdulg'oziyi bin Boyqaro, ey qorako'z.

¹ Nag'masaro — kuylovchi.

* * *

Dam-badam la'ling xayolidin ichim qonmu emas?
Qatra-qatra ko'z yo'lidin yuzga g'altonmu¹ emas?

Gah o'lub, gohi tirilsam, tong emas, vah, g'amzasi
Qotil ermasturmu yo no'shi labi jonmu emas?

Ne ajab, ishq ofatidin chiqsa jon tan mulkidin
Shahna² zolimmu emas, yo mulk vayronmu emas?

Novaki zulm urmog'ingdin tonmog'il, ey qoshi yo,
Tanda zaxm ermasmu, yo ko'nglumda paykonmu emas?

Telba ko'nglumni dema ko'p vola ermas ishq aro,
Shuhrai ofoq, yo rasvoyi davronmu emas?

Dahr sho'xig'a ko'ngul gar bermadim ayb etmangiz,
Ishvasi chinmu emas, yo ahdi yolg'onmu emas?

Dasht aro ko'rsang Navoiyni emas Majnun dema
Toshmu urmas ko'ksiga, yo jismi uryonmu emas?



¹ G' a l t o n — yumalanuvchi; ² s h a h n a — soqchi, askar.

Qatig dardim zuloli ashk etar fosh,
Suzuk suv ichra qolmas yoshurun tosh.

Halokim vasl aro mingdin bir etting,
Ki, bergay tengri bir yoshingg'a ming yosh.

Demakka fitna ta'limin bo'lub xam
Qulog'ing sori bosh eltibtur ul qosh.

Magar sochingni tiyding fitnadinkim,
Parishonhol ayog'ingg'a qo'yar bosh.

Yasar chog'da labing rangini go'yo
Ezibtur obihayvon birla naqqosh.

Qadah, ey mug'ki, jon aylay nisoring.
Necha bo'lsam xarobot ichra qallosh¹.

Navoiy joni sensiz dardisardur,
Borurda oni ham olg'oy eding kosh.

¹ Q a l l o sh — e'tiborsiz, daydi.

* * *

Boda meni ayladi zuhdu riyodin xalos,
Zuhdu riyo yo'qki, ming ranju anodin¹ xalos.

O'zlukuma o't solib berdi manga ishq dame,
Zuhdu vara'din² farog', dardu balodin xalos.

Jonni xalos ayladi jomi fano zuhddin,
Yo rab, ani aylama jomi fanodin xalos.

Yor ila ag'yordin bir nafas ayrilmasun,
Kimki tilar bo'lmag'ay nozu jafodin xalos.

Ko'ngluma yog'durdi o'q charx firoqing tuni,
Mumkin emas bo'lmog'i muncha yarodin xalos.

Husnungga tokim nazar bo'lg'usi nazzoragar
Bo'lmog'ung aylab vafo ahli jafodin xalos.

O'zni Navoiy xalos istamas o'z yoridin,
Yo rab, ani qilma ul mohliqodin xalos.



¹ A n o — mashaqqat, og'irchilik; ² v a r a ' — taqvo, parhezkorlik.

* * *

Yor chun istarki bo'lg'aymen mudom andin yiroq,
Ul jihatdin barcha vasl istar meni mahzun firoq.

Yaxshilarg'a bas yomondur holkim, yor ollida
Tengdurur yaxshi-yomon, balkim yomonroq yaxshiroq.

Shah yonin farzin kibi kajlar¹ maqom etmish ne tong,
Rostravlar² arsadin³ gar tutsalar ruxdek qiroq⁴.

Toza har yon dog' emas jismimda ul yuz ishqidin,
Kim bu kavkablarg'a bo'lmish ul quyoshdin ehtiroq.

Bu yiroqliqdin yaqindur o'lgamen, vah, yorning
Istabon royin bo'lubturmen yaqinliqdin yiroq.

Mahjabinlardin siyahdillik ne tong, eykim oyning
Botinin⁵ ko'rsang qarodur, gar ko'runur zohir⁶ oq.

Ko'p Hijoz ohangi tuzma yor ila bo'l barcha vaqt,
Ey Navoiy, gar Ajam bo'lsun maqoming, gar Iroq.

¹ K a j — egrilar; ² r o s t r a v — to'g'ri odamlar; ³ a r s a — shoh yoni; ⁴ q i r o q — chet; ⁵ b o t i n — ich; ⁶ z o h i r — tashqi ko'rinish.

* * *

Ishq aro vasling tilab hajringda bo'ldum dardnok,
Xasta yanglig'kim hayot ummididin bo'lg'ay halok.

Yo'q ajab gar ul quyosh navhangg'a boqmas, ey ko'ngul,
O'tqa ne g'am garchi kuygan nola aylar dardnok.

Tikkanin yetgach ochar paykoni ko'ksun chokining,
Ul kalid o'lmish ajal darvozasi go'yo bu chok.

Aylar erding pok ishq o'tig'a kuymak orzu,
Shukrlillah oqibat kuydurdi ishqing bizni pok.

Soldi may ul hur shavqin ko'ngluma, ey bog'bon,
Berding o'xshar parvarish kavsar ziloli birla tok.

Ishq aro do'zaxdin, ey nosih, meni qo'rqutmakim,
Hajr o'tin ko'rgan samandarg'a sharardin qayda bok.

To taning avji hayot ustidadur sen xok bo'l,
Istasangkim avj tutqaysen taning bo'lg'onda xok.

Ey Navoiy, shomi g'amdin ayru yo'qtur subhi vasl,
Oq erur, lekin qarortur har neni rang etsa zok¹.

¹ Z o k — qora bo'yoq.

* * *

Turfa ruxsor ngki husn ichra erur gulzordek,
Turfaroq budurki gulzor ermas ul ruxsordek.

Sarvinozim boshida turna parin ko'rkim, erur
Sham¹ning boshida kul bo'lg'on parishon tordek.

Bir tun ul oy hajridin kuydum, ulus ko'rdi meni
Tonglasi bir yil takassur¹ tortqon bemordek.

Toshlarkim urdi ul sho'x, ipga bog'lab osmisham
Bo'ynuma ko'nglum g'ami taskiniga tumordek.

Za'fdin ko'yida qo'y dum boshim ostig'a kesak,
Soya ham gar istasam yo'qtur buzug' devordek.

Ul quyosh mast o'ldi, go'yokim qilib egri xirom,
Yuz jaf o'jon mg'a aylar charxi kajraftordek.

Telba ko'nglungni, Navoiy, zabt aylay olmading,
Emdi chek andin ilik har sori borsa bordik.

¹ T a k a s s u r — sinish.

* * *

Qarodur xolu xattu ko'zu qoshing,
Magar borini kuydurmish quyoshing.

Yoshim torin uzattingkim, sening ham
Uzolg'oy aysh ila, yo rabki, yoshing.


Boshing'a toshlar yog'durmakim, bor
Murassa¹ tojdin ozurda boshing.

Xaroshida ko'nguldin chiqting, ey oh,
Ki el ko'nglin xarosh² etti xaroshing.

Nechuk sen zulfi ichra, ey ko'ngulkim,
O'tar bas tiyralik birla maoshing.

Palosi huznu men, ey atlası charx,
Manga loyiq emas volo qumoshing³.

Navoiy foni o'ldi, ey g'amu dard,
Aning raxtin fano ko'yiga toshing.



¹ M u r a s s a ¹ — qimmatli toshlar bilan bezalgan; ² x a r o s h —
tirnash; ³ v o l o q u m o s h — qimmatli mato.

* * *

Ey chuchuk jonim sening shirin labing,
Mevai jonim turunji¹ g'abg'abing.

Men kimu o'pmak yuzung ko'zgusini,
Bas muyassar bo'lsa na'li markabing.

Necha elni kecha, yo rab, ey ko'ngul,
Qo'ymag'ay uyqug'a yo rab-yo rabin.

Tezlikda gardiga yetmas shihob²,
Ey quyosh, javlong'a kirsashhabing.

Yuzida ter qatrasin ko'r, ey sipehr,
Oy uza mundoq ko'runmas kavkabing.

Shurbdin nuqson emas, ey porso,
Faqr ila bo'lsa muvofiq mashrabing.

G'amzang o'ltursa Navoiyni ne bok,
So'z bila chun tirguza olur labing.

¹ T u r u n j — limon; ² s h i h o b — uchar yulduz.



Iki g'unchang ermas, ey gulchehra, teng,
Og'zing asru toru ko'nglung asru keng.

Og'zingga tegmas uzoring birla so'z,
Bo'lmadi xurshid birla zarra teng.

Lolaning dog'i bo'lur chun o'rtada,
Nega tushmish orazing yonida meng¹.

Bo'ldi ilgim dog'u ko'ksun zaxmi fosh,
Kim tanimda to'n yo'qu ilgimda eng².

Solg'ucha olamg'a o't orazni och,
Kim jahonni kuydurur ul o'tlug' eng.

Husn da'vosig'a qo'l yengdin chiqor,
Yuz yadi bayzo chiqorg'ondekni eng.

Dang³ qilmishtur Navoiyni xumor,
Anga tutsun bir qadah, soqiyg'a deng.



¹ M e n g — xol; ² e n g — bet, yonoq; ³ d a n g — hushsiz.

* * *

Sarvinozim, yo'q ajab, gar ro'zadin topmish malol,
Kim suv ichmasdin topar pajmurdalig'¹ nozik nihol.

Yillar og'zirkim qurutmishsen ziloli vasl uchun,
Bilding erkin shammaikim sa'b erkandur bu hol.

Kun tush o'lmay ro'zayu issig'din ul oy qildi za'f,
Ne haroratdur quyosh, yo Rabki, topqaysen zavol.

Ro'za za'fidinki chiqmas uydin o'lmish mohi nav,
Za'f ko'rgilkim to'lun oyimni aylabtur hilol².

Ro'za muhri sog'inib dermenki olsam tishlabon
Har qachon ko'rsam aning shirin dudog'i uzra xol.

Sharbatin dermen ezay jon shirasidin qil madad,
Zulmatingdin tiyralik, ey Xizru chashmangdin zilol.

Elga shom o'lmish, Navoiyg'a yuzungdin subh erur,
Kim sog'insun ro'za shomin bor egach subhi visol.

¹ Pajmurdalig' — so'lg'inliq; ² hilol — uch kunlik oy.

* * *

Soqiyo, kechagi may nash'asidin jon toptim,
Zulmat ichra masalo chashmai hayvon toptim.

Og'zinga olma olibkim manga tishlab berding,
Ham o'shul og'iz ila go'yi zanaxdon toptim.

Boda tobiyu yuzung partavidin tiyra kecha
To'lun oy ko'rdumu xurshidi duraxshon toptim.

Mehrdin ko'p nafas urma, der edim tongg'a boqib,
Kim men ushbu kecha xurshidni mehmon toptim.

Men to'kub ashk falakdek vale bexudlug'uma
Dam-badam yorumag'ur subhni xandon toptim.

Telba ko'nglumki, labu zulfung uchun itmish edi,
Kecha mayxona aro mastu parishon toptim.

Charxdin mehr tama' tuttum ofat ko'rdum,
Yordin vasl talab qildimu hijron toptim.

Zulfi fikrida Navoiyni labi tirguzdi,
Soqiyo, kechagi may nash'asidin jon toptim.



Yuzu zulfurni sog'inib kelmisham, ey mahjabin,
Kechani kecha demay, kunduzni kunduz demayin.

Ohu afg'on chekma deb, og'zing'a, jono, muhr qo'y,
Chunki la'ling xotamu yoquti nobingdur nigin¹.

La'lining bir-bir hadisi shahddek shirin erur,
Ore-ore doimo gul bargidindur angubin².

La'l uza xat ichra xolingdur nihon yo hinduyi
Sabzada yoshundi shakkar qasdig'a aylab kamin³.

Yangi oy xurshid aro bo'lmoq ayon ma'hud⁴ emas,
Vah, nedur aylab g'azab solmoq jabining uzra chin.

Sham'ni parvona kuydurmakdin, ey gul, qilma ayb,
Bulbul ermasturmu kul, yo sen emassen otashin.

Ey Navoiy, ochmag'ay qonimdin o'zga lolaye,
Har giyah bu yo'ldakim, qatling'a chekmish tig'i kin⁵.



¹ Nigin — kichik; ² angubin — asal, bol; ³ kamin — kichkina;
⁴ ma'hud — odat; ⁵ kin — dushmanlik.

* * *

Ulki har tun uyg'onib, yonida ko'rmas hamdamin,
Yo'q ajab, gar soyani hamdam qilib aytur g'amin.

Qo'ynida af¹i¹, ne mumkin ko'zga uyqu kirmagi,
Ulki har kun yod etar bir zulfning pechu xamin.

Takya ne imkon tushub bistar aro yuz ming tikan,
Ulki bir mujgon xayoli tiyra qilmish olamin.

Kecha afg'on qilmasam tong yo'q, birovkim ko'ngliga
Hajr o'qi tevruldi, mushkildur qatiq urmoq damin.

Ne yorug' bo'lg'ay hayoti sham'i, ulkim ishq anga
G'am shabistoni aro yog'durdi hijron shabnamin.

Zaxmingga sep, ey ko'ngul, navmidlig' tufrog'ikim,
Topmadi ko'k huqqasida² kimsa vuslat³ marhamin.

Charx anjum ashkini sochib, nedin kiymish qaro,
Hajr shomi tutmog'on bo'lsa Navoiy motamin?



¹ A f ' i – ilon; ² h u q q a – qimmatbaho toshlar solinadigan quticha; ³ v u s l a t – yetishmoq.

* * *

Ne tirikmen, ne o'luk, ne sog', ne bemormen,
Ayta olmonkim firoqingdin ne yanglig' zormen.

Nuqtai og'zing g'amidin tortibon jadvaldek oh,
Ashk selin oqizib sargashta chun pargormen¹.

Do'stlar, ko'nglum hadisin demangiz tengri uchun,
Kim men ul devonai sargashtadin bezormen.

Ko'nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,
Ey azizim, men ham ul ko'nglak aro bir tormen.

Bir quyosh hajrinda tundek ro'zgorim tiyradur,
Tong emas gar tun kibi motam tutub yig'lormen.

Mayda afyun ezgil, ey mug'kim, bu eski dayr aro
Telbararmen g'ussadin gar bir nafas hushyormen.

Nevchun el dashnomu ta'nidin bo'lay oshufta hol,
Ey Navoiy, chun nekim derlar yuz oncha bormen.

¹ P a r g o r — sirkul.

* * *

Vafo ahlig'a davrondin yetar javru jafu asru,
Jafosidin aning ozurdadur ahli vafo asru.

Bukim, ahli vafo noyob erurlar ondin erkankim,
Bu eski toq alarg'a yog'durur gardi balo asru.

Falak dardi iloji chiqmay ondin kimsa topmaydur,
Magar noyob erur ul huqqa ichra bu davo asru.

Garonjonlig'ni qo'y, jon ber, tilar bo'lsang duri maqsud,
Ki olamda og'irdur ushbu javharg'a baho asru.

Fido jonimni aylab, olam ahlidin tama' qildim,
Vafo, astag'firulloh, qilg'on ermishmen xato asru.

Rizo ahlin siyosat tig'idin qo'rqutmag'il, ey shah,
Ki qatlingdin sening qo'rqarg'a o'lmaydur gado asru.

Tabiat johidin ruhungni qutqorkim, xush ermastur
Qafas qaydi aro bulbulg'a bo'lmoq muftalo asru.

Chu kavsar jomi zikri qilmadi raf ' o'zlugum qaydin,
Bu ranjimg'a hamono naf ' etar jomi fano asru.

Havoi gulshani quds et¹, Navoiykim, xush ermastur
Zag'anlar² birla bu gulshanda bo'lmoq benavo asru.

¹ Havoi gulshani quds et — muqaddas gulshan sari uch;

² Zag'an — zog'lar.

* * *

G'amimninmu deyin yo beg'am elning mojarosinmu?
Ko'ngul holinmu, yoxud ko'nglum olg'onning jafosinmu?

Qatiq ishqin baloyu shiddatinmu aylayin taqrir¹,
Yo'q ersa benihoyat ishtiyoqim ibtilosinmu²?

Adadsiz dardu ranjim sa'b ekonnimu qiloyin sharh
Sifatqa rost kelmas shavqum oshubi balosinmu?

Ko'ngulda vasl bog'i orzusinmu bayon aylay,
Bag'irda xoti hijron no'gining muhlik yarosinmu?

Vafosiz yor beparvolig'iningmu so'zin aytay,
Manga javru jafo tig'in urub, elga vafosinmu?

Falak zulmi, ulus bedodi yo bir sarvi ra'noning
Mening holimni aylab behavo, har yon havosinmu?

Navoiy, iltifot og'oz qildi, yor bilmonkim,
Firoqidin shikoyatmu qilay, vasl iltimosinmu?

¹ T a q r i r — gapirmoq; ² i b t i l o — baloga qolish.



G'amidin garchi jon yo'q erdi tanda,
Tirildim la'lidin o'ldum deganda.

Necha bog' ichra borsam bo'yi topmon,
Qadingdin sarv birla norvanda¹.

Yashurun necha ko'z solsam adamning,
Vujudi yo'qtur og'zing bor ekanda.

Tilar kirpiklaringni zor ko'nglum,
Bo'lur bulbul yeri doim tikanda.

Dema gul umrin oz, ey bog'bonkim,
Seningdek ko'pni ko'rmish bu chamanda.

Navoiy garchi o'ldi lola yanglig',
Erur dog'ing bila qonlig' kafanda.

Nechakim shoh beparvolig' etsa,
Kerak o'ksutmasa qullug'ni banda.



¹ N o r v a n — xushqomat va serbarg daraxt.

* * *

Pardag'a kirgan kibi xurshidi raxshon har kecha,
Azmi xilvat aylar ul sham'i shabiston har kecha.

Ul kulub ahhob birla subhdek, men sham'vor
O'rtanib ko'nglum to'karmen durri g'alton har kecha.

Bir quyosh hijronida uryon tanim gardun kibi
Mehr o'tidin ko'rguzur ming dog'i pinhon har kecha.

Gah-gah, ey maxmuri xob olud, so'r ul xastani,
Kim etar og'zig'a la'ling yodidin jon har kecha.

Nosiho, ne nav' pinhon toat aylaykim, olur
Dinu donish naqdini bir nomusulmon har kecha.

Bir kecha so'rg'il meni ondin burunkim, so'rg'asen
Qoni ul bedilki aylar erdi afg'on har kecha.

Chek, Navoiy, nola, ko'z may bersunu bag'rim kabob,
Chun bo'lur ul oy xayoli bizga mehmon har kecha.

* * *

Qil uchi ko'rmay og'zingdin nishona.
Anga oshiq bo'lubmen g'oyibona.

Xating bosh chekkali xoling ko'runmas,
Ko'kardi chun ekin, gum bo'ldi dona.

Bahona qilmay el qonin to'karsen,
Manga etkach qilursen bir bahona.

Bulut ermaski gardun yuz yashurmish,
Ki tortar shu'lai ohim zabona.

Bu javlonkim qilursen, vah, zamone,
Inon chekkilki qo'zg'aldi zamona.

Fano ahli so'zin ko'p ayla mazkur,
Ki uyqu daf' etar ushbu fasona.

O'tar yoring, Navoiy, arz qilkim,
Qadam qo'ysang yaqindur bandaxona¹.

¹ B a n d a x o n a — qulning uyi.

Mehrdin dermenki bo'lsam doim ul oyim bila,
Naylayinkim charx evrulmas mening royim¹ bila.

Hajr aro mendurmenu bir ohu bir xam qomatim,
G'am cherigi² xasmu³ men bu nav' o'q-yoyim bila.

Ahli majlis kuydurur tilin kesib, boshin uzub,
Sham' da'vo qilsa mohi majlis oroyim bila.

Ko'hi dardu teshai hijronni so'r Farhodiddin,
Anglamas Xisravki Shirin birladur doyim⁴ bila.

Husnig'a har lahza hayronroqmen oxir yaxshidur,
O'lmasam nogah bu ishq hayrat afzoyim bila.

Bo'lmayin dayri fano xammori gar qilsam badal,
Zohidi xudbin ridosin boda poloyim⁵ bila.

Dam-badam miskin Navoiyning degil qon yutmog'in,
Ey qadah, gar hamdam o'lsang boda paymoyim⁶ bila.

¹ R o y i m — istagim; ² c h e r i k — qo'shin; ³ x a s m — dushman;
⁴ d o y — devor sirasi; ⁵ b o d a p o l o — may suzadigan mato;
⁶ b o d a p a y m o y — may quyuvchi.

Ilgin ul gulrang etibdur lola yafrog'i bila,
Kaflarin bargi bila, tirnog'larin dog'i bila.

Rishtai zulfi xayolidin havo qilg'on ko'ngul
Bir qushedurkim, qochibdur go'yiyo bog'i bila.

Reshlar ko'ksumda ko'r, Farhod bahsin qo'ykim, ul
Qozmadi mendek balo tog'ini tirnog'i bila.

Sham' hamdardimdurur hijron tunikim men kibi
Hajr o'tida qovrulur, ul dog'i o'z yog'i bila.

Otashin la'ling shahidi qabridin gulgun g'ubor,
Kim qo'por o'tdur, emas qon rang tufrog'i bila.

Bemahal gulbong ila yolqitma bulbul elnikim,
Dahr bog'i gullari xushtur vale chog'i bila.

Lola ermas, urdi o't gulshang'a bir gul hajridin,
O'rtanur har dam Navoiy nola qilmog'i bila.



* * *

Ko'yida yig'lar edim men zor har bemorg'a,
Emdi yig'larlar bari bemorlar men zorg'a.

Hajr bepoyor yo'lin qat' aylamak dushvor erur,
Za'fdin menkim yururmen qo'l tayab devorg'a.

Telba ko'nglumning qushidin qonu yuzdin za'faron
Qilsalar daf'i jununum basdurur tumorg'a.

Ishq paydovu nihon o'lturdi, lekin yo'qturur
Zahra bu holimni ham ixfog'a, ham izhorg'a.

Zulfida men foniya tasbih ila mag'rur shayx,
Subha torin bas, ne yanglig' o'xshatay zunnorg'a.

Yo'q ajab o'lsam dog'i kavsar suyi bo'lg'ay nasib,
Naz' vaqti' solsam o'zni kulbai xammorg'a.

Zor o'lub miskin Navoiy nechakim chekti fig'on,
Qilmadi ul oy tarahhum bu fig'onu zorg'a.

¹ N a z ' v a q t i -- jon chiqish vaqti.

* * *

Jilvamu aylar qizil to'n birla har yon ul pari,
Yo magarkim lolazor ichra kezar kabki dari.

Telbalar qatli qizil qilmish libosin, ohkim,
Bir yo'li devonalar qonig'a kirmish ul pari.

Hullasin xunoblig' jon rishtasidin qildi charx,
Bo'ldi jonlar joni, vah-vah, ul parivash paykari.

Orazing naqshimudur qonlig' ko'ngulda jilvagar,
Yo shafaqdin bo'ldi toli' oftobi xovari.

Ich shafaqgun mayki, gardun qotilidurkim, erur
Yangi oy birla shafaq tig'u libosi ahmari.

Qon uza ko'nglum yuzung shavqidin andoq xastadur,
Kim erur gulgun harir oltinda oning bistari¹.

Ul pari la'lida joning, ey Navoiy, bo'ldi mahv,
La'lgun kisvatda mahv etgandek o'zni ul pari.

¹ B i s t a r — ko'rpa.

Ey dudog'ing sharbatida obihayvon lazzati,
Lazzati bo'lg'ay nasibim, bo'lsa la'ling sharbatl.

Kechalar hajringda bexudmen, mening holimg'adur
Sham'ning gah kuymagi, gah nolasi, gah riqqati¹.

Mehnati hajringda ishim oh ila faryod erur,
Oh agar faryodima yetmas visoling davlati.

Lablaringning hasrati ko'nglumda bo'lsa ne ajab,
Shisha birla bodaning bir-birga ko'ptur nisbati.

Orazingg'a, ey pari, majnun ko'ngulning mayli bor,
Telba yanglig'kim, aning o't birla bo'lg'ay ulfati.

Umr erur ishq ahlig'a payki nasim², ey bog'bon,
Basdurur bu ruddaog'a shohid oning sur'ati.

Yuzu xolingdin Navoiyning ko'zidur qon aro
Loladekkim dog'i bo'lmish ko'z qarosi haybati.



¹ R i q q a t — noziklik; ² p a y k i n a s i m — shamol.

* * *

Ko'nglumba sho'r¹ soldi birovning malohati,
Vahkim, ajab tuz o'ldi yana zaxmim ofati.

Ter qatrasin yuzida ko'rub ishqim o'ldi tez,
Afzun bu suvdin o'ldi o'tumning harorati.

O'ynatti qoshu, ohkim, ul dos² no'gidin
Bag'rimning o'ldi toza o'ngalg'on jarohati.

Sekritti raxshu³ kuydi ko'ngulning ul o't bila
Jon mazra'ida⁴ xirmanani oromu toqati.

Ko'nglum so'rarg'a keldi vale oldi jonni ham,
Mundoq bo'lurmu dilshudalarning⁵ iyodati⁶.

Sharbati visol yo may emish qaysi xastaning
Kim ishq anduhidin o'lubtur malolati.

Mayg'a Navoiy etti ko'ngul shishasini zarf,
Bu bo'ldi rindliq aro oning zarofati⁷.



¹ Sh o' r — to'polon; ² d o s — o'roq; ³ r a x sh — chiroyli ot;
⁴ m a z r a ' i — ekinzor; ⁵ d i l s h u d a — betob; ⁶ i y o d a t — kasalni
borib ko'rish; ⁷ z a r o f a t — pokiza, nozik fahmlilik.

* * *

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zgorimni.

Falak bedodidlin garchi meni xokiy g'ubor o'ldum,
Tilarmen topmag'aylar to'tiyolig'qa g'uborimni.

Shak ermas pa'tavi tushgach uyi ham, raxti¹ ham kuymak,
Chu go'riston gadoyi sezmagay sham'i mazorimni.

Demang qay sori azm etgung, manga yo'q ixtiyor, oxir
Qazo ilgiga bermishmen inoni ixtiyorimni.

Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za'faroni yuz,
Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.

Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz mehnat,
Ne tong, boshim olib ketsam qo'yub yoru diyorimni.

Yomon holimg'a bag'ri og'rig'ay har kimsakim ko'rgay,
Bag'ir pargolasidin qong'a bulg'ong'on uzorimni.

Hayotim bodasidin sargaronmen asru, ey soqiy,
Qadahqa zahri qotil quy, dog'i daf' et xumorimni.

Jahon tarkini qilmay chunki tinmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o'rta¹ yo'qu borimni.

¹ R a x t — uy asbob-anjomi.

MUNDARIJA

“Badoye’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlaridan

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo	4
Bediling xayli rusuli sensen alarg’a dilrabo	5
Har gadokim, bo’ryoyi faqr erur kisvat anga	6
Ham ramad tekkan ko’zungga jismi bemorim fido	7
Ul parivashkim, bo’lubmen zoru sargardon anga	8
Ko’rgali husnuningni zoru muftalo bo’ldum sanga	9
Labing sori tokim nazardur manga	10
Menmudurmenkim sening vasling muyassardur manga	11
Kimsa hargiz ko’rmadi chun ahli davrondin vafo	12
Ko’nglum o’rtansun agar g’ayringg’a parvo aylasa	13
Qosidekim yordin bir so’z rivoyat aylasa	14
Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo	15
Tushta ko’rdum yorni xandon raqibin o’truda	16
Xil’atin aylabtur ul sho’xi siyminbar qaro	17
Xo’blarda mehr yo’q, chun mehr yo’q ul mohda	18
Ul pari paykarki hayron bo’lmish insu jon anga	19
Nechakim kuyar ishq aro jon inenga	20
Ko’zungga tani notavonim fido	21
Dardi hajringg’a ul iki la’li xandondur davo	22
Havo xush erdiyu ilkimda bir qadah mayi nob	23
Labingdin xasta jonkim bo’ldi betob	24
Dahr bog’i aro ko’p istamagil ayshu tarab	25
Yor og’iz ochmasqa dardim so’rg’ali toptim sabab	26
Soching qarong’u tun, ey sarvqadi shirin lab	27
Kimsa yori birla xushtur g’am deyishib mungrashib	28
Qachon maktabqa ul mohi muaddab	29
Tun oqshom keldi kulbam sari ul gulrux shitob aylab	30
Zulfu yuzu sunbulingni gul uza tarqatma ko’p	31
Yoshurun dardimni zohir qildi afg’on oqibat	32
Sho’x iki g’izolingni noz uyqusidin uyg’ot	33
La’l emas shirin labingkim jon topar andin hayot	34
Qildi dushman rahm baskim, qildi javr izhor do’st	35
Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg’a ayt	36
Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg’a ayt	37
Ishqi soldi xonumonim ichra o’t	38
Mening rasvolig’img’a bodayi gulgun erur bois	39
Mening majnunlug’umg’a ishqu savdo gar erur bois	40
Girih-girih chu tugarsen — yetar ayog’ingga soch	41
Ko’rub dardim, tarahhum qilmading hech	42
Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach	43
Tong emas, gar bo’lsa har sarvi pariruxsor sho’x	44

Meni havosida devona ayladi ul sho'x	45
Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand	46
Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod	47
Parim bo'lsa uchub qochsam ulusdin to qanotim bor	48
Jafo qilur bari gulchehralar, vafo qilako'r	49
Furqatingdin za'faror uzra to'karmen lolalar	50
Yana sensizin munisim g'am bo'lubtur	51
Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur	52
Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur	53
Xolu xating xayolidir, ey sarvi guluzor	54
Hureki, mening jonima ofat yetilibtur	55
Voyu yuz ming voykim, tarki muhabbat qildi yor	56
Har qayon boqsam ko'zumga ul quyoshdin nur erur	57
Yor bordiyu ko'nglurda aning nozi qolibtur	58
Beliyu og'zi ko'rar-ko'rmasda chun pinhon erur	59
Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar	60
Kimki oning bir malaksiymo parivash yori bor	61
Kecha badmast o'lg'animdin infi'olim bordur	62
Zulfung ochilib orazi diljo' bila o'ynar	63
Tirguzur yuz xastani bir noz ila ul dilnavoz	64
Jamoateki, junun man'ini manga qilasiz	65
Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyoru yorsiz	66
O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz	67
Ko'yung borida qilmen jannatg'a guzar hargiz	68
Sarv yanglig' jilva qilsang noz ila, ey sarvnoz	69
Do'stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz	70
Menga ul ko'zi qaro cedi chuchuk chandin so'z	71
Ul pari ko'yida men devonani band aylangiz	72
Sunbulin Layli ochibtur — yel abiroso emas	73
Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas	74
Bog' aro ne sarv etarmen orzu, ne gul havas	75
Bizga davron bog'idir bir sarvi gulruxsor bas	76
Ko'nglum ichra dardu g'am avvalg'ilarg'a o'xshamas	77
Gulshani iqboli xori mehnatig'a arzimas	78
Xo'blar ming bo'lsalar, men xastag'a bir yor bas	79
G'amzangg'a kishi nazora qilmas	80
Dahrdin mehru vafo qilma havas	81
Yo'zuqsiz, jurmsiz bedod etar fosh	82
Meni sargashta jismin dog' ila qon lolazor etmish	83
Manga emdi sarv ila gul muddaosi qolmamish	84
Ko'ngulkim zarnishon paykonlaringdin notavon bo'lmish	85
Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh	86
Latofatda yuzung ham gul emish, ham gulsiton ermish	87
Oshiq o'ldum bilmadim, yor o'zgalarga yor emish	88

Bizing shaydo ko'ngul bechora bo'lmish	89
Har kun aqshomig'a hajringda menga zorlig' ish	90
Kechti umrum naqdi g'aflat birla nodonliqda hayf	91
Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q	92
Bo'lmas ermish dilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq!	93
Qaro-qaro mija xanjarlarin ititmak ishing	94
Gar jaf o'qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening	95
Orazing guldur, gul uzra sabzayi tar kokulung	96
Tilagim sening huzurung, talabim sening jamoling	97
Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok	98
Ko'ngullar quti shirin dostoning	99
Base dard berdingu davo qilmading	100
Ishq o'tidin qismatim dardu balomu qilmading?!	101
Oshiq o'ldum pand bermang, choram asbobin tuzung	102
Gulshan ichra yo'qtur oromim, diloromim kerak	103
Aytmonkim la'li jonbaxshing erur jondin chuchuk	104
Yor kelsa, do'stlar, ohangi raftor aylamang	105
Shomi hajrin ko'rdung, ammo zulm tarkin tutmading	106
Vahki, o'tluq chehra ochib xonumonim o'rtding	107
Men jahondin kechtimu kechmas mening jonimdin el	108
Qaro ko'zum, kelu mardumlug' emdi fan qilg'il	109
Nomasi qo'ynumda, baskim iztirob aylar ko'ngul	110
Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko'ngul	111
Yo Rab, ul oy husnin el fahmig'a nomafhum qil	112
Ko'nglung istar yorlar birla hamisha shod bo'l	113
Qomatingg'a har zamon yuz jilva, ey zebo nihol	114
Kecha ul oy birla erdim, vah, bu tushdur yo xayol	115
Ul shayxki minbar uza afsung'a berur tul	116
Gulshaningdin yeldek, ey zebo nihol	117
Bahor bo'ldiyu gul mayli qilmadi ko'nglum	118
Tun oqshom bo'ldiyu kelmas mening sham'i shabistonim	119
Kecha ul mahvashni yod aylab farovon yig'ladim	120
Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo mehribone topmadim	121
Ne kun kelgayki, kelgay nozaninim	122
Chun o'larmen bir nafas ul dilraboni ko'rmasam	123
Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar navro'z ila bayram	124
No'shi labini har necha so'rdu, o'sonmadim	125
Sarvi ozodimni bog' ichra xiromon istaram	126
Xilvate topib seni jismim aro jon aylasam	127
Oncha yig'latti jafodin do'stdur deb sevganim	128
Tutqali shirin labin shoxi shakardur harmog'im	129
Ey pari, rahm etki ko'nglum zor erur, bechora ham	130
Ul quyosh yuzlukni har tun yod qilmoqdur ishim	131
Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim	132

Labing hayot suyidin zilol emish bildim	133
Chun o'larmen bir nafas ul dilraboni ko'rmasam	134
Meni bedil sanga jon o'ynamoq birla yaraydurmen	135
Yonida bo'lmasam rafase, dardnokmen	136
Sensizin, ey umr, bir soat manga jon bo'lmasun	137
G'amingda har kecha, ey gul'uzor, yig'larmen	138
Falak sitezasidin bo'lma, soqiyo, mahzun	139
Do'stlar, bir chora men devonai shaydo uchun	140
Yoridin hech kim meningdek zoru mahjur o'lmasun	141
Lablaring sharbatini chashmayi hayvonmu deyin?	142
Ishq ahli sotqun olsa izing to'tiyosidin	143
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin	144
Bir parivashkim ko'ngul devonadur savdosidin	145
Ikki gul bir kecha kulbamni guliston aylabon	146
Oshiq o'ldum necha javr ahli zamondin tortayin	147
Chehra yopting xasta jonimni anga zor aylabon	148
El g'amimdin kuymasun deb nolayi zor aylamon	149
Qomatingdek bog'i husn ichra yo'q sarvi ravon	150
Xatingkim mehr uza chekti savodin	151
Yuzungda may guli yo gul ochilg'on bo'stondur bu	152
Belingu zulfung xayolin sharh etarmen mo'-bamo'	153
Ko'p qochar yor oni ko'p qilsam meni zor orzu	154
To tushta yuzin ko'rdu bo'lmish menga kom uyqu	155
Yuzung bayozida ul xoli mushkso hindu	156
Agar oshiq etsa visol orzu	157
Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo'stonig'a	158
Yonida el ko'rsam, o'q sanchilmasunmu jonima	159
Anbari tar istamon yuz uzra xoling borida	160
Yo Rab, ul yuzni darne ko'zumga pinhon aylama	161
Boda tut, soqiyki, ayyomi visol o'ldi yana	162
Nasihat ahli manga derki: "Mayni tark et", vah	163
To ko'rubon yuzin quyosh qolg'ali ishtiyoqig'a	164
Vahki, umrum barcha zoyi' bo'ldi el komi bila	165
Lablaringkim, hayf erur teng tutmoq oni qand ila	166
Gar sabodek hamdam ermon sarvi ozoding bila	167
Hayhotkim, birav g'amidin zormen yana	168
Va'da aylab vasl, jismi notavonim o'rtama	169
Falakdin yaxshiligi yegay debon ko'nglungni shod etma	170
Istaram yetsam quyundek gul'uzorim qoshig'a	171
Bir kichik yoshlig' nigore topmisham nozukkina	172
Sarvu gul husn ichra yo'q ul sarvi gul ruxsorcha	173
Ey sabo, holimni arz et gulruxi tannozima	174
Kishi visol tuni yori birla yotquncha	175
Yordin yaxshi emas aylamagi yor gila	176

Labing fikri bag'rimni qon qildilo	177
Chun ilik bermaski o'psam, ul sitamkor ilgini	178
Jong'a chun dermen: "Ne erdi chiqmog'ing kayfiyati?"	179
Bir kun meni ul qotili majnunshior o'lturgusi	180
Yuz urma har taraf, ey sho'xu, zor qilma meni	181
Ey, guli suri chamanda orazing sharmandasi	182
Nargisin gul uzrakim bemor etar noz uyqusi	183
Ey ko'ngul, berding ilikdin vaslining davronini	184
Mahvashekim, mehridin bo'ldum jahon ovorasi	185
G'aribliq yana ko'nglumni dardnok etti	186
Jonim chiqadur, hajr ila jonon kerak erdi	187
Ey, hayotim naqdi la'li xurdadoning sadqasi	188
Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'lmag'ay	189
Og'iz ichra tilingdek g'unchada gulbargi tar bo'lg'ay	190
Labing takallum etib, so'zda lol qildi meni	191
Bir pari paykar g'ami oshuftahol etmish meni	192
Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame	193
Bog'din keldi nasimu gul isin kelturmadi	194
Ne bir subh ul quyosh bazmi aro ichtim to'la jome	195
Nogah o'ldum bir ko'zi sohir giriftori, netay	196
Halqai zulfung ko'ngul chekmasmu erdi, ey pari	197
Vahki, hajring o'ti jismi notavonim o'rtadi	198
Bo'lmasam oshiq fig'onim zor bo'lg'aymu edi	199
Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay	200
Tushta sarvu guldin islab birni quchtum birini	201
Demangiz har kimni kim bir yor ila bor ulfati	202
Kecha hajringda tiriklikdin malolim bor edi	203
Gar alaming'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay?!	204
Charx agar solsa yiroq yuz yil visolingdin meni	205
Kelgil, ey oromi jonimkim, tilaydur jon seni	206
Necha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi	207
Xushtur ichmak yor yodi birla ishrat jomini	208
Hijron kuni har xastaki jonong'a yo'luqti	209
Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki	210
Navbahor o'ldiyu ayshim gulbuni ochilmadi	211
Ey uzoring ollida sharmanda mehri xovari	212
Muddaiylar betarahhum, yor beparvo base	213
Evrulay boshingg'ayu behushu hayroning bo'lay	214

"G'aroyib us-sig'ar" devonidan

Ey alifdek qomating mayli buzulg'on jon aro	215
Kimki ko'rsa mushki nob ul sunbuli serob aro	216
Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro	217

Ey ko'ngul, gar kimsa ahvolim demas yor ollida	218
Ne xush bo'lg'ay ikovlon mast bo'lsaq vasl bog'inda	219
Oncha davron birla ko'rdum ahli davrondin jafu	220
Bo'lsa ikkimizning yuzi aksi suvda paydo	221
May birla yuzung tintim ahmarimu ekin oyo?	222
Ey, sanga yuz xo'bu lab xo'bu labingdin kulgu xo'b	223
Ishqdin yonsa tanim so'rma sabab	224
Kezarmen ko'yida yillar nazar holimg'a solg'ay deb	225
Voykim, dushmandek o'ldi ahdidin begona do'st	226
Mening jununuma gar ul pari erur bois	227
Xonaqahda halqai zikr ichra g'avg'o qildi shayx	228
Chekar un ko'nglum ursang tiyg'i bedod	229
To xayoling gah ko'ngul, gah ko'z aro mehmon erur	230
Tirguzur har dam raqiblarniyu meni o'lturur	231
Barmog'i hayrat bilakim la'li xandon ichradur	232
Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar	233
Ul malaksiymo parik m xalq aning hayronidur	234
Yo'qki ul ko'z qoradur husnang aro, ey qorako'z	235
Dam-badam la'ling xayolidin ichim qonmu emas?	236
Qatiq dardim zuloli ashk etar fosh	237
Boda meni ayladi zuldu riyodin xalos	238
Yor chun istarki bo'lg'aymen mudom andin yiroq	239
Ishq aro vasling tilab hajringda bo'ldum dardnok	240
Turfa ruxsoringki husn ichra erur gulzordek	241
Qarodur xolu xattu ko'zu qoshing	242
Ey chuchuk jonim sering shirin labing	243
Iki g'unchang ermas, ey gulchehra, teng	244
Sarvinozim, yo'q ajab, gar ro'zadin topmish malol	245
Sogiyo, kechagi may nash'asidin jon toptim	246
Yuzu zulfungni sog'inib kelmisham, ey mahjabin	247
Ulki har tun uyg'onib, yonida ko'rmas hamdamin	248
Ne tirikmen, ne o'luk, ne sog', ne bemormen	249
Vafu ahlig'a davrondin yetar javru jafu asru	250
G'amimnimu deyin yo beg'am elning mojarosinmu?	251
G'amidin garchi jon yo'q erdi tanda	252
Pardag'a kirgan kibi xurshidi raxshon har kecha	253
Qil uchi ko'rmas og'zingdin nishona	254
Mehrdin dermenki bo'lsam doim ul oyim bila	255
Ilgin ul gulrang etibdur lola yafrog'i bila	256
Ko'yida yig'lar edim men zor har bemorg'a	257
Jilvamu aylar qizil to'ri birla har yon ul pari	258
Ey dudog'ing sharbatida obihayvon lazzati	259
Ko'nglumga sho'r soldi birovning malohati	260
Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni	261

Adabiy-hadiiy nashr

Alisher Navoiy

VAFO QILSANG

G'azallar

Nashr uchun mas'ullar: *Mizrob Bo'ronov, Nazira Jo'rayeva*

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*

Musavvir *Anatoliy Bobrov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Kichik muharrir *Nazmi Fozilova*

Musahhih *Fotima Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchilar: *Surayyo Rahmedova,*

Galina Otaskevich

IB № 4245

Bosishga 01.11.2004-y.da ruxsat etildi. Bichimi $84 \times 108 \frac{1}{12}$ 1-nav
bosmaxona qog'ozi. Maktab garniturası. Ofset bosma.

14,07 shartli bosma toboq. 12,01 nashr toboq'i. Jami 10000 nusxa.

85-2004 raqamli shartnoma. 256 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy
ko'chasi, 30 // 700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.